**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SAKIYEVA OZODA BATIROVNA**

# KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)

**Termiz 2024**

**UDK: 311.21.378**

**Sakiyeva O.B.**
Kichik sanoat zonalari faoliyatining iqtisodiy-statistik tahlili va ularni takomillashtirish (Surxondaryo misolida): monografoya / O.B. Sakiyeva - Termiz: 2024. - 132 b.

**Taqrizchilar:** O.A. Abdug'aniyev, Termiz davlat universiteti professori, i.f.d (DSc).,
S. T. Toshaliyeva, Termiz davlat universiteti, "Raqamli iqtisodiyot, biznes boshqaruvi va ekonometrika" kafedrasi dotsenti, i.f.f.d.,
B.E. Turayev, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasi katta oqituvchisi, i.f.f.d.

Monografiyada kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirishning nazariy asoslari, ularning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o'rni, ahamiyati, hozirgi holati, rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, tamoyillar va zonalarning samaradorligini baholashning monitoring ko'rsatkichlari o'rganilgan hamda uslubiy yondashilgan. Tadbirkorlik sub'ektlarini kichik sanoat zonalariga tanlov asosida joylashtirishning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik mezonlari, kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirishning konseptual modeli, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasini integral baholash va shu asosda kichik sanoat zonalarini tasniflash hamda rivojlanish yo'nalishlarini belgilash, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi asosida kichik rivojlantirishning davlat sanoat zonalarini barpo etish va tomonidan moddiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, unda milliy iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirishda kichik sanoat zonalari o`rni yildan-yilga oshib borayotganligi va hudud darajasida kichik sanoat zonalari joriy holatini o'rganish, rivojlanishini tadqiq etish, uning rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, kichik sanoat zonalarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib iqtisodiy-statistik tahlil qilish, modellashtirish, rivojlanish tendensiyalari barqarorligini oshirish hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini prognozlash bo'yicha ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Monografiya iqtisodiyot, ekonometrika bilan bog'liq masalalar bilan qiziquvchi tadqiqotchilar, talabalar va mutaxassis-amaliyotchilarga mo'ljallangan.

Monografiya Termiz davlat universiteti Ilmiy kengashining 2024 yil "7" dekabrdagi "3"-son yig'ilishining qarori bilan chop etishga tavsiya etilgan.

# KIRISH

Jahon mamlakatlarida kam rivojlangan va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etmagan hududlarda industrial parklar, texnopolislar va sanoat zonalarini tashkil etish orqali rivojlantirish, bu orqali hududlarning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadini oshirish uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, hududlardagi investitsion jozibadorlikni oshirish, shu asosda raqobatbardosh, eksportbop, import o‘rnini bosa oladigan mahsulot ishlab chiqarishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, kichik sanoat zonalarini barpo etishda innovatsion yondashuvlar, zamonaviy taraqqiyot tamoyillari tendensiyalarini to‘liq qamrab oluvchi ekonometrik modellarni ishlab chiqish va shu asosda mazkur sanoatni rivojlantirish uchun uning asosiy ko‘rsatkichlarini doimiy ravishda modellashtirilish va prognozlash, mazkur jarayonlardan davlat iqtisodiy siyosatining muhim dastagi sifatida foydalanish muammolari bu boradagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda kichik sanoat zonalarini tashkil etish va ular faoliyatini takomillashtirish, undagi mavjud muammolarni bartaraf etish masalalariga Taraqqiyot strategiyasi darajasida alohida e’tibor berilmoqda. Unga ko‘ra 2022-2026-yillarda mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish, hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish, sharoiti og‘ir bo‘lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, 2026-yilga borib, tadbirkorlik subyektlariga soliq yukini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish, hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish va boshqa chora-tadbirlar belgilangan[1]. Mazkur chora-tadbirlarni hudud darajasida amalga oshirishda kichik sanoat zonalari

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, https://lex.uz/doss/5841063.

joriy holatini o‘rganish, rivojlanishini tadqiq etish, uning rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, kichik sanoat zonalari o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, iqtisodiy-statistik tahlil qilish, modellashtirish, rivojlanish tendensiyalari barqarorligini oshirish hamda istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini prognozlash asosida takliflar ishlab chiqish zarurati tug‘iladi. Shu bilan birga hududiy jihatdan, kichik sanoat zonalari Surxondaryo viloyati misolida barqaror rivojlanishini tadqiq etish masalasi uning istiqboldagi rivojiga to‘siq bo‘layotgan bir qancha muammolar sababli ham ahamiyatlidir. Bundan tashqari hududning jug‘rofiy joylashuvi, xomashyo resurslari ta’minoti, infratuzilmaviy sharoitlarni rivojlantirish zaruriyati masalalari tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.

Prezidentimiz tomonidan kichik sanoat zonalari faoliyatini rivojlantirish hamda ularni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, tadbirkorlar, loyiha egalari uchun to‘la qonli ish olib borish uchun zarur sharoitlarini sifat jihatidan yaxshilash va mahsulotlar realizatsiyasiga bevosita yordam berish, investitsion jozibadorlikni oshirish yordamida investitsiyalar jalb qilinishini yo‘lga qo‘yish, iqtisodiy jihatdan nochor va qoloq korxonalarning foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari asosida barpo etilayotgan zamonaviy texnologiyalarga tayangan holda raqobatbardosh, eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha innovatsion ishlab chiqarish texnologiyalarini tatbiq etilishini yanada faollashtirish, hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan[2]. Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli ijrosi kichik sanoat zonalari faoliyatini ekonometrik modellashtirishni taqozo etadi.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 21.06.2019-yildagi PQ-4363-son

# I-BOB. KIChIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAShTIRIShNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

## 1.1-§. Kichik sanoat zonalarining ijtimoiy – iqtisodiy mohiyati va ularni tadqiq etishning ilmiy-nazariy jihatlari

Mamlakatimizda hududlarning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanish mahalliy mineral-xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta‘minlaydigan zamonaviy korxonalar tashkil etish, shu asnoda yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadini oshirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning muhim omili sifatida erkin iqtisodiy zonalardan tashqari kichik sanoat zonalarini barpo yetishga alohida e’tibor berilmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, industrial parklarini barpo etish, bir tomondan, biznes yuritishning investorlar uchun qulay shakli bo‘lsa, ikkinchi tomondan, davlat sanoat-investitsiya siyosati va mintaqaviy rivojlanish siyosatining samarali mexanizmi bo‘lib, iqtisodiyotni mustahkamlash, korxonalarni vertikal integratsiyalash, mahalliy mutaxassislarni ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb yetishga ko‘maklashish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmini oshirish, mahsulot ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish imkonini beradi.

Bizga ma’lumki, rivojlangan xorijiy davlatlarda ham kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ish bilan ta’minlash va sanoatning texnologik rivojlanishi bilan bog‘liq muammolarni hal etishning muhim mexanizmlaridan biri erkin iqtisodiy zonalar, industrial parklar, texnoparklar, texnopolislar va sanoat zonalari hisoblanadi.

**Erkin iqtisodiy zona** – mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma’muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hududdir[3].

Sanoat zonasi– (industrial estate) — rasmiy aniqlangan, aholi

---

[3] Ж.И.Каримкулов., Ж.А.Умрзоқов. “Эркин иқтисодий ҳудудлар ривожланишининг назарияси ва амалиёти”. Монография.Тошкент-2017. 9- бет

yashash punktlaridan alohida tijorat va sanoat uchun moʻljallangan hudud[4]. Bu zonalar davlat yoki xususiy kompaniyalar tomonidan moliyalashtirildi.

Industrial (sanoat) park - bu maxsus hudud bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqa korxonalar umumiy infratuzilma va oʻzaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi orqali birlashtirilgan[5]. Sanoat parklarini tasniflashdan oldin mualliflar tomonidan amalga oshirilgan va shuni koʻrsatadigan terminologik tahlil qilish kerak.

Texnopark – ilmiy va innovatsion infratuzilma sub'yekti boʻlib, ilmiy-texnik sohada mahsulot ishlab chiqaruvchi ilm sigʻimli kompaniyalarni rivojlantirish uchun kerakli sharoitlarni yaratadi, u jihozlangan eksperimental baza, ijtimoiy infratuzilma va yuqori malakali kadrlar tarkibiga ega[6].

Berilgan ta'riflardan ma'lumki, "kichik sanoat zonasi"ga ham tuzilishi, ham mazmuni jihatidan "industrial park" tushunchasi yaqin. Hozirgi vaqtda industrial parkning ta'rifi bo'yicha yagona pozitsiya yoʻq. Tuzilmalarning ikki tomonlama mohiyatini hisobga olgan holda "industrial park" tushunchasining umumlashtirilgan ta'rifi taklif qilindi: bir tomondan, ular hududiy infratuzilma ob'yektini ifodalaydi, ularni o'rganish fazoviy iqtisodiyot qoidalari va ishlab chiqarishni joylashtirishning asosiy nazariyalariga asoslanishi kerak; boshqa tomondan, iqtisodiy aloqalar bilan birlashtirilgan va integratsiyalashgan biznes guruhlariga xos bo'lgan korporativ boshqaruv tamoyillari asosida ishlaydigan integratsiyalashgan sanoat ob'yektlaridir[7].

Ye. V. Sapir va I. A. Karachev fikriga koʻra, "industrial park" ga berilgan har qanday ta'rif, uning turli xususiyatlarini ochib berish uchun yetarlicha kengroq boʻlishi kerak[8].

Industrial parklar tarixi 1896 yilda Buyuk Britaniyada Manchester shahrida dunyodagi birinchi sanoat parki paydo boʻlgan paytdan

---

[4] Словарь по экономике (пер. с англ. П.А. Ватника). Colins. 1988

[5] Википедия – Свободная энциклопедия. URL: http://ru.wikipedia.org

[6] Салимов Б.Т., Салимов Б.Б. "Кичик саноат зоналарини барпо этиш ва ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий асосларини такомиллаштириш". Монография – Т.: Иқтисодиѐт, 2020. – 135 б.

[7] Мальцева А.А., Щеглов А.А. Терминологический анализ понятий «Индустриальный парк» с позиции современной науки и практики // Электронный научно-практический журнал «ИнноЦентр». С. 16–22. URL: http://innoj.tversu.ru/Vipusk1(2)2014/MaltsevaSheglov1(2)2014.pdf (дата обращения: 1 апреля 2014 год).

[8] Е.В. Сапир., И. А. Карачев. «Индустриальные парки в России и за рубежом:концепция и модели управления» // Инновационная экономика. 3(59). 2020.

boshlanadi. 360 000 funt sterlingga sotib olingan 1200 gektardan ortiq maydonda ingliz moliyachisi Ernest Tera Xooli Trafford Park Estates Ltd kompaniyasiga asos soldi. Oʻsha paytda Manchester toʻqimachilik sanoatining markazi boʻlishiga qaramay, toʻqimachilik faqat shaharning markaziy qismida ishlab chiqarilgan va Ernest Tera Hooli Parkidagi Trafford hududi turli ishlab chiqarish yoʻnalishlari uchun ijaraga berildi: hududda avtomobilsozlik korxonalari, elektrotexnika korxonalari, poʻlat ishlab chiqarish zavodlari va hatto pechene fabrikalar joylashgan edi. Uch yil oʻtgach, sanoat parki hududida birinchi Amerika kompaniyasi Westinghouse Electric tashkil qilindi va 1910 yilda Ford Motor kompaniyasining yaratuvchisi Genri Ford oʻzining birinchi avtomobil zavodini AQShdan tashqarida joylashtirdi. 1920 yilga kelib, 300 dan ortiq Amerika korxonalari dunyodagi birinchi sanoat parki hududida joylashgan edi[9].

1950 yillardan boshlab, yirik universitetlar bilan aloqada ishlaydigan maxsus innovatsion texnoparklar tashkil qilina boshladi. Industrial parklar bilan texnoparklar orasidagi katta farq shundaki, industrial parklar korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatini yuritish uchun zarur infratuzilma bilan ta’minlaydi, texnoparklar esa ishlab chiqarishni rivojlantirish, unga innovatsion texnologiyalarni joriy etishga hissasini qoʻshadi. Texnoparklar tarkibida albatta ilmiy- tekshirish institutlari, markazlar va universitetlar ishtirok etadi. Vaqt oʻtishi bilan biznes-parklar malakali kadrlar toʻplanadigan joylarga, ta’lim, savdo, madaniyat, koʻngilochar markazlarga oʻta boshladi, ular yirik shaharlardagi eski sanoat zonalari oʻrnida tashkil etildi. Industrial yoki sanoat parklari davlat ishtirokida rivojlanishi mumkin, bunda davlat rivojlanishni tartibga soluvchi rolini oʻz zimmasiga oladi.

Hozirgi vaqtda Eko-industrial parklar Xitoy, AQSh, Kanada, Hindiston, Indoneziya va Yaponiya davlatlarida koʻp tarqalgan. Umuman, ayni paytda 90 dan ortiq davlatlarda 20000 dan ortiq industrial parklar faoliyat yuritmoqda.

Rossiya Federatsiyasida industrial parklarning rivojlanishi 2005-yil

[9] Щетинина Т.С., Кузнецов А.Н. Международный опыт развития индустриальных парков // Экономика и менеджмент инновационных технологий. 2017. № 5 [Электронный ресурс]. URL: https://ekonomika.snauka.ru/2017/05/14837

22 -iyulda 116-F3-sonli "Rossiya Federatsiyasidagi alohida zonalar to'g'risidagi" qonuni qabul qilingandan keyin boshlandi. 2011-yil fevral oyida industrial park Assotsiatsiyasi (IPA) Rossiyada birinchi marta industrial parklarni ixtiyoriy ravishda sertifikatlashtirish tizimini joriy qildi. Shundan 2015-yilga qadar IPA boshqaruv organi tomonidan tasdiqlangan industrial sanoat parkning tarmoq standarti mosligi bo'yicha sertifikatlashtirish o'tkazildi. Sertifikatlatirishdan maqsad industrial parklar haqida davlat boshqaruv tashkiloti, investorlar, moliyaviy organlarga tizimli va ishonarli ma'lumot yetkazishdan iborat edi.

Industrial parklar nafaqat ilmiy tadqiqotlarni faollashtirish va sanoatni bilim talab qiladigan va energiya tejovchi texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirish, balki sanoat obyektlarini markazdan chekka hududlarga qayta taqsimlash imkonini beradi, bu esa hududiy tabaqalanish muammosini hal qilishga yordam beradi va mahalliy resurslardan optimal foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga, industrial parklarni yaratish va undan foydalanishdagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan davlat, hududiy va mahalliy hokimiyat organlarining manfaatdorligiga va park ishtirokchilariga taqdim etiladigan imtiyozlar paketiga bog'liq.

Jahonda 4 mingdan ortiq erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) va sanoat zonalari mavjud. AQSh va Xitoyda 400 dan oshiq, Turkiyada 262 ta, Germaniya va Vietnamda 200 dan oshiq, Chexiyada 140 ta industrial parklar mavjud[10].

Xitoy industrial parklar (sanoat parklari) faoliyati rivoji bo'yicha yetakchi mamlakatlardan biri bo'lib, sanoat parklari 1979 yildan o'z faoliyatini boshlagan. Xitoyda industrial parklar rivojlanish bosqichlari uch davrga bo'linadi:

- boshlang'ich industrial parklar tashkil qilish davri(1979-1990);
- industrial parklar jadal o'sish davri (1991-2000);
- industrial parklar optimallash va stabil davri (2001-h.v)[11].

[10] Изюмов М. Д. Роль индустриальных парков в региональной экономике: обзор зарубежного и российского опыта // Научный рецензируемый, цитируемый журнал «KANT» 4(37). 2020.
[11] Изюмов М. Д. Роль индустриальных парков в региональной экономике: обзор зарубежного и российского опыта // Научный рецензируемый, цитируемый журнал «KANT» 4(37). 2020.

A.A. Prachenko[12] ishida mamlakatda hududlarning hukumat organlari bilan o‘zaro ta’sirini yaxshilashning nazariy asoslari keltirilgan, ya’ni davlat industrial parklarining hududiy iqtisodiyotning fazoviy raqobatbardosh ixtisoslashuvi rivojidagi roli va funksiyalari nazariy asoslangan hamda davlat industrial parklarining hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishga ta’sirini aniqlashga hududlarda turli darajada taqsimlangan industrial parklar ishlab chiqarish rivojlanish ko‘rsatkichlari dinamikasining tarixiy-mantiqiy, qiyosiy hamda korrellyatsion-regression tahliliga asoslangan metodik yondashuv taklif etiladi.

O. L. Simchenko industrial parklari rezidentlari sanalgan sanoat korxonalari faoliyatini baholashning ma’lum qoidalardan ko‘rsatkichlarning darajalar bo‘yicha baholash bilan farqlanadigan, raqobatbardosh salohiyatni ustuvor baholash va parametrlarni retrospektiv taqqoslash bilan ajralib turuvchi asosiy qoidalari taklif etadi. Industrial parklar korxonalari faoliyatining monitoring o‘tkazish jarayonida strategik maqsadlarga erishish darajasini aks ettiruvchi integral indekslarni aniqlashni nazarda tutadigan maqsadli samaradorligini ikki bosqichli baholash metodikasi ishlab chiqilgan. Yevklid metrikasidan foydalangan holda resurs intensivligini qiyosiy tahlil qilish asosida industrial parklari korxonalari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash uchun rezident korxonalarni daraja bo‘yicha tartiblash imkonini beradigan hamda industrial parkning asosiy infratuzilma resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va resurslarni tejash bo‘yicha boshqaruv qarorlarini ishlab chiqadigan uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan[13].

T.Yu.Smolyaninova o‘z ilmiy ishida industrial park tushunchasiga mintaqaviy iqtisodiyotning hududiy element sifatida ajratilishi bilan farqlanadigan, yagona rivojlanish konsepsiyasi, infratuzilma, tegishli xizmatlarni ko‘rsatuvchi boshqaruv kompaniyasi bilan birlashtirilgan

[12] Праченко А. А. Государственные индустриальные парки: роль в развитии региона, совершенствование взаимодействия с органами власти // диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Воронеж, «Воронежский государственный университет» 2020;

[13] Симченко О. Л. Методический инструментарий оценки эффективности деятельности промышленных предприятий-резидентов индустриальных парков // диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Ижевск, «Ижевский государственный технический университет имени М.Т. Калашникова» 2019;

ishlab chiqarish kompleksi sifatida muallif ta’rifi berilgan[14]. Industrial parkning asosiy xususiyatlari, jumladan: yerdan sanoat maqsadida foydalanishning mavjudligi, boshqaruv kompaniyasi va infratuzilma (muhandislik, transport, moliyaviy, ijtimoiy) ning mavjudligi, alohida iqtisodiy sharoitlarning va rivojlanishning yagona konsepsiyasi mavjudligi tizimlashtirilgan. Muallif tomonidan industrial parkning moliyaviy va ijtimoiy infratuzilmasi ahamiyati keltirilgan.

N.V.Malinina ishida mintaqaviy iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi rivojlanishi, uning elementlarining maqsadga muvofiq funksional oshishiga olib kelishi isbotlangan. Rossiya hududlarining ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi darajasiga ko‘ra ilmiy tasnif qilingan hamda ko‘p ixtisoslashgan hududlarda tarmoq tuzilmasini o‘zgartirish iqtisodiy faoliyatning bir yoki bir nechta turlari uchun ixtisoslashuvi kuchayishiga olib kelishi asoslangan[15].

T.V.Konovalova ishida industrial parklarga innovatsion-sanoat yo‘nalishidagi ishlab chiqaruvchilarning umumiy omil unumdorligini oshirishga, xarajatlar kamayishiga hamda hududlarning resurslar va inson potensialidan to‘liq foydalanishga olib keladigan hududiy kooperatsiyaning maxsus formasi sifatida nazariy ta’rif berilgan. Industrial parklar rivojlanishining iqtisodiy o‘sishning tizimli-tarixiy turlariga ko‘ra uch bosqichi ochib berilgan, industrial parklar funksiyalari hamda turli mezonlarga ko‘ra mualliflik tasnifi keltirilgan[16].

D.S.Mironov ishida esa industrial parklar faoliyat asosi muhandislik infratuzilma inshootlarini  boshqarish operatorining bir qismi sifatida integratsiyalashgan kompleksni aniqlaydigan ishlab chiqarish tashkilotlarining yangicha bir shakli sifatida nazariy pozitsiyasi shakllantirilgan va asoslangan[17].

[14] Смольянинова Т. Ю. Индустриальные парки в региональной экономике: механизм создания, перспективы развития // диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Воронеж, «Воронежский государственный университет» 2015;

[15] Малинина Н.В. Развитие отраслевой структуры региональной экономики на основе реализации ресурсного потенциала индустриальных парков// диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Казань, «Казанский государственный технический университет им.А.Н.Туполева» 2011;

[16] Коновалова Т. В. Развитие индустриальных парков как инновационный фактор экономического роста// диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Москва, «Московский государственный университет имени М. В. Ломоносова» 2020;

[17] Миронов Д. С. Создание и развитие индустриальных парков как эффективной формы производственной организации// диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Екатеринбург, «Уральский государственный экономический университет» 2020;

T. I.Slepkova ilmiy ishida industrial parklar tarkibidagi sanoat korxonalarni boshqarishning ishlab chiqarish va infratuzilma sohasida ularning jozibadorlik imkoniyatlarini birlashtirishni hisobga oladigan konseptual modeli ishlab chiqilgan. Industrial parklar tarkibidagi sanoat korxonalari jozibadorligi integral salohiyatini baholash modeli industrial parklar tarkibidagi sanoat korxonalari rivojlanish omili sifatidagi shakllantirildi[18].

Ya.V.Sichev ishlarida esa yangi iqtisodiy ob'yektlar- industrial parklarning xavfsizlik masalalari o'rganilgan va tahlil qilingan. Xavf va tahdidlar tahlil asosida industrial parklar kompleks xavfsizligini ta'minlash usullari ishlab chiqilgan. Industrial parklar kompleks xavfsizligini boshqarish modeli tavsiya qilingan[19].

O'zbekistonda iqtisodiyotni erkinlashtirish, yangilash, investitsiyalarni keng jalb qilishda EIZ va KSZ sonini oshirish, ularini rivojlantirish va shu asosda yangi ish o'rinlari yaratish zarur. Hududlardagi iqtisodiy faollik va bandlikni kengaytirish maqsadida Respublikamizdagi kichik sanoat zonalari infratuzilma ob'yektlarini qurish, rekonstruktsiya va ta'mirlash uchun katta mablag' ajratilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlab o'tganidek: "Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish choralarini ko'rishimiz kerak. Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga yerishish mumkin. Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida biznes sub'yektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferensiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozim"[20].

[18] Слепкова Т. И. Управление hазвитием gромышленных gредприятий в составе индустриальных парков// автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук, «Национальный исследовательский Московский государственный строительный университет».2018

[19] Сычев Я. В Модель управления комплексной безопасностью индустриальных парков// диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Москва, 2016;

[20] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliasy-28-12-2018.

Prezidentimiz murojaatiga ko‘ra mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirish va barqaror o’sishini ta’minlash uchun kichik sanoat zonalaridan foydalanish muhim vazifa ekanligi ta’kidlanadi. Albatta bunda ularni tashkil etish uchun asos sifatida zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalar yer maydonlari, ya’ni qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlaridan foydalaniladi. O’zbekiston Respublikasida 2017-2022-yillarda zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalar soni 1.1.1- rasmda keltirilgan.




**1.1.1-rasm. O’zbekiston respublikasida 2017-2022 yillarda zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalar soni to‘g’risida ma’lumot**[21]

O‘’zbekistonda pandemiya sharoitida iqtisodiyotni barqaror o‘sishini ta’minlash, yangi loyihalarni amaliyotga tadbiq etishda investitsiyalar hajmini oshirish hamda kichik biznesni rivojlantirish, uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali yo‘llaridan biri bo‘lib kichik sanoat zonalari (KSZ) hisoblanadi.

Kichik sanoat zonalari – bu mahalliy tadbirkorlik sub’yektlari joylashgan, ma’lum yer maydoni yoki ishlab chiqarish maydonini o‘z ichiga oluvchi xudud bo‘lib, ular joylashgan hududlarni rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratadi. Asosan, sanoat ishlab chiqarishni jadallashtiradi, yangi investitsiya va yangi texnologiyalarni jalb qilishga,

[21] Manba: O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi ( hozirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Agentligi) ma;lumotlari

tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib beradi, hududda foydalanilmayotgan bo‘sh yer maydonlardan samarali foydalanish hamda real iqtisodiy sektorni rivojlantirishga, muhimi aholi uchun ish o‘rinlarini yaratish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga olib keladi.

Dastavval kichik sanoat zonalari foliyatini mohiyati hamda ahamiyatini yanada to‘laroq ochib berish maqsadida xorijiy davlatlarda sanoat ishlab chiqarishni hududiy tashkil yetishning shakli bo’lgan industrial parklar va ular faoliyatini tahliliy o‘rganib chiqamiz. Shuni ta’kidlab o’tishimiz mumkinki bugungi kunda mazkur tushunchaning yagona umumlashgan ta’rifi mavjud emas.

O‘zbekistonda esa industrial parklardan farqli hudud xususiyatidan kelib chiqib, “**kichik sanoat zonasi”** deb nomlangan yangi hududlar tashkil qilina boshlandi. 2014 yil 31 dekabrda qabul qilingan nizom[22]da “kichik sanoat zonasi” (KSZ) ga quyidagicha ta’rif berilgandi: zarar ko‘rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor va past rentabelli tashkilotlarning foydalanilmayotgan, muhandislik kommunikatsiyalari o‘tkazilgan va zarur infratuzilmaga ega alohida hudud (1.1.2- rasm). Bu ta’rifda KSZ ning faqat foydalanilmayotgan yoki zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalar yer maydonlarida joylashganligi e’tiborga olingan, unng qonuniy maqomi e’tiborga olinmagan.

2020 yil 9 martdagi kichik sanoat zonalari haqidagi nizom[23]da kichik sanoat zonalariga quyidagicha ta’rif berilgan: “Kichik sanoat zonasi (keyingi o‘rinlarda KSZ deb ataladi) — ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan, aholi punkti hududining yoki aholi punktlarlaro hududning qonun hujjatlari bilan muayyan maqom berilgan hamda hududi doirasida xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmaga ega bo’lgan ishlab chiqarish maydonlari joylashadigan va chegaralari aniq belgilangan qismi”. Bu ta’rifda esa qonuniy hujjatga egaligi hamda aniq chegaralari belgilangan hudud ekanligi tasdiqlangan.

Iqtisodchi olimlardan B. T. Salimov va B.B. Salimovlar o‘z ilmiy

---

[22] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “Kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”, 31.12.2014 yildagi 378-сон

[23] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kichik sanoat zonalari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida» qarori, 09.03.2020 yildagi 134-son

ishlarida kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish bilan shug'ullanishgan va KSZga quyidagi mualliflik ta'rifini beradi: "Kichik sanoat zona – sanoat sohasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini tanlov asosida joylashtirishga mo'ljallangan va samarali rivojlanishini ta'minlovchi, davlat imtiyozi va kafolatini olish imkoniyatini beruvchi, past rentabelli va iqtisodiy nochor korxonalarning foydalanilmayotgan davlat mulki hisoblangan bo'sh yer maydonlari va ortiqcha ishlab chiqarish maydonini o'z ichiga oluvchi muhandislik-texnik, transport kommunikatsiyalari o'tkazilgan va zarur infratuzilmaga ega hudud". Mualliflar yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib, KSZ tadbirkor subektlarining tanlov asosida joylashtirilishini aytib o'tgan.

Hozirgi vaqtda industrial parkning ta'rifi bo'yicha yagona to'xtam yo'q. Tuzilmalarning ikki tomonlama mohiyatini hisobga olgan holda "industrial park" tushunchasining umumlashtirilgan ta'rifi taklif qilindi: bir tomondan, ular hududiy infratuzilma ob'yektini ifodalaydi, ularni o'rganish fazoviy iqtisodiyot qoidalari va ishlab chiqarishni joylashtirishning asosiy nazariyalariga asoslanishi kerak; boshqa tomondan, iqtisodiy aloqalar bilan birlashtirilgan va integratsiyalashgan biznes guruhlariga xos bo'lgan korporativ boshqaruv tamoyillari asosida ishlaydigan integratsiyalashgan sanoat ob'yektlaridir[24].

Xorijda, xususan Rossiyada KSZ lar industrial parklar shaklida tashkil qilingan. 2014 yilda Rossiya Federatsiyasi tomonidan qabul qilingan sanoat siyosati haqidagi qonun[25]da industrial parklar, qonuniy maqomga ega sanoat infratuzilmasi ob'yektlari majmui sifatida ta'rif beriladi.

Iqtisodchi olim T.Yu.Smolyaninova[26] industrial parklarni maxsus ajratilgan hududga, zarur infratuzilmaga, yagona rivojlanish konsepsiyasiga ega hamda davlat imtiyozlarini olishi mumkin bo'lgan

---

[24] Мальцева А.А., Щеглов А.А. Терминологический анализ понятий «Индустриальный парк» с позиции современной науки и практики // Электронный научно-практический журнал «ИнноЦентр». С. 16–22. URL: http://innoj.tversu.ru/Vipusk1(2)2014/MaltsevaSheglov1(2)2014.pdf (дата обращения: 1 апреля 2014 год).

[25] Федеральный закон "О промышленной политике в Российской Федерации" от 31.12.2014 N 488-ФЗ (последняя редакция)

[26] Смольянинова Т. Ю. Индустриальные парки в региональной экономике: механизм создания, перспективы развития // диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Воронеж, «Воронежский государственный университет» 2015;

hududiy tuzilma elementi sifatida ta’rif beradi.

V.P.Gribanov fikriga ko’ra, industrial parklar professional boshqaruv kompaniyasi tomonidan boshqariladigan va yagona konsepsiya boʻyicha rivojlanayotgan ishlab chiqarish ob'yekti bo’lib, unga turli sanoat turini joylashtirish va ixtisoslashtirish mumkin[27].

B.P. Xijnyakov[28] fikriga koʻra, industrial park yagona boshqaruvga hamda barcha zarur infratuzilmaga ega boʻlgan innovatsion ishlab chiqarish majmuasi hisoblanadi.

Amerikalik olim Susan M. Walcott[29] esa oddiygina qilib, industrial parklar transport vositalari va boshqa yordamchi infratuzilma bilan integratsiyalashgan holda sanoat faoliyatini rivojlantirishga mo’ljallangan yer uchastkasi ekanligini ta’kidlaydi.

Industrial park, quyidagi maqsadlarga erishish uchun tashkil etiladi:

- industrial parki tarkibiga kiruvchi korxonalarning texnik va texnologik imkoniyatlaridan samarali va sinergetik foydalanish orqali ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoati sohasidagi aniq muammolarni hal qilish uchun bir-biridan farq qiluvchi kompaniyalarning integratsiyasi;
- gʻoyalar, ishlanmalar, ixtirolar va foydali modellar, texnologiyalar marketingi, shuningdek, tadqiqot va ishlanmalarning istiqbolli yoʻnalishlarini ishlab chiqish;
- hududning axborot infratuzilmasini rivojlantirish[30].

Kichik sanoat zonalari kichik innovatsion korxonalar boʻlib, eksportbop, import oʻrnini bosa oladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun qulay boshlangʻich sharoitlarni yaratadi. KSZ larning asosiy xizmatlari quyidagilar boʻlishi mumkin: loyihachi-tadbirkorlarga yer uchastkalari, binolar va infratuzilma ob'yektlarini ijaraga berish; energiya resurslari bilan ta'minlash; suv ta'minoti, muhandislik, logistika,

---

[27] Хижняков Б. П. Индустриальный парк: понятие, история, законодательные аспекты / // Социально-экономические явления и процессы – 2015. - Т. 10, № 8, - С. 139-143

[28] Хижняков Б. П. Особенности индустриальных парков и их классификационные признаки / // Социально-экономические явления и процессы. – 2015. – Т. 10, № 10. – С. 184–188

[29] Susan M. Walcott, in International Encyclope-dia of Human Geography (Second Edition), 2020

[30] Рыбкина А.С. Индустриальные парки как инструмент формирования качественной институциональной среды регионов// https://cyberleninka.ru/article/n/industrialnye-parki-kak-instrument-formirovaniya-kachestvennoy-institutsionalnoy-sredy-regionov.pdf

| Kichik sanoat zonalari (industrial park, sanoatparki)ga ta’riflar va tavsiflar | Manba |
|---|---|
| “Kichik sanoat zonasi”- zarar ko‘rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor va past rentabelli tashkilotlarning foydalanilmayotgan, muhandislik kommunikat-siyalari o’tkazilgan va zarur infratuzilmaga ega alohida hudud | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 31.12.2014 yildagi 378-сон |
| Kichik sanoat zonasi — ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan, aholi punkti hududining yoki aholi punktlariaro hududning qonunchilik hujjatlari bilan muayyan maqom berilgan hamda hududi doirasida xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmaga ega bo‘lgan ishlab chiqarish maydonlari joylashadigan va chegaralari aniq belgilangan qismi; | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Kichik sanoat zonalari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida» qarori, 09.03.2020 yildagi №134 |
| Kichik sanoat zona – sanoat sohasidagi kichik biznes va xususiy tadbir-korlik sub’yektlarini tanlov asosida joylashtirishga mo‘ljallangan va samarali rivojlanishini ta’minlovchi, davlat imtiyozi va kafolatini olish imkoniyatini beruvchi, past rentabelli va iqtisodiy nochor korxonalarning foydalanilmayotgan davlat mulki hisoblangan bo‘sh yer maydonlari va ortiqcha ishlab chiqarish maydonini o‘z ichiga oluvchi muhandislik-texnik, transport kommunikatsiyalari o‘tkazilgan va zarur infratuzilmaga ega hudud. | Salimov B.T., Salimov B.B. “Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirishning tashkiliy - iqtisodiy asoslarini takomillashtirish”. – T.: Iqtisodiyot, 2020. – 135 b. |
| "Industrial (sanoat) parki" - sanoat ishlab chiqarishi yoki sanoat ishlab chiqarishi va Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga muvofiq yaratilgan tijorat yoki notijorat tashkilotlari tomonidan boshqariladigan boshqaruv kompaniyasini modernizatsiya qilish uchun mo'ljallangan sanoat infratuzilmasi ob'yektlari majmuidir | Федеральный Закон от 31.12.2014 №488 «О промышленной политике в Российской Феде-рации» |
| "Sanoat parki" tushunchasi mintaqaviy iqtisodiyot hududiy ajratilgan, ishlab chiqarish kompleks shaklidagi yagona rivojlanish konsepsiyasi, infratuzilmasi, ishlab chiqarishning samarali rivojlanishini ta'minlaydigan, tegishli xizmatlar ko'rsatuvchi boshqarish kompaniyasi bilan birlashtirilgan hamda hududida davlat imtiyozlari va kafolatlarini olish imkoniyati mavjud bo’lgan hududiy tuzilmasining elementi hisoblanadi | Смольянинова Т. Ю. Индустриальные парки в региональной эконо-мике: механизм созда-ния, перспективы развития // Воронеж, 2015; |
| Industrial park - "egasi tomonidan ijaraga olingan, professional boshqaruv kompaniyasi tomonidan boshqariladigan va yagona kontseptsiya bo'yicha rivojlanayotgan ishlab chiqarish ob'yekti. Sanoat parki nafaqat har bir ijarachi mustaqil ravishda ishlaydigan binolar to'plami, balki haqiqiy kontseptual ob'yektdir. Sanoat parki kontseptsiyasi ijarachilarning ma'lum bir maqsadli guruhlari uchun ishlab chiqarish maydonlari va binolarning hajmi va formatini tanlash, shuningdek, alohida qismlarni yoki umuman ob'yektni har qanday sanoat uchun ixtisoslashtirishdir. | Грибанов В. П. Промышленников по-сылают в парк // Коммерсант. 2013. № 100. |
| Industrial park transport vositalari va boshqa yordamchi infratuzilma bilan integratsiyalashgan holda sanoat faoliyatini rivojlantirishga mo'ljallangan yer uchastkasidan iborat. | Susan M. Walcott, in International Encyclope-dia of Human Geography (Second Edition), 2020 |

**1.1.2-rasm. Kichik sanoat zonalari (industrial park, sanoat parki)ga ta’riflar va tavsiflar**

telekommunikatsiya, xavfsizlik, konsalting va boshqa xizmatlar.

Kichik sanoat zonalarini barpo etish, bir tomondan, investorlar uchun tadbirkorlik qilishning qulay shakli bo‘lsa, ikkinchi tomondan, davlat sanoat- investitsiya siyosati va mintaqaviy rivojlanish siyosatining samarali mexanizmi bo‘lib, iqtisodiyotni mustahkamlash, korxonalarni vertikal integratsiyalash, mahalliy mutaxassislarni ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb yetishga ko‘maklashish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmini oshirish, mahsulot ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish, mahalliy resurslardan optimal foydalanish sanoat ob'yektlarini markazdan chekka hududlarga qayta taqsimlash orqali hududiy tabaqalanish muammosini hal qilish imkonini beradi.

Olimlarning fikri, bergan ta’rif va tavsiflari asosan industrial park yoki kichik sanoat zonasining hududiga, uning tuzilishiga e’tibor qaratilgan.

To‘g‘ri, dastlab kichik sanoat zonalari tashkil qilinishi zarar ko’rib ishlayotgan korxonalar yer uchastkalari, bo‘sh, foydalanilmayotgan yer maydonlaridan unumli foydalanish maqsadida tashkil qilingan. Hozirda esa kichik sanoat zonalariga tadbirkor sub’yektlarni tanlov asosida qabul qilish, ularni boshqarish, uning ishlab chiqarish salohiyati, ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining sifati hamda import o‘rnini bosa oladigan, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishi, investisiya majburiyatlarini bajarishi kabi jarayonlarga ham e’tibor berish zarur.

Ilmiy manbalarda keltirilgan iqtisodchi olimlarning KSZ tushunchasiga bergan ta’riflaridan kelib chiqib, quyidagi mualliflik ta’rifi berildi: “Kichik sanoat zona – sanoat sohasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarini investitsiya va boshqa ijtimoiy majburiyatlarni to‘liq bajarish sharti bilan tanlov asosida joylashtirishga mo’ljallangan va samarali rivojlanishini ta’minlovchi, davlat imtiyozi va kafolatini olish imkoniyatini beruvchi, past rentabelli va iqtisodiy nochor korxonalarning foydalanilmayotgan davlat mulki hisoblangan muhandislik-texnik kommunikatsiyasi mavjud bo‘lgan yoki uni o‘tkazish oson bo‘lgan faoliyat ko‘rsatmayotgan ishlab chiqarish maydonlari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh yer maydonlari va ortiqcha

ishlab chiqarish maydonini o‘z ichiga oluvchi hudud”[31].

Yuqoridagi o‘rganilgan va keltirilgan ta’riflarda KSZ larning barcha xususiyatlari keltirilib, tadbirkorlarning bajarishi shart bo‘lgan investitsiya va boshqa majburiyatlarni to‘liq bajarishi keltirilmagan, vaholanki bu majburiyatlar bajarilmasa, tadbirkorlar bilan tuzilgan shartnoma bekor qilinishi yoki unga qo‘shimcha muddat berilishi Nizomda[32] qayd qilingan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, KSZ tushunchasi O‘zbekistonda yangi iqtisodiy tushuncha bo‘lib, unga oid maqolalar va adabiyotlar juda kamligini e’tiborga olgan holda kichik sanoat zonalari faoliyati rivojlaninishini statistik tahlilini amalga oshirish uchun uning asosiy tamoyillarini yoritib berish, tasniflash, statistik ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, axborotlar bazasini takomillashtirish, ma’lumotlarni tahlilini amalga oshirish va rivojlanish jarayonini prognozlash usullarini ishlab chiqish zarur deb hisoblayman.

## 1.2-§. O‘zbekistonda kichik sanoat zonalari faoliyatining tashkil etishning me’yoriy-huquqiy asoslari tahlili

KSZ larni tashkil etish va undan amaliyotda foydalanish 2014 yil 31 dekabrda O‘zbekiston Respubliasi Vazirlar Mahkamasining “Kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori qabul qilingandan keyin boshlandi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 30-martdagi 2860-sonli qaroriga ko‘ra Sirdaryoda, 18-maydagi 2973-sonli qarori bilan Toshkent shahrida, 10-avgustdagi 3194-sonli qaroriga muvofiq Toshkent viloyatida va shu asosda Jizzax, Xorazm, Samarqand, Qashqadaryo, Namangan, Buxoro, Navoiy, Andijon viloyatlarida kichik sanoat zonalari ketma-ket tashkil etila boshlandi.

Kichik sanoat zonalari hududlarida joylashtirish uchun loyihalarni tanlashning aniq mezonlari mavjud emasligi, zarur muhandislik-kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini o‘z vaqtida barpo etish masalalariga yetarlicha e’tibor berililmayotganligi, KSZ larga

---

[31] Muallif tomonidan berilgan.

32 “Kichik sanoat zonalari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar ahkamasining qarori, 09.03.2020 yildagi 134-son “Kichik sanoat zonalari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”

biriktirilgan tijorat banklari ushbu muammolarni hal etishda sust ishtirok etayotganligi, kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha tashkil qilingan hududiy komissiyalar tomonidan joylarda yuzaga keluvchi masalalarni tezkorlik bilan hal etish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirishning ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi kabi muammolar kichik sanoat zonalarida joylashtiriladigan investitsiya loyihalarini tanlab olish, yer maydonlari ajratib berish tartibi, xomashyo va materiallardan foydalanishni ta'minlash, tadbirkorlik sub'yektlariga kredit resurslari ajratishning prinsipial yangi tizimini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-oktyabrda "Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3356- sonli qarori qabul qilindi. Bu qarorga ko'ra, kichik sanoat zonalarini tashkil etish nazarda tutilgan yer uchastkalari kichik sanoat zonasining bosh rejasiga muvofiq qonunchilikda belgilangan tartibda elektron onlayn-auksion orqali realizatsiya qilinadi, umumiy foydalanishdagi yerlar esa kichik sanoat zonalari direktsiyasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratiladi[33].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2018-yil 29-martdagi "Surxondaryo viloyatida kichik sanoat zonalarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3636-sonli qaroriga ko'ra, Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarida ham tashkil etiladigan 10 ta kichik sanoat zonalari ro'yxati tasdiqlandi[34]. Qarorga ko'ra, kichik sanoat zonalari hududida joylashgan ko'chmas davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkasida belgilanadi hamda import uskunalar va butlovchi qismlar xaridiga yo'naltirish uchun O'zbekiston rekonstruktsiya va rivojlanish fondidan 50 million AQSh dollari hajmdagi kredit liniyasini ochish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 11-oktyabrdagi 3965-sonli qaroriga ko'ra, Buxoro viloyatida jami 59,13 gektar yer hududiga ega 5 ta kichik sanoat zonalari tashkil etish uchun yer

33 Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Эркин иқтисодий зоналар ва кичик саноат зоналари фаолияти самарадорлигини ошириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ги Қарори, 25.10.2017 йилдаги ПҚ-3356-сон

34 Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Сурхондарё вилоятида кичик саноат зоналарини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори, 29.03.2018 йилдаги ПҚ-3636-сон

maydonlarini ajratish bo‘yicha tanlov e’lon qilingan. Xuddi shunday, mamlakatimizning boshqa viloyatlarida ham bo‘sh maydonlarda va binolar o’rnida kichik sanoat zonalarini tashkil etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Toshkent shahrining Yunusobod, Sergeli va Yakkasaroy tumanlaridagi foydalanilmayotgan korxonalar negizida barpo etilgan kichik sanoat zonalar muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ularning hududida to‘qimachilik, kimyo, oziq-ovqat, elektrotexnika mahsulotlari, mebel, zamonaviy qurilish materiallari hamda boshqa raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi 513 ta kichik korxonalar faoliyat yuritmoqda. 2016 yilning o‘zida ushbu korxonalar tomonidan 1,1 trln so’mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan, 140 million AQSh dollaridan ortiq qiymatdagi tovarlar eksport qilingan, 11 mingdan ortiq ish o‘rinlari yaratilgan.

Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari direktsiyalari xodimlarini rag‘batlantirish va yuqori samarali mehnatga intilishni kuchaytirish hamda mehnatga haq to’lashning yagona shartlarini belgilash maqsadida 2019-yil 6-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari rahbar xodimlari va mutaxassislari mehnatiga haq to‘lash razryadlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Unda kichik sanoat zonalari rahbar xodimlari, kichik sanoat zonalari direktsiyasi xodimlari va mutaxassislarini mehnatiga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish, xodimlar mehnatiga haq to‘lashning razryadlari tasdiqlandi

Kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, ularning ishtirokchilari uchun faoliyat yuritish sharoitlarini sifat jihatidan yaxshilash va mahsulotlarni sotishga ko‘maklashish, investitsiyalar jalb qilinishini faollashtirish, avvalambor foydalanilmayotgan, faoliyat yuritmayotgan ishlab chiqarish maydonlari negizida tashkil qilinayotgan importbop mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etilishini jadallashtirish, ushbu asosda yangi turg‘un ish joylari tashkil etilishini ta’minlash va aholi daromadini oshirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 21-iyundagi “Kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[35] gi 4363- sonli qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra kichik sanoat zonalarini boshqarish bo’yicha yagona direktsiyalarni (keyingi o‘rinlarda — direktsiyalar) har bir kichik sanoat zonasiga direktsiyalari mas’ul xodimlarini biriktirgan holda tashkil etish, iqtisodiy o‘sish va investitsiyaviy faollikni rag‘batlantirish, ishlab chiqarish sur’atlarini va aholi bandligini oshirish, tadbirkorlik sub’yektlarini qo’llab-quvvatlash maqsadida KSZ ishtirokchilariga bir qator preferensiya va imtiyozlar yaratildi.

Qarorga muvofiq, endi KSZ larni boshqarish direksiyalar zimmasiga yuklatiladi. Har bir viloyatda Direksiyalar tashkil qilinib, tegishli xodimlar biriktirildi. 2020-yil 9-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kichik sanoat zonalari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 134-son qarori qabul qilindi. Bu qarorda kichik sanoat zonalari to‘g‘risidagi Nizom qabul qilinadi. Nizomda KSZ da ishtirok etuvchi barcha sub’yektlar va ularning vazifalari aniq keltiriladi[36]. Kichik sanoat zonalari asosiy sub’yektlari davlat, KSZ ishtirokchisi, direksiya, buyurtmachi (iste’molchi) va yollanma ishchilar hisoblanadi (1.2.1-rasm).




**1.2.1-rasm. Kichik sanoat zonalari faoliyatining asosiy sub’ektlari**

KSZ ishtirokchisi  har bir subyyekt bilan ikkiyoqlama munosabatda bo‘ladi. Bir vaqtning o‘zida mazkur sub’yektlar orasida ham ikkiyoqlama munosabat mavjud.

---

[35] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Кичик саноат зоналари фаолиятини мувофиқлаштириш ва бошқаришни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори, 21.06.2019 йилдаги ПҚ-4363-сон

[36] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Кичик саноат зоналари тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” ги  қарори, 09.03.2020 йилдаги 134-сон

Bundan tashqari Nizomda kichik sanoat zonalarini tashkil etish va boshqarish tartibi, KSZ ishtirokchilarini tanlab olish tartibi, KSZ ishtirokchilarini joylashtirish tartibi, KSZ ishtirokchilarining majburiyatlarni qabul qilishi, KSZ hududlarida yer uchastkalarini uzoq muddatli ijaraga berish tartibi, KSZ hududida joylashgan binolar va inshootlarni xususiylashtirish tartibi, KSZ ishtirokchilari huquqlari va majburiyatlari, KSZ ishtirokchisi maqomini to'xtatish yoki undan mahrum qilish qoidalari keltirilgan.

Yangi innovatsion texnologiyalarga asoslangan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, hududiy savdoni rivojlantirish, mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish Respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Surxondaryo viloyati chegaraoldi hudud hisoblanadi, Toshkent shahri esa boshqa viloyatlarni oʻzaro iqtisodiy jihatdan bogʻlaydi. Shuning uchun bu hududlarda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini oshirish ular hududida yangi kompleks ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo infratuzilmasini rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodining dolzarb vazifalaridan sanaladi. Prezidentimiz shuni koʻzda tutgan holda 2020-yil 12-noyabrda "Surxondaryo viloyati va Toshkent shahrida maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"[37]gi farmonini imzolaydi. Unga koʻra, Surxondaryo viloyatida «Termiz xalqaro savdo markazi» erkin savdo zonasi hamda «Termiz xalqaro savdo markazi» erkin savdo zonasi direksiyasi» davlat unitar korxonasi tashkil etilishi, zamonaviy texnologiyalar asosida mahsulotlarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash, saralash va qadoqlash xizmatlari hamda elektron savdo portallari tashkil yetiladi, sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, yangi ish oʻrinlarini yaratish maqsadida Toshkent shahrining Sergeli tumanida «Sergeli industrial parki» kichik sanoat zonasi tashkil etish koʻzda tutilgan.

Kichik sanoat zonalarining mamlakatimiz iqtisodiyotiga

[37] "Сурхондарё вилояти ва Тошкент шаҳрида махсус иқтисодий ва кичик саноат зоналари фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони, 12.11.2020 йилдаги ПФ-6109-сон

qo'shayotgan ulkan hissasini yanada oshirish va kichik sanoat zonalaridagi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish albatta tadbirkorlarning to'liq va uzluksiz faoliyat olib borishiga va buning uchun ularga zarur muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaratish, xorijiy va mahalliy investorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash zarur. Shuni nazarda tutgan holda, prezidentimizning 2021 yil 30 aprelda "Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori[38] qabul qilindi. Unga ko'ra 2021-2022 yillarda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga turtki beradigan loyihalar hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash, maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi yirik ishlab chiqarish loyihalarining tashqi infratuzilmasini qurish-ta'mirlash ishlari ko'zda tutiladi.

Respublikamizda tashkil yetilgan kichik sanoat zonalarida sanoat sohasi rahbarlari kichik sanoat zonalarining bosh rejalari ishlab chiqilmagani, loyihalarni amalga oshirishda sustkashlikka yo'l qo'yilayotgani, to'qimachilik va charm mahsulotlari ishlab chiqarishni joriy eta olmayotgani kabi kamchiliklarning mavjudligi aniqlandi. Bundan tashqari oqava suvlarni tozalash inshootlari yo'qligi, sanoat zonalarining uchdan bir qismidan ko'prog'ida elektr energiyasi, gaz, kanalizatsiya va yo'llarning yo'qligi, yer va binolarga egalik qilish masalalari hal etilmagani ham qayd etilgan. Bu kabi kamchiliklarni bartaraf qilish borasida 2022 yil "Hududlarda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tashkil qilish va ularni muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 271-son qarori qabul qilindi. Qarorda yangi tashkil qilinadigan kichik sanoat zonalari bo'yicha bosh reja loyihalarini ishlab chiqish, loyiha hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari mablag'lari hisobidan amalga

[38] "Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.04.2021 yildagi PQ-5101-son

oshirilishi, bosh rejani ishlab chiqish bo’yicha loyiha tashkiloti tender savdolari orqali aniqlanishi, manzilli roʻyxatlarga kiritilgan ob’yektlarni moliyalashtirish kichik sanoat zonalari bosh rejalari ishlab chiqilgandan so’ng ta’minotchi korxonalar tomonidan berilgan texnik shartlar asosida amalga oshirilishi belgilab o’tildi. Bu esa hududlarda yuqori qoʻshilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish boʻyicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun sanoat maydonlarini tashkil qilish va ularda tadbirkorlarning toʻliq va uzluksiz faoliyat olib borishini ta’minlash, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaratish va investorlar faoliyatini qoʻllab-quvvatlash bilan birga 2022-yilda kichik sanoat zonalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlash tadbirlarining manzilli dasturini tasdiqlash, hududlarda 363,29 ga qishloq xo’jaligiga moʻljallanmagan yerlarda yana 104 ta yangi kichik sanoat zonalarini tashkil qilish kabi masalalar koʻzda tutildi[39]. Kichik sanoat zonalari oʻz nomidan kelib chiqib, sanoatning kichik korxonalari sifatida loyiha egalari (tadbirkorlar)rahbarligida faoliyat ko’rsatadi va bitta KSZ hududida bir nechta, ya’ni turli mahsulot turini ishlab chiqarishga moslashgan uskunalar joylashtiriladi. Keyingi vaqtlarda KSZ larni ixtisoslashtirishga e’tibor qaratilmoqda. Bir KSZ ni ma’lum bir mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish tadbirkorlar, davlat, mahalliy yoki xorijiy investor, buyurtmachi uchun ham qulay bo’ladi. Shularni e’tiborga olgan holda respublikamiz hududlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, mavjud xomashyo resurslaridan oqilona foydalanish, hudud iqtisodiyotini yanada rivojlantirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Charm-poyabzal va moʻyna mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarini tashkil etish toʻgʻrisida” 531-son[40] qarori qabul qilindi, unga koʻra investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Fargʻona, Xorazm va Toshkent viloyatlari

[39] “Hududlarda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tashkil qilish va ularni muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida”Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.06.2022 yildagi PQ-271-son

[40] "Charm-poyabzal va moʻyna mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarini tashkil etish toʻgʻrisida”Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 27.09.2022 yildagi 531-son

hokimliklari hamda “O‘zcharmsanoat” uyushmasining tuman (shahar)lar hududlarida transport va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari mavjud yoki uni o‘tkazish oson bo‘lgan faoliyat yuritmayotgan ishlab chiqarish maydonlari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh yer maydonlarida terini qayta ishlashga ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarini, tayyor charm-poyabzal, mo‘yna va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarini tashkil qilish ko‘zda tutilgan.

Jahonda sanoat iqtisodiyotini yanada barqaror o‘sishini ta’minlash maqsadida yangi iqtisodiy tizimlarni tashkil qilish va ular rivojlanishini taminlash borasida bir qadar ishlar olib borilmoqda, bunga misol qilib jahon miqyosida faoliyat ko‘rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, industrial parklar, texnopark, sanoat zonalarini keltirish mumkin. Mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti asosiy yo‘nalishlaridan biri sanoat sohasini mamlakat miqyosida, hududlarda rivojlantirishdir. Rivojlangan xorijiy davlatlarda kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ish bilan ta’minlash, sanoatni texnologik rivojlanishi bilan bog‘liq muammolarni hal etishning muhim mexanizmlaridan biri industrial parklar, texnopolislar va sanoat zonalarini keltirish mumkin. Rossiyada to‘laqonli industrial parklar 2000-yillarda ishga tushgan. Ularni asosan xorij kompaniyalar ochib, ularda o’z biznesini Rossiyada ochmoqchi bo‘lgan xorijlik tadbirkorlar faoliyat ko‘rsatishgan[41].

Rossiyada industrial parklar, rezidentlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar turi bo‘yicha xalqaro tasnifga ko‘ra, ikki guruhga bo‘linishini qayd qiladi:

- Greenfield – industrial park ishlab chiqarish binolari va inshootlarini qurish uchun yer maydoni taklif qiladi va talabga ko‘ra qurilish xizmatlari ko‘rsatadi. Ustun tomoni, tadbirkor o‘z xohishiga ko‘ra ishlab chiqarish ob’yektlarini quradi. Kamchiligi: qurilishni noldan boshlash katta mablag‘ talab yetadi va qurilish vaqt bo‘yicha cho‘zilib ketishi mumkin.
- Brownfield – industrial parkda oldindan qurilgan va ular rezidentlarga sotish uchun yoki ijaraga berish uchun tayyor ishlab

[41] Головина Т.А. Индустриальные парки как эффективный инструмент экономического роста// Ежегодник. Материалы XIX Национальной научной конференции с международным участием. Том Выпуск 15 Часть 1. Отв. ред. В.И. Герасимов. Москва, 2020

chiqarish binolari mavjud sanoat parki. Ustun tomoni: tayyor ishlab chiqarish binolari, kamchiligi: ishlab chiqarish uchun mos boʻlmagan binolarni buzib, qayta qurish uchun qoʻshimcha kapital sarflashdan iborat.

Kompleks park-ham ishlab chiqarish binolari va inshootlarini qurish uchun yer maydoni, ham rezidentlarga sotish uchun yoki ijaraga berish uchun tayyor ishlab chiqarish binolari mavjud boʻgan sanoat parki[42].

Rossiya industrial parklar assotsiatsiyasi quyidagilarni industrial parklarning majburiy xususiyatlari qilib belgilaydi:

- nizomga asosan industrial parklarni boshqaradigan va tadbirkorlarga xizmat ko’rsatadigan boshqaruv kompaniyasining mavjudligi;
- park ichidagi barcha infratuzistruktura va texnik xizmatlardan jamoa boʻlib foydalanishni boshqarish imkoniyatiga egaligi;
- boshqaruv kompaniyasi parkning barcha mulkiga egalik qilishi va tadbirkorlarga xizmat koʻrsatish huquqiga yegaligi;
- industrial parkning yer uchastkasi aniqlangan, chegaralari mavjud va 8 ga dan kam bo’lmagan o’lchamga egaligi;
- yer uchaskasida sanoat ob’yektlari qurilishiga xalaqit beradigan katta o’zgarishlar mavjud emasligi;
- yer uchaskasida oʻrmon xo’jaligi, tabiatni qoʻriqlash obektlari, maishiy va sanoat chiqindilari uchun poligonlar mavjud emasligi;
- yer uchaskasida sanoat ob’yektlari qurilishiga xalaqit beradigan geografik va geodezik parametrlar mavjud emasligi;
- yer uchastkasigacha olib boruvchi qattiq qatlamli yoʻlning mavjudligi;
- hududiy va federal trassalarga chiqish yoʻllarining mavjudligi;
- yer uchastkasiga olib boruvchi va qurilish texnikasini kiritish va muhandislik ishlarini olib boruvchi yoʻllarning mavjudligi;
- industrial park hududida 2 Mvt kam bo’lmagan kuchlanishga ega elektr tarmogʻiga ulanish nuqtalari mavjudligi;

[42] Беленов О.Н., Смольянинова Т.Ю., Шурчкова Ю.В. Индустриальные парки: сущность и основные характеристики // Региональная экономика и управление. Электронный научный журнал. 2013. № 1 (33). С. 66-76.

- har gektariga 0.2 Mvt dan kam bo'lmagan kuchlanishga ega elektr ta'minotiga ulanish tizimi yoki ulanish uchun texnik sharoitlar mavjudligi;
- gaz tarmoqlariga ulanish tizimi yoki ulanish uchun texnik sharoitlar mavjudligi;
- suv ta'minoti va suv drenajlariga ulanish tizimining yoki ulanish uchun texnik sharoitlarning mavjudligi[43];

Respublikamizda "Kichik sanoat zonalari to'g'risidagi nizom" ga muvofiq, KSZ ishtirokchilarini tanlash quyidagi tartibda, ya'ni KSZ hududida joylashtirish uchun investitsiya loyihalari Ma'muriy kengash tomonidan bo'sh maydonlar, bino va inshootlar mavjud bo'lganda, ikki oyda kamida bir marta o'tkaziladigan tanlov asosida tanlab olinadi hamda investitsiya loyihalarini KSZ hududida joylashtirishning asosiy mezonlari sifatida quyidagilar qabul qilinadi:

- ma'muriy kengash tomonidan belgilanadigan tarmoq xususiyatiga muvofiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil yetish;
- yangi ish o'rinlarini tashkil qilish;
- muqobil va qayta tiklanuvchi yenergiya manbalarini qo'llagan holda, zamonaviy energiya tejovchi tizimlar va texnologiyalarni joriy yetish asosida import o'rnini bosadigan va (yoki) eksportga yo'naltirilgan tayyor mahsulotlar turlari, materiallar va butlovchi buyumlarni ishlab chiqarish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish.

KSZ ishtirokchilari quyidagi huquqlarga ega:

- uzoq muddatli ijara shartnomalari doirasida ajratilgan yer uchastkalari va (yoki) ishlab chiqarish maydonlariga mustaqil egalik qilish va ulardan foydalanish;
- tashqi muhandislik-texnik kommunikatsiyalar barqaror ishlashini ta'minlashni talab etish;
- ishlab chiqarish faoliyatining boshlanishi kechikishiga obektiv sabablar mavjud bo'lganda, Ma'muriy kengashning qarori asosida

---

[43] Смольянинова Т. Ю. Индустриальные парки в региональной экономике: механизм создания, перспективы развития // диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Воронеж, «Воронежский государственный университет» 2015;

investitsiya loyihasini amalga oshirish doirasida ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish muddatini uzaytirish.

KSZ ishtirokchilari majburiyatlari:

- ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish boshlanishi bilan investitsiya loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida bitimda nazarda tutilgan va ijtimoiy sug‘urta badallari to‘layotgan xodimlarning haqiqiy soni to‘g‘risida davlat soliq xizmati organlari tomonidan tasdiqlangan miqdorda yangi ish o‘rinlari yaratish va xodimlarni qo‘shimcha yollashni ta’minlashga;
- investitsiya loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida tuzilgan bitim va uzoq muddatli ijara shartnomasi shartlarini bajarishga;
- investitsiya loyihasini amalga oshirish to‘g‘risidagi bitimda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish jadvali muddatlari va parametrlariga rioya etishga;
- ishlab chiqarish maydonlarining uzoq muddatli ijara shartnomasi tuzilganidan boshlab olti oydan kechikmasdan, KSZ hududida ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirishni boshlashga majbur[44].

Xususan, Surxondaryo viloyatida, viloyatning geografik joylashuvi va chegaraviy holatlaridan kelib chiqib, tadbirkorlarga tashqi bozorlarga mahsulotlarni chiqarish hamda xorijiy investorlar bilan aloqa o’rnatishga keng imkonyatlar ochilmoqda. Surxondaryo viloyatining sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali mintaqaviy savdoni rivojlantirish, shuningdek, mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqish maqsadida tashkil etilgan “Termiz xalqaro savdo markazi” erkin savdo zonasi hududida savdo komplekslari, ishlab chiqarish va omborxona binolari, logistika va sog‘lomlashtirish markazlari, mehmonxona ob’yektlari qurilib, bosqichma-bosqich foydalanishga topshirilmoqda. Prezident Farmoniga muvofiq Surxondaryo viloyati kichik sanoat zonalari faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida ko‘pgina qulayliklar, masalan tadbirkorlarga kreditlar qaytarish muddatini uzaytirish, kredit shartlarini yanada

[44] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Кичик саноат зоналари тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” ги қарори, 09.03.2020 йилдаги 134-сон

yengillashtirish choralari ko‘zda tutilgan[45].

O‘zbekiston Respublikasida hududlar xususiyatlaridan kelib chiqib, Prezidentning “Charm-poyabzal va mo‘ynachilik sohalarida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori[46] ga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Farg‘ona, Xorazm va Toshkent viloyatlarida terini qayta ishlash, tayyor charm-poyabzal, mo‘yna va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan KSZ lar tashkil yetish choralari belgilandi. Charm-poyabzal va mo‘ynachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va yeksport qilishning 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan maqsadli parametrlari ishlab chiqildi[47]. Prezidentning “Charm-poyabzal va mo‘ynachilik sohalarida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida’’gi qarori ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasi terini qayta ishlashga hamda tayyor charm-poyabzal, mo‘yna va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarini tashkil qilish haqidagi qarori[48] ni qabul qildi, unga ko’ra respublikamizning yuqorida nomlari zikr yetilgan respublika va viloyatlarida terini qayta ishlash, tayyor charm-poyabzal, mo‘yna va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan KSZ lar tashkil qilish va unga zarur infratuzilma loyihalari uchun 90 mlrd. so’mlik mablag‘ ajratilishi belgilandi.

Surxondaryo viloyatining Angor tumanida poyabzal, charm kiyim-kechak, charm-attorlik mahsulotlari, charm mahsulotlari kabi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda charm-poyabzal, mo‘ynachilik va jun mahsulotlari yeksportini yo‘lga qo’yish rejalashtirildi.

---

[45] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi “Surxondaryo viloyati va Toshkent shahrida maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6109-son

[46] O‘zbekiston Respublikasida hududlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, Prezidentimizningning “Charm-poyabzal va mo‘ynachilik sohalarida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 26-fevraldagi PQ-143-son qarori

[47] O‘zbekiston Respublikasida hududlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, Prezidentimizningning “Charm-poyabzal va mo‘ynachilik sohalarida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 26-fevraldagi PQ-143-son qarori

[48] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Charm-poyabzal va mo‘yna mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarini tashkil etish to‘g‘risida” gi qarori, 27.09.2022 yildagi 531-son

Kichik sanoat zonalari faoliyatini o’rganish hamda samarali tashkil yetishda quyidagilar muhim hisoblanadi:

1. Kichik sanoat zonalarini tashkil qilishda tadbirkorlarga muhandislik, huquqiy, marketing xizmatlari bilan birga axborot, logistika, konsalting, telekommunikatsiya xizmatlarini ham ko’rsatish choralarini ko’rib chiqish va amalga oshirish.

2. Kichik sanoat zonalarini tashkil etishda muhandislik-kommunikatsiya hamda transport infratuzilmasini qurish bo‘yicha loyihalarning o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlash.

3. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqib, kichik sanoat zonalarida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes sub’yektlariga ijara to‘lovlarini tabaqalashtirish, iqtisodiy faol bo‘lmagan hududlardagi kichik sanoat zonalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari asosida respublika byudjetidan moliyalashtirish.

4. Kichik sanoat zonalarida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes sub’yektlariga berilayotgan soliq va majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar berish tartibini faoliyat turlari bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish.

### 1.3. Surxondaryo viloyatida kichik sanoat zonalari faoliyati iqtisodiy-statistik tahlili va ularni tasniflash

Rivojlangan davlatlardagi singari mamlakatimiz va uning hududlarini rivojlantirishning hozirgi bosqichidagi davlat siyosatining ustuvor vazifasi mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ichki va tashqi bozordagi mavqeini tiklash va mustahkamlash, ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish va ko‘lamini oshirish hamda uning samaradorligini oshirishdan iborat. Bu vazifani hal qilish maqsadida turli integrallashgan iqtisodiy tizimlari industrial parklar, sanoat zonalari, iqtisodiy zonalar, shu jumladan kichik sanoat zonalari tashkil qilindi.

Kichik sanoat zonalarini tashkil qilish Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlatirish maqsadida olib borilayotgan sanoat siyosatini amalga oshirishning muhim vositasi sanaladi. Respublikamizda jami 532 ta kichik sanoat zonalari (KSZ) tashkil qilinib, shulardan 31 tasi Qoraqalpog‘iston Respublikasida, 25 ta Andijonda, 40 ta Buxoroda, 24 ta Jizzaxda, 41 ta Qashqadaryoda, 18 ta Navoiyda, 48 ta Namanganda, 90 ta Samarqandda, Toshkent viloyatida 58 ta va Toshkent shahrida 8 ta,

Farg‘onada 70 ta, Xorazmda 25 ta hamda Surxondaryoda 36 tani tashkil qiladi. Xususan, Surxondaryo viloyatida ham kichik sanoat zonalari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda jami 225 ta tadbirkorlik loyihalari asosida 36 ta KSZ tashkil qilingan (2.2.1-rasm).




**1.3.1-rasm. Surxondaryo viloyatida 2023 yildal KSZ lar va ulardagi loyihalarining hududlar kesimidagi soni**

Surxondaryo viloyatida 2018 yil 9 ta, ya’ni Angor tumanidagi Navro‘z, Termiz shahridagi Jo‘yjangal, Denov tumanidagi Lolazor, Jarqo‘rg‘on tumanidagi Yangiobod, Muzrabot tumanidagi Shaffof, Oltinsoy tumanidagi Oqarbuloq, Sariosiyo tumanidagi Afrosiyob, Termiz tumanidagi Bunyodkor, Uzun tumanidagi Navro’z KSZ lari, 2020 yilda ham 9 ta: Denov tumanidagi Sanoatchilik, Qumqo‘rg‘on tumanidagi Azlarsoy_1, Azlarsoy_2, Yangiobod, Sho‘rchi tumanidagi Joyilma, Bandixon tumanidagi Bektepa, Boysun tumanidagi Mustaqillik, Qiziriq tumanidagi Rabatak, Kunchiqish KSZ lari, 2021 yilda yesa 17 ta: Angor tumanidagi Yangiturmush, Denov tumanidagi Yangiobod, Jarqo‘rg‘on tumanidagi Yangiobod_yangi, Qo‘shtepa, Muzrabot tumanidagi yangidiyor, Oltinsoy tumanidagi Bo’ston, Termiz tumanidagi Nurafshon, Uzun tumanidagi Istiqlol_1, Istiqlol_2, Qumqo‘rg‘on tumanidagi Bog‘aro, Surxon_sohili, Sho‘rchi tumanidagi Qorqariq, Qiziriq tumanidagi Zarbdor, Sherobod tumanidagi Taroqli, Qorabog’, Bandixon tumanidagi Bektepa, Sariosiyo tumanidagi Anorzor KSZ lari hamda 2022 yilda 1 ta Boysun tumanidagi Inkobat KSZ si tashkil etilgan.

KSZ lar uchun tadbirkorlik loyihalari Respublika bo‘yicha jami 4331 ta bo‘lib, shulardan 2650 tasi amalga oshirilgan, 1586 tasi amalga oshirilmoqda, 95 tasi muammoli bo‘lib turibdi. Xususan, Surxondaryo viloyatida tadbirkorlar loyihalari jami 225 ta bo‘lib, shulardan 151 tasi amalga oshirilgan, 61 amalga oshirilmoqda, 13 tasi muammoli holatda.

Tadbirkorlik loyihalari asosan qurilish materiallari sanoati, mebel va qog’oz sanoati, oziq-ovqat sanoati, kimyo va neft-kimyo sanoati, yengil sanoat va boshqa sanoat tarmoqlari mahsulotlari ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan.

KSZ lar uchun ajratilgan yer maydonlari respublikamizda jami 3500,6 ga bo’lib, shundan 35 foizi (1235,6 ga) da investitsiya loyihalari joylashtirilmagan. KSZ lar uchun ajartilgan yer maydonlari Surxondaryo viloyatida 129,2 gektarni tashkil qilib, 41 foizi (53.6 ga) da investitsiya loyihalari joylashtirilmagan.

Surxondaryo viloyatida KSZ lar uchun ajartilgan yer maydonlari bo‘yicha Bandixon tumani 31.2 gektar birligida yetakchilik qilmoqda, Termiz shahri esa 1.4 gektar bilan eng kam hajmga ega (1.3.2-rasm).




**1.3.2-rasm. Surxondaryo viloyatida KSZ lar uchun ajratilgan yer maydonlari hududlar kesimida (gektar hisobida.)**

Surxondaryo viloyatida KSZ lar Direksiyalari 2025-yil 1-iyulga qadar yer solig‘i va mol-mulk solig‘i to‘lashdan ozod etilgan, kreditlarni berish va qaytarishdagi imtiyozlar, Direktsiyalarga ob’yektlarni sotish, lizing va ijaraga berishdan tushgan tushumning kreditni qaytarishga

yo’naltirilgan qismi bo’yicha foyda solig‘i stavkasi 2023-yilga qadar 50 foizga kamaytirilgan, ob’yektlarni qurishga jalb qilingan loyihachi va bosh pudrat tashkilotlari hamda Direktsiyalar qurilish ishlarini amalga oshirishda zarur bo’lgan va O’zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, import qilinadigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar, maxsus texnika va qurilish texnikasi, butlovchi buyumlar, ehtiyot qismlar, metall konstruksiyalarini xorijdan olib kelishda bojxona to‘lovlaridan ozod qilinishi, obyektlarni qurishga jalb qilingan loyihachi va bosh pudrat tashkilotlari hamda Direksiyalarga qurilish ishlarini amalga oshirish uchun import qilinadigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar, maxsus texnika va qurilish texnikasi, butlovchi buyumlar, ehtiyot qismlar, metall konstruksiyalari uchun hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashni Direksiyalarning kafolat xati asosida 120 kunga qadar kechiktirish huquqi berilishi[49] kabi imtiyozlar berilgan.

Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarida KSZ lar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2018 yilning birinchi choragida 102,065 mlrd. so‘m bo’lgan bo‘lsa, 2022-yilning to’rtinchi choragiga kelib, bu ko‘rsatkich 6358, 330 mlrd. so‘mga yetdi, ya’ni 62 barobarga oshdi.

Aynan Surxondaryo viloyatida KSZ lar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2018 yilning ikkinchi choragida 525,9 mln. bo’lgan bo’lsa, 2022 yilning to‘rtinchi choragida bu ko‘rsatkich 98643,5 mln. so‘mni tashkil qildi. Asosiy ishlab chiqarish quvvatlari Termiz shahri, Qumqo‘rg‘on, Denov, Oltinsoy, Angor, Sariosiyo, Jarqo‘rg‘on, Uzun, Sho‘rchi tumanlariga to‘g‘ri keladi. Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari asosan viloyatning ichki ehtiyojlari uchun, qolaversa respublikamizning boshqa viloyatlarida iste’mol qilinadi. Viloyatda KSZ lar faoliyati yangi bo’lganiligi va o‘z faoliyatini to‘liq ishga sololmaganligi tufayli KSZ lar mahsulotlari sanoatdagi ulushi 2023 1-yanvar holatida 1,4% ni tashkil etdi.

KSZlar viloyat sanoatini rivojlantiribgina qolmay, aholini ish bilan ta’minlash, aholi bandligini oshirishda ham hissasi katta. 2018 yilning

[49] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Surxondaryo viloyati va Toshkent shahrida maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 12.11.2020 yildagi PF-6109-son

oxiriga KSZ larda mehnat daftarchalari mavjud boʻlgan xodimlar soni 50 ta boʻlgan boʻlsa, 2023-yilning birinchi choragida 179 taga yetdi(1.3.3-rasm).

Rasmdan ma’lumki, 2018-yildan 2021 yil oxirigacha mehnat daftarchalari mavjud boʻlgan xodimlar soni yaxshi oʻsib kelgan, lekin 2022 yilning toʻrt choragida ancha pasayib, 2023 yilning birinchi choragiga 2022 yilning birinchi choragiga nisbatan 94 foizga oshgan.




**1.3.3-rasm. Surxondaryo viloyatida 2018 -2023 yillarda KSZ larda mehnat daftarchalari mavjud boʻlgan xodimlar soni**

Rossiya Federatsiyasining 2014 yildagi 316-son qarorida industrial parklar sanoat parklari, agrosanoat parklari va texnoparklarga tasniflangan[50]. Industrial parklarining asosiy turlari:

1. “Greenfield” tipidagi industrial park (yashil maydon) - sanoat dastlab infratuzilma bilan ta'minlanmagan yangi ajratilgan oʻzlashtirilmagan yer uchastkasida yaratilgan bogʻ bo’lib, bunday bogʻlar rezidentlari mashinasozlik, avtomobil sanoati, qurilish materiallari va qishloq xo’jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan kompaniyalar hisoblanadi.

2. “Brownfield” tipidagi industrial park -ilgari mavjud bo’lgan sanoat parki asosida yaratilgan, odatda binolar bilan hamda zarur

[50] С.В. Радыгина, И.А. Семенова. Международный и отечественный опыт создания индустриальных (промышленных) парков для развития малого и среднего бизнеса //Вестник удмуртского университета. 2020. Т. 30, вып. 1

infratuzilma bilan ta'minlangan ishlab chiqarish maydonchalari bo'lib, ular asosan kichik va o'rta korxonalar uchun mo'ljallangan bo'ladi[51].

M. Berkovich va N. Antipinalar industrial parklarni xususiy mulkchiligiga ko'ra, ishlab chiqarish maydonlariga ko'ra, ixtisoslashuviga ko'ra, loyihalarni amalga oshirish darajasiga ko'ra, tadbirkorlar turiga ko'ra, industrial parkning sertifikatlari mavjudligiga ko'ra, faoliyat ko'rsatish muddatiga ko'ra, tadbirkorlarni joylashtirish muddatiga ko'ra tasniflashni taklif etishgan[52].

Xuddi shunday fikrlar B. Xijnyakov ilmiy ishlarida ham uchraydi[53].

B. Veber va X. Alfenlar tomonidan qo'llanilgan industrial parklarni asosiy tasniflash belgilari sifatida Greenfield (ishlab chiqarish bilan band bo'lmagan yashil hudud) va Brownfield (ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan maxsus ob'yektlari mavjud hudud) turlari kiritilgan[54]

A.A. Savelyev o'z ilmiy ishida industrial parklarni turiga, mulkchilik shakliga, boshqarish turiga va loyihalar turiga qarab tasniflagan[55].

L. Borisoglebskaya, A. Malseva, I.Glebovalar fikriga ko'ra kelajakda maxsus infratuzilma elementlari sifatida industrial parklari uchun samarali shakllantirish va boshqarishni ta'minlovchi o'zlarining maxsus ilmiy-uslubiy asosi bo'lishi zarur.

Mintaqa infratuzilmasida kichik biznes sub'yektlari faoliyatining yaxshi tashkil etilishi ish bilan bandlik muammosining yumshatilishini, aholi real daromadlari ortishini, soliq tushumlari ko'payishini, mahalliy byudjet daromadlari o'sishini, iqtisodiètda sog'lom raqobat muhiti yaratilishini hamda turli sektorlar orasidagi o'zaro aloqalar mustahkamlanishini ta'minlaydi[56]

---

[51] Маркова Н.И. Индустриальные парки в России и за рубежом // «Научно-практический электронный журнал Аллея Науки» №7(34) 2019 Alley-science.ru

[52] Беркович М. И. Особенности и классификация индустриальных парков: региональный аспект / М. И. Беркович, Н. И. Антипина // Вестник Костромского гос. техн. ун-та. Серия: Экономические науки. – 2013. – № 1 (3). – С. 25–28.

[53] Хижняков Б. П. Особенности индустриальных парков и их классификационные признаки / // Социально-экономические явления и процессы. – 2015. – Т. 10, № 10. – С. 184–188

[54] Weber B. Infrastructure as an Asset Class: Investment Strategies, Project Finance and PPP / B. Weber, H. W. Alfen. – John Wiley & Sons, 2010. – 284

[55] Савельев А.А. Индустриальные парки: классификация и роль в развитии российских регионов Аудит и финансовый анализ 6/2016

[56] Xudoyorov L.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishini ekonometrik modellashtirish (Qarshi shahri misolida) // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Urganch, 2019;

Industrial parklar faoliyatining nazariy asoslarini rivojlantirishning zarur sharti ularni turli ko‘rsatkich-belgilariga ko‘ra tasniflashdir, bu

- sanoat parklarini tashabbuskorlar tomonidan tashkil etilganda oldindan belgilangan talablarga javob beradigan turli xil tasniflsh asoslariga ko‘ra loyihalash;

- sanoat parklari faoliyatini tahlil qilish, shu jumladan, tanlangan guruhga kiritilgan boshqa sanoat parklariga nisbatan ularning reyting pozitsiyalarini aniqlash, ko‘rsatkichlarni solishtirish imkonini beradi[57].

Industrial parklarni tasniflashdan oldin mualliflar tomonidan amalga oshirilgan terminologik tahlilga e’tibor qaratish zarur.

Kichik sanoat zonalarining majburiy, ya'ni shart bo’lgan belgilari siaftida quyidagilarni sanash mumkin:

- ma’lum chegaraga ega, huquqiy maqomga ega yer maydoni;
- ishlab chiqarish uchun mo’ljallangan maxsus ob’yektlar;
- muhandislik infratuzilma;
- boshqaruv tizimi mavjudligi;
- qonuniy huquqiy asoslari mavjudligi.

Har qanday texnologik ob’yektni tasniflash mumkinligidek, KSZ larni ham tasniflash mumkin. Hozirgi vaqtda O’zbekistonda KSZ lar 520 tadan ortiq bo’lib, shularda 36 tasi Surxondaryo viloyatida tashkil qilingan. Surxondaryo viloatida kichik sanoat zonalari tashkiliy va infratuzilmaviy ko’rsatkichlariga ko‘ra tasniflandi (1.3.4- rasm).

Tashkiliy ko’rsatkichlari bo‘yicha:

- joylashuviga ko‘ra shahar ichida, aholi yashash punktida, aholi yashash punktidan uzoqda joylashgan KSZ larga bo’linadi. Surxondaryo viloyatida kichik sanoat zonalari jami 36 ta bo’lib, shulardan 4 tasi shahar ichida, bular Denov tumanidagi Lolazor, Sanoatchilik, Yangiobod KSZ lari hamda Termiz shahridagi Jo‘yjangal KSZ sidir. 22 tasi aholi yashash punktida va 10 tasi (Yangiobod yangi, Bo’ston, Istiqlol 1, Istiqlol 2, Inkobod, Kunchiqish, Qorabog, Yangiturmush, Qo‘shtepa, Nurafshon) aholi yashash punktidan uzoqda joylashgan.

- egallagan hudud hajmiga ko‘ra katta (5 ga dan yuqori), o‘rta (2 ga

[57] Борисоглебская Л.Н., Мальцева А.А., Глебова И.З. Формирование инноватsiонных кластеров на основе классификатsiи технопарков для обеспечения конкурентоспособности развития региона // Региональная экономика: теория и практика: научно-практический и аналитический журнал. 2011. № 1. С. 14–20.

dan 4,9 ga gacha) va kichik (1,9 ga gacha) hajmga yega KSZ larga bo’linadi. Katta hududga ega KSZ lar 6 ta bo’lib, ular Anorzor, Nurafshon, Istiqlol 1, Bektepa 3, Inkobod, Qorabog KSZ laridir, o‘rtacha hududga ega KSZ lar 17 ta va kichik hududga ega KSZ lar 13 ta dir;

- tayyorlik darajasiga ko‘ra ishga tushgan, amalga oshrilayotgan, faoliyat ko‘rsatmayotgan KSZ larga bo’linadi. 36 ta KSZ ning 23 tasi ishga tushgan va mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo’yilgan, 7 tasi (Yangiturmush, Qo‘shtepa, Nurafshon, Istiqlol 1, Qumqo‘rg‘on tumanidagi Yangiobod, Qoraariq, Bektepa 3 KSZ lari) da loyihalar amalga oshirilmoqda, 6 ta Yangidiyor, Bo‘ston, Istiqlol 2, Inkobod, Taroqli, Qorabog‘ kichik sanoat zonalari hali ishga tushmagan;

- ishlab chiqarishning ixtisoslashuviga ko’ra ixtisoslashgan va umumiy KSZ larga bo’linadi. Surxondaryo viloatida kichik sanoat zonalari jami 36 ta bo’lib, shulardan 4 tasi ixtisoslashgan, ular Uzun tumanidagi Istiqlol 2 mebelsozlikka, Sherobod tumanidagi Qorabog, Boysun tumanidagi Inkobod, Sariosiyo tumanidagi Anorzor kichik sanoat zonalari esa qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Qolgan 32 tasi umumiy ixtisoslashuvga yega;

- ishchi o‘rinlar soniga ko‘ra ko‘p (ish o’rni 50 dan ortiq), o‘rta(ish o’rni 20 dan 49 tagacha bo’lgan), kam(ish o‘rni 19 tagacha bo’lgan), ishchi o’ringa yega KSZ larga tasnifladi. Ishga tushgan KSZ lar uchun alohida hisoblasak, ko‘p (ish o‘rni 50 dan ortiq) ishchi o’rinlarga ega KSZ lar 12 ta, o‘rta (ish o’rni 20 dan 49 tagacha bo’lgan) ishchi o‘rinlarga ega KSZ lar 7 ta (Denov tumanidagi Lolazor, Jarqo‘rg‘on tumanidagi Yangiobod yangi, Termiz tumanidagi Bunyodkor, Qumqo‘rg‘on tumanidagi Azlarsoy 1, Azlarsoy 2, Bandixon tumanidagi Bektepa, Sariosiyo tumanidagi Anorzor), kam (ish o‘rni 1 dan 19 tagacha bo’lgan) ishchi o’rinlariga ega KSZ lar 4 ta Qiziriq tumanidagi Rabatak, Kunchiqish, Zarbdor nomli KSZ lardir. Loyihalari amalga oshayotgan KSZ lardan ko’p (ish o‘rni 50 dan ortiq) ishchi o‘rinlarga ega KSZ lar 2 ta Angor tumanidagi Yangiturmush, Sho‘rchi tumanidagi Qoraariq KSZ laridir, o‘rta (ish o‘rni 20 dan 49 tagacha bo’lgan) ishchi o‘rinlarga ega KSZ lar Jarqo‘rg‘on tumanidagi Qo‘shtepa, Qumqo‘rg‘on tumanidagi Yangiobod, kam (ish o‘rni 1 dan 19 tagacha bo’lgan) ishchi o‘rinlariga

ega KSZ lar Nurafshon, Bektepa 3, Istiqlol 1, ishga tushmagan 6 ta KSZ da hali ishchi orinlar mavjud emas;

- loyihalar soniga ko‘ra ko‘p (loyiha soni 10 dan ortiq), o’rta (loyiha soni 5 dan 9 tagacha bo’lgan), kam (loyiha soni 5 tagacha bo’lgan) loyihaga ega KSZ larga tasnifladi. Ishga tushgan KSZ lar uchun alohida hisoblasak, ko‘p (loyiha soni 10 dan ortiq) loyihaga ega KSZ lar 5 ta (Angor tumanidagi Navro‘z, Oltinsoy tumanidagi Oqarbuloq, Uzun tumanidagi Navro’z, Sho’rchi tumanidagi Joyilma, Boysun tumnidagi Mustaqillik KSZ lari, o‘rta (loyiha soni loyiha soni 5 dan 9 tagacha bo’lgan) loyiha soniga ega KSZ lar 7 ta (Termiz shahridagi Jo‘yjangal, Denov tumanidagi Sanoatchilik, Jarqo‘rg‘on tumanidagi Yangiobod, Muzrabot tumanidagi Shaffof, Sariosiyo tumanidagi Afrosiyob, Qumqo‘rg‘on tumanidagi Bog‘aro, Surxon sohili) KSZ laridir, kam(loyiha soni 5 tagacha bo‘lgan) loyihaga yega KSZ larga 11 ta KSZ kiradi. Loyihalari amalga oshayotgan KSZ lardan ko’p (loyiha soni 10 dan ortiq) ega KSZ lar 1 ta Sho‘rchi tumanidagi Qoraariq KSZ si, o‘rta (loyiha soni 5 dan 9 tagacha bo’lgan) loyihaga ega KSZ lar 1 ta bo’lib, Angor tumanidagi Yangiturmush KSZ si hisoblanadi, kam (loyiha soni 5 tagacha bo’lgan) loyihaga yega KSZ lar 5 ta bo’lib, ular Nurafshon, Bektepa 3, Istiqlol 1, Qo‘shtepa va Qumqo‘rg‘on tumanidagi Yangiobod KSZ laridir. Ishga tushmagan 6 ta KSZ da hali loyihalar mavjud emas;

- ishlab chiqarish va zahira maydonlariga ko‘ra katta (3 ga dan yuqori), o‘rta (2 ga dan 2,9 gagacha) va kichik (1,9 ga gacha) yer maydoniga ega KSZ larga bo‘linadi. Katta ishlab chiqarish va zahira maydonlariga ega KSZ lar 8 ta bo’lib, ular Sariosiyo tumanidagi Anorzor, Oltinsoy tumanidagi Oqarbuloq, Termiz tumanidagi Nurafshon, Uzun tumanidagi Navro‘z, Istiqlol 1, Bandixon tumanidagi Bektepa 3, Boysun tumanidagi Inkobod, Sherobod tumanidagi Qorabog KSZ laridir, o‘rtacha ishlab chiqarish va zahira maydonlariga ega KSZ lar 8 ta (Angor tumanidagi Navro’z, Jarqo‘rg‘on tumanidagi Yangiobod, Yangiobod yangi, Qumqo‘rg‘on tumanidagi Azlarsoy 2, Sariosiyo tumanidagi Afrosiyob, Sho‘rchi tumanidagi Qoraariq, Bandixon tumanidagi Bektepa, Qiziriq tumanidagi Zarbdor) va kichik ishlab chiqarish va zahira maydonlarig ega KSZ lar 20 ta dir;

Infratuzilma ko‘rsatkichlari bo‘yicha:

- infratuzilma rivojlanish darajasiga ko‘ra rivojlangan, o‘rta, past va infratuzilmaga ega bo’lmagan KSZ larga bo’linadi. Rivojlangan KSZ lar 8 ta bo‘lib, ular Termiz shahridagi Jo‘yjangal, Jarqo’rg’on tumanidagi Yangiobod, Shaffof, Joyilma, Bunyodkor, Mustaqillik, Bektepa 1, Rabatak KSZ laridir. O‘rta rivojlangan infratuzilmaga ega KSZ lar 10 ta (Angor tumanidagi Navro’z, Lolazor, Sanoatchilik, Oqarbuloq, Afrosiyob, Anorzor, Uzun tumanidagi Navro‘z, Qumqo‘rg‘on tumanidagi Yangiobod, Azlarsoy 1, Azlarsoy 2), past infratuzilmaga ega KSZ larga Yangiturmush, Denov tumanidagi Yangiobod, Jarqo‘rg‘on tumanidagi Yangiobod yangi, Qo‘shtepa, Yangidiyor, Bo‘ston, Bog‘aro, Istiqlol 1, Nurafshon, Surxon sohili, Qoraariq, Bektepa 3, Taroqli, Zarbdor, Kunchqish nomli KSZ lar kiradi. Umuman infratuzilmaga ega bo’lmagan KSZ larga Uzun tumanidagi Istiqlol 2, Sherobod tumanidagi Qorabog‘, Boysun tumanidagi Inkobod nomli KSZ lardir;

- elektr energiya bilan ta’minlanganligiga ko‘ra, ta’minlangan va ta’minlanmagan KSZ larga bo’linadi. Elektr yenergiya bilan ta’minlangan KSZ lar 17 ta, 19 tasi esa elektr energiya bilan ta’minlanmagan, shulardan 6 tasi hali ishga tushmagan;

- tabiiy gaz bilan ta’minlanganligiga ko‘ra ta’minlangan va ta’minlanmagan KSZ larga bo’linadi. Tabiiy gaz bilan ta’minlangan KSZ lar 9 ta, 27 tasi esa tabiiy gaz bilan ta’minlanmagan, shulardan 6 tasi hali ishga tushmagan;

- suv bilan ta’minlanganligiga ko‘ra ta’minlangan va ta’minlanmagan KSZ larga bo’linadi. Suv bilan barcha 33 ta KSZ lar ta’minlangan bo’lib, faqat hali ishga tushmagan 3 ta Sherobod tumanidagi Qorabog‘, Boysun tumanidagi Inkobod, Uzun tumanidagi Istiqlol 2 nomli KSZ lar suv bilan ta’minlanmagan;

- yo’l bilan ta’minlanganligiga ko’ra, ta’minlangan va ta’minlanmagan KSZ larga bo’linadi. Yo’l bilan ta’minlangan KSZ lar 19 ta, 17 tasi yesa yo’l bilan ta’minlanmagan, shulardan 6 tasi hali ishga tushmagan (1.3.4-rasm).

Surxondaryo viloyatida KSZ lar asosan 2018 yillarda ish faoliyatini boshlagan. KSZ lar tizimi yangi tizim bo’lganligi sababli, hali

tadbirkorlarning ba’zilari  ob‘yektiv va sub‘yektiv sabablarga ko‘ra ish faoliyatini yo‘lga qo‘ya olmayapti yoki bir qancha muammolarga duch kelishib, investitsiya majburiyatlarini bajara olisholmayaptilar. KSZ lar to‘g‘risidagi Nizom talabiga ko‘ra, loyiha egalari, ya’ni tadbirkorlar bosh rejaga muvofiq investitsiya majburiyatlarini bajarishmasa, ular bilan tuzilgan shartnoma bekor qilinadi.

Shunga ko‘ra viloyatda jami 30 ta loyiha, shu jumladan, Sho‘rchi tumanidagi Joyilma KSZ sida 3 ta loyiha egasi bilan, Termiz tumanidagi Bunyodkor KSZ sining 2 ta loyiha egasi bilan, Jarqo‘rg‘on tumanidagi Yangiobod KSZ sining 3 ta  loyiha egasi bilan, Muzrobot tumanidagi Shaffof KSZ sining 1 ta ta loyiha egasi bilan, Qumqo‘rg‘on tumanidagi Azlarsoy_2 KSZ sining 1 ta  loyiha egasi bilan, Bog‘aro KSZ sining 2 ta loyiha egasi bilan, Bandixon tumanidagi Bektepa KSZ sining 8 ta  loyiha egasi bilan, Uzun tumanidagi Navro‘z KSZ sining 2 ta loyiha egasi bilan, Sariosiyo tumanidagi Afrosiyob KSZ sining 5 ta  loyiha egasi bilan, Boysun tumanidagi Mustaqillik KSZ sining 3 ta loyiha egasi bilan shartnomalar bekor qilingan.

Xulosa qilsak, Surxondaryo viloyatida KSZ lar faoliyatini yangi rivojlanayotgan iqtisodiy tizim deb qarab, unga xos ko’rsatkichlar tizimini shakllantirish va shu asosda viloyat miqyosida turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha tasniflash  KSZ lar faoliyatini boshqarishga yordam beradi, viloyat miqyosida turli
ko‘rsatkichlar bo‘yicha tasniflashga oid ma’lumotlarni e’lon qilish KSZ ishtirokchilariga, mahalliy hamda xorijiy investorlar uchun qulaylik tug‘diradi.




**1.3.4-rasm. Surxondaryo viloyatida kichik sanoat zonalari (KSZ) tasnifi**

# II-BOB. SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI

## 2.1. Surxondaryo viloyati kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini baholashning ko‘rsatkichlar tizimi

Hozirgi vaqtda kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini baholashning aniq ko‘satkichlar tizimi mavjud emas. Asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlaridan foydalanish KSZ larga strategik, taktik va operatsion maqsadlarga erishishga hamda o‘z mavqeini baholash imkoniyatini beradi va strategiyasini amalga oshirishni baholashga yordam beradi.

E.A. Ashirbayev o‘z ilmiy ishida kichik korxona va mikrofirmalarning rivojlanish samaradorligini tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, innovatsion kabi omillarni e’tiborga olgan holda statistik baholashning integrallashgan koeffitsienti ishlab chiqqan[58]

Surxondaryo viloyatida KSZ lar faoliyati hudud iqtisodiyotining sezilarli darajada o‘sishiga ta’sir etibgina qolmay, balki hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. KSZ lar faoliyati samaradorligini va ularning hudud iqtisodiyotiga ta’siri darajasini baholash murakkabdir, chunki KSZ lar mustaqil statistik kuzatish ob’ekti emas. Bu holat KSZ lar faoliyatining monitoring tizimini o‘rganish va takomillashtirishning dolzarbligini ta’minlaydi

Xorijlik iqtisodchi olimlardan D. S. Mironov industrial parklari samaradorligini baholash bilan birga ularning jozibadorligini asosiy parametrlari va ko‘rsatkichlari bilan ajralib turadigan original baholashga uslubiy yondashgan[59], O. L. Simchenko esa industrial parkda faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonasi maqsad samaradorligini kuzatish algoritmini ishlab chiqadi[60].

Ye. Yu. Mukovnina fikriga ko‘ra, davlat industrial parklari boshqaruvi samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimi hudud

[58] Ashirbaev E.A. O’zbekiston Respublikasida kichik biznes sohasining iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini statistik baholash // Iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent, 2019;

[59] Миронов Д. С. Создание и развитие индустриальных парков как эффективной формы производственной организации// диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Екатеринбург, «Уральский государственный экономический университет» 2020;

[60] Симченко О. Л. Методический инструментарий оценки эффективности деятельности промышленных предприятий-резидентов индустриальных парков // диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Ижевск, «Ижевский государственный технический университет имени М.Т. Калашникова» 2019;

rivojlanish ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatadi[61].

D. S. Mironov o‘z tadqiqot ishlarida sanoat parklarining o‘ziga xos tashkiliy tuzilmasi tufayli, uning tashkiliy xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning samaradorligini bir butun sifatida baholashda sanoat parki birlashmasi tarkibiga kiradigan korxonalarning umumiy ko‘rsatkichlarini hisobga olish kerakigi va buning uchun maxsus texnika talab qilinishini ta’kidlaydi hamda 4 ta guruhdan iborat (rivojlaish ko‘rsatkichlari va omillari, rentabellik ko‘rsatkichlari, raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari, moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari) mezonlar asosida monitoring qilgan[62].

Industrial parklar faoliyatining samaradorligini kompleks baholash zarurligini belgilovchi omillar quyidagilardan iborat:

1. Industrial parklarning tobora ommalashib borishi va xilma-xilligi, ularning faoliyat samaradorligini baholash, shuningdek, ular joylashgan hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir qilish darajasini aniqlashga olib keladi.

2. Industrial parklar yaratishga va zarur infratuzilmalar uchun yo‘naltirilgan investitsiyalarning cheklangan budjet mablag‘lari sharoitida o‘sishi chuqurlashtirilgan texnik-iqtisodiy asoslashni hamda tegishli sanoat ob’ektlariga kapital qo‘yilmalarning maqsadga muvofiqligini tasdiqlashni talab qiladi;

3. Industrial park maydonlari xilma-xilligi va ularning ish sharoitlari va natijalari haqida zarur ma’lumotlar yetishmasligi hisobiga investorlar tanlovi juda qiyin. Bunday industrial parklar faoliyatining "muvaffaqiyat" ko‘rsatkichining mavjudligi tadbirkor sub’ektlarga o‘z loyihalari (ishlab chiqarish)ni joylashtirishni osonlashtiradi va ishlab chiqarish tranzaktsiya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi[63].

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan G‘arbiy Evropa mamlakatlarida sanoatda industrial parki loyihalarini monitoringi yangi ishlab chiqarishlarni yaratish va rivojlantirish ishlarini tashkil etishning ajralmas

---

[61] Муковнина Е. Ю. Проблематика оценки эффективности функционирования государственных индустриальных парков// Научно-практический электронный журнал Оригинальные исследования (ОРИС), №4. 2023;

[62] Миронов Д. С. Методология оценки эффективности функционирования промышленного парка.// Уральский государственный экономический университет// Вестник НГИЭИ

[63] Гусева М. С., Шаркевич Е. А. Индустриальные парки в экономике региона: механизм создания и эффективность функционирования // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2016. – Т. 11. – С. 3506–3510. – URL: http://e-koncept.ru/2016/86739.htm.

qismi hisoblanib, ular orqali davlat va xususiy mablag‘lar jalb etiladi, shuningdek, yangi joriy etilgan rezident kompaniyalari uchun "boshlang'ich davr" ta'minlanadi[64]

Tezkor o‘zgarishlar uchun qulay shart sharoitlani ta’minlash ko‘proq monitoringdan, ya’ni ma’lumotlarni olish ishonchliligi va samaradorligini ta’minlaydigan hamda korxona rivojining sifat va miqdoriy xususiyatlarini aks ettiradigan yagona ilmiy-uslubiy vositalar asosida axborotlarni yig‘ish va qayta ishlashning zamonaviy tizimidan foydalanish tufayli bo‘lsa kerak[65].

M.S. Guseva o‘z tadqiqot ishida industrial parklar faoliyatini baholash uchun 11 ta ko‘rsatkichlar tizimidan foydalangan[66]:

KSZ lar faoliyati samaradorligi darajasi bu ma’lum bir davr ichida mazkur KSZ tomonidan erishilgan yakuniy natijalar yordamida baholanadigan yaxlit miqdoriy xarakteristikasidir.

KSZ lar samaradorligini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish mumkin:

1) rivojlanish darajasi ko‘rsatkichi o’zlashtirilgan investitsiya hajmning umumiy xarajat hajmiga nisbati orqali aniqlanadi;

2) ishlab chiqarish quvvati darajasi ko‘rsatkichi hisobot davrida ishlab chiqarish hajmining umumiy (oylik, kavartal, yillik,va h.k.) ishlab chiqarish hajmiga nisbati orqali aniqlanadi;

3) hududdan foydalanish darajasi ko‘rsatkichi band bo‘lgan yer maydonining umumiy yer maydoniga nisbati orqali aniqlanadi;

4) ishchi o‘rinlar o‘sish darajasi ko‘rsatkichi hisobot davridagi yangi yaratilgan ishchi o‘rinlar sonining umumiy (oylik, choraklik, yillik,va h.k.) ishchi o‘rinlar soniga nisbati orqali aniqlanadi;

5) import o‘rnini bosish darajasi ko‘rsatkichi hisobot davridagi import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar hajmining jami (oylik, choraklik, yillik,va h.k.) mahsulotlar hajmiga nisbati orqali aniqlanadi;

---

[64] Симченко О.Л. Мониторинг проектов индустриальных парков как индикатор оценки эффективности и конкурентоспособности промышленности // Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Экономика и менеджмент. – 2017. – № 4 (11). – С. 55-62.

[65] Симченко О.Л. Мониторинг проектов индустриальных парков как индикатор оценки эффективности и конкурентоспособности промышленности // Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Экономика и менеджмент. – 2017. – № 4 (11). – С. 55-62.

[66]

6) loyihalar amalga oshirilganlik darajasi ko‘rsatkichi hisobot davridagi ishga tushgan loyihalar soninig jami loyihalar soniga nisbati orqali aniqlanadi;

7) eksport hajmi darajasi ko‘rsatkichi hisobot davridagi eksport qilingan mahsulotlar hajmining jami (oylik, choraklik, yillik,va h.k.) mahsulotlar hajmiga nisbati orqali aniqlanadi;

8) aktivlar rentabelligi ko‘rsatkichi hisobot davridagi umumiy foyda hajmining aktivlar qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi;

9) innovatsion rivojlanish darajasi ko‘rsatkichi hisobot davridagi texnologik innovatsiylarni amalga oshirgan loyihalar sonining jami loyihalar soniga nisbati orqali aniqlanadi;

10) mahsulot sifati darajasi ko‘rsatkichi sertifikati mavjud mahsulotlar sonining jami mahsulotlar turlari soniga nisbati orqali aniqlanadi;

11) mutaxassis kadrlar darajasi ko‘rsatkichi hisobot davridagi mutaxassisligi bo‘yicha oliy ma’lumotli kadrlar sonining jami kadrlar soniga nisbati orqali aniqlanadi;

12) kadrlar malakasi darajasi ko‘rsatkichi hisobot davrida malaka oshirgan mutaxassislar sonining jami kadrlar soniga nisbati orqali aniqlanadi (2.1.1-jadval).

Keltirilgan ko‘rsatkichlar quyidagi shartlarni qanoatlantrishi zarur:

- ko‘rsatkichlar KSZ lar boshqaruv kompaniyasi bo‘lagan Direksiyada mavjud bo‘lgan dastlabki ma'lumotlar asosida hisoblanishi kerak;
- Direksiya ma’lumotlarni to‘g'ridan-to‘g'ri ta'minlash imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak yoki ko‘pchilik ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlarga bilvosita ta'sir qila olishi kerak;
- ko‘rsatkichlar sanoat faoliyatini tavsiflashi kerak va uning rivojlanish tendentsiyalarini tahlil qilish imkonini berishi kerak.

**2.1.1-jadval.**

**KSZ lar faoliyati samaradorligni baholash ko'rsatkichlar tizimi[67]**

| № | Ko'rsatkich nomi | Hisoblash formulasi | Izoh |
|---|---|---|---|
| 1 | Rivojlanish darajasi ko'rsatkichi | $RD = \frac{IH}{UHH}$ | IH- investitsiya hajmi, UHH- umumiy xarajat hajmi. |
| 2 | Ishlab chiqarish quvvati darajasi ko'rsatkichi | $IChQD = \frac{IChH}{YIChH}$ | HDIChH-hisobot davri ishlab chiqarish hajmi, YIChH-yillik ishlab chiqarish hajmi. |
| 3 | Hududdan foydalanish darajasi ko'rsatkichi | $HBD = \frac{BBYM}{UEM}$ | BBYM-band bo'lgan er maydoni UEM-umumiy er maydoni |
| 4 | Ishchi o'rinlar o'sish darajasi ko'rsatkichi | $IO'O'D = \frac{YIO'S}{JIO'S}$ | YIO'S- yangi ishchi o'rinlar soni, JIO'S-jami ishchi o'rinlar soni. |
| 5 | Import o'rnini bosish darajasi ko'rsatkichi | $IO'BD = \frac{IO'BMH}{JMH}$ | IO'BMH-hisobot davrida import o'rnini bosuvchi mahsulotlar hajmi, JMH-jami mahsulotlar hajmi. |
| 6 | Loyihalar amalga oshirilganlik darajasi ko'rsatkichi | $LAOD = \frac{ITLS}{JLS}$ | ITLS- hisobot davrida ishga tushgan loyihalar soni, JLS- jami loyihalar soni. |
| 7 | Eksport hajmi darajasi ko'rsatkichi | $EHD = \frac{EMH}{JMH}$ | EMH-hisobot davrida eksport qilingan mahsulotlar hajmi, JMH-jami mahsulotlar hajmi. |
| 8 | aktivlar rentabelligi darajasi ko'rsatkichi | $ARD = \frac{UFH}{AQ}$ | UFH -hisobot davridagi umumiy foyda hajmi, AQ-aktivlar qiymati. |
| 9 | innovatsion rivojlanish darajasi ko'rsatkichi | $IRD = \frac{TIAOLS}{JLS}$ | TIAOLS -hisobot davridagi texnologik innovatsiylarni amalga oshirgan loyihlar soni, JLS-jami loyihalar soni. |
| 10 | Mahsulot sifati darajasi ko'rsatkichi[68] | $MSD = \frac{SMMTS}{JMTS}$ | SMMS-sertifikati mavjud mahsulot turlari soni, JMH- jami mahsulotlar turlari soni. |
| 11 | mutaxassis kadrlar darajasi ko'rsatkichi | $MKD = \frac{MBOMKS}{JKS}$ | MBOMKS- hisobot davridagi mutaxassisligi bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlar soni, JKS- jami kadrlar soni. |
| 12 | kadrlar malakasi darajasi ko'rsatkichi | $KMD = \frac{MOMS}{JKS}$ | KMD- hisobot davridagi malaka oshirgan mutaxassislar soni, JKS- jami kadrlar soni. |

Bizga ma'lumki, kichik sanoat zonalari xorijda, xususan Rossiyada industrial parklar nomi bilan faoliyat yuritadi. Industrial parklar investitsion jozibadorligini aniqlash uchun 6 guruhga ajratilgan 29 ta parameter bo'yicha milliy reytingi tuzilgan va har yili reyting aniqlanadi[69]. Reytingda kamida 40 ga yer maydoniga ega 76 ta industrial parklar qatnashgan, aslida Rossiyada 2023 yilda 308 ta industrial parklar qayd qilingan bo'lib, yana 44 tasi rejalashtirilmoqda.

Rossiya Federatsiyasining industrial parklarida sanoat

[67] Muallif tomonidan ilmiy manbalarni o'rganish asosida ishlab chiqilgan.
[68] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan
[69] Рейтинг индустриальных парков и ОЭЗ/ //Expert-Industrial-Parks-3-July-2017.PDF

maydonchalarini tanlash uchun DEGA MARKET kompaniyasi maxsus reytingni tuzdi va qo‘llab-quvvatladi. Industrial parklarni baholash algoritmi infratuzilma holatini, aloqa, logistika, hududni rivojlantirish istiqbollarini, boshqaruvchi kompaniyaning xizmat ko‘rsatish sifatini, biznes nuqtai nazaridan jozibadorligini, umumiy salohiyatni hisobga oladi. Reytingga Rossiya Federatsiyasining 167 ta industrial parki kiritilgan. Industrial parklar milliy reytingiga asoslanib, Rossiya Federatsiyasi mintaqalarining xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilish samaradorligini taxminan baholash mumkin. Industrial parklar milliy reytingi har kuni avtomatik ravishda yangilanadi[70]. Reytingga faqat Rossiya sanoat parklari assotsiatsiyasi standarti talablariga javob beradigan, hudud maydoni Greenfield loyihalari uchun kamida 40 gektar, Brownfield loyihalari uchun ishlab chiqarish binolari maydoni kamida 50 ming kvadrat metrdan kam bo‘lmagan sanoat parklari (IP) va maxsus iqtisodiy zonalar  kiritilgan. Indekslarni hisoblash ularning turiga qarab kodlangan ma’lumotlarni yig‘ish asosida amalga oshiriladi: ikkilik kodlashda yoki namunadagi maksimal yoki minimal qiymatlarga nisbatan normallashtirilgan. Bundan tashqari, bir qator ko’rsatkichlar uchun qiymatlar koeffitsientlarni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Xitoyda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga munosib hissa qo‘shishda har tomonlama raqobatbardoshlik nuqtai nazaridan Xitoyning yeng yaxshi 100 ta davlat darajasidagi sanoat parklari va zonalari ro’yxatini e’lon qildi. Ro‘yxatga Anxuy provinsiyasining beshta zonasi kiritilgan, bular Yangi yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirish zonasi va Xefey texno-iqtisodiy rivojlanish zonasi, Ma’anshan texno-iqtisodiy rivojlanish zonasi, Wuhu texno-iqtisodiy rivojlanish zonasi va Wuhu yangi yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirish zonasi[71].

Belorus iqtisodchi olimi Chjan Penfey 2020 yilda Belorussiyadagi industrial parklar faoliyati samaradorligi bo‘yicha reytingini tuzgan va shu asosda industrial parklarni yuqori va past samaradorlikka ega industrial parklarga ajratgan[72].

---

70 https://russiaindustrialpark.ru/rating

71 https://uglc.ru/blog/sto-luchshix-industrialnyx-parkov-kitaya-gosudarstvennogo-urovnya

72 Чжан Пэнфэй Индустриальные парки в мировой экономике: Особенности развития и модели регулирования// Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук по специальности 08.00.14 – мировая экономика. Минск, 2022

Surxondaryo viloyatida KSZ lar faoliyati samaradorligini baholash hamda shu asosda ularni boshqarishni takomillashtirish maqsadida KSZ lar 1.3 paragrafda keltirilgan iqtisodiy ko'rsatkichlari tizimiga tayanib, ko'rsatkichlari jadval shaklida shakllantirildi (1-ilova).

Surxondaryo viloyatida KSZ lar faoliyati samaradorligini baholash va shu asosda ularning milliy reytingini tuzish maqsadida quyidagi 5 ballik tizimga asoslangan shkalada quyidagi mezonlardan foydalanildi (2.1.2-jadval):

**1. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi bo'yicha:**

a) ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi jami mahsulotlar hajmining 20 % dan yuqori bo'lsa – 5 ball;

b) ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi jami mahsulotlar hajmining 10%-20 % gacha bo'lsa – 4 ball;

c) ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi jami mahsulotlar hajmining 5%-10 % gacha bo'lsa – 3 ball;

d) ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi jami mahsulotlar hajmining 1%-5 % gacha bo'lsa – 2 ball;

e) ishlab chiqarilgan mahsulotlar ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi jami mahsulotlar hajmining 1% gacha bo'lsa – 1 ball;

**2. O'zlashtirilgan investitsiya hajmi bo'yicha:**

a) o'zlashtirilgan investitsiya hajmi jami investitsiya hajmining 10 % dan yuqori bo'lsa – 5 ball;

b) o'zlashtirilgan investitsiya hajmi jami investitsiya hajmining 5% -10 % gacha bo'lsa – 4 ball;

c) o'zlashtirilgan investitsiya hajmi jami investitsiya hajmining 3% -5 % gacha bo'lsa – 3 ball;

d) o'zlashtirilgan investitsiya hajmi jami investitsiya hajmining 1% -3 % gacha bo'lsa – 2 ball;

e) o'zlashtirilgan investitsiya hajmi jami investitsiya hajmining 1% gacha bo'lsa – 1 ball;

**3. Hududning bandlik darajasi bo'yicha:**

a) hududning bandlik darajasi 85 % dan 100 % gacha bo'lsa – 5 ball;

b) hududning bandlik darajasi 70 % dan 85% gacha bo‘lsa – 4 ball;

c) hududning bandlik darajasi 50 % dan 70% gacha gacha bo‘lsa – 3 ball;

d) hududning bandlik darajasi **3**0 % dan 50% gacha bo‘lsa – 2 ball;

e) hududning bandlik darajasi **10** % dan 30% gacha bo‘lsa – 1 ball;

**4. Ish o’rni soni bo’yicha:**

a) ish o‘rni soni jami ish o’rni sonining 10 % dan yuqori bo‘lsa – 5 ball;

b) ish o‘rni soni jami ish o’rni sonining 10 % dan yuqori bo‘lsa – 4 ball;

c) ish o‘rni soni jami ish o’rni sonining 3% -5 % gacha bo‘lsa – 3 ball;

d) ish o‘rni soni jami ish o’rni sonining 1% -3 % gacha bo‘lsa – 2 ball;

e) ish o‘rni soni jami ish o’rni sonining 1% gacha bo‘lsa – 1 ball;

**5. Import o’rnini bosuvchi mahsulotlar hajmi bo’yicha:**

a) import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar hajmi jami import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar hajmining 20 % dan yuqori bo‘lsa – 5 ball;

b) **i**mport o‘rnini bosuvchi mahsulotlar hajmi jami import o’rnini bosuvchi mahsulotlar hajmining 10%- 20 % gacha bo‘lsa – 4 ball;

c) **i**mport o‘rnini bosuvchi mahsulotlar hajmi jami import o’rnini bosuvchi mahsulotlar hajmining 5 %- 10 % gacha bo‘lsa – 3 ball;

d) **i**mport o‘rnini bosuvchi mahsulotlar hajmi jami import o’rnini bosuvchi mahsulotlar hajmining 1%- 5 % gacha bo‘lsa – 2 ball;

e) **i**mport o‘rnini bosuvchi mahsulotlar hajmi jami import o’rnini bosuvchi mahsulotlar hajmining 1 % gacha bo‘lsa – 1 ball;

**6. Loyihalarning amalga oshirilganlik darajasi bo‘yicha:**

a) loyihalarning amalga oshirilganlik darajasi 85 % dan 100 % gacha bo‘lsa – 5 ball;

b) loyihalarning amalga oshirilganlik darajasi 70 % dan 85% gacha bo‘lsa – 4 ball;

c) loyihalarning amalga oshirilganlik darajasi 50 % dan 70% gacha gacha bo‘lsa – 3 ball;

d) loyihalarning amalga oshirilganlik darajasi **3**0 % dan 50% gacha bo‘lsa – 2 ball;

e) loyihalarning amalga oshirilganlik darajasi **10** % dan 30% gacha bo‘lsa – 1 ball;

Keyingi ko‘rsatkich sifatida KSZ larning eksport salohiyati, ya’ni eksport qilingan mahsulotlar hajmi olinishi kerak edi, afsuski hozirga qadar Surxondaryo viloyatidagi KSZ larning eksport salohiyati 325 ming dollarni tashkil qiladi va u bor yo‘g‘i 5 ta Oltinsoy tumanidagi Oqarbuloq KSZ si, Qumqo‘rg‘on tumanidagi Azlarsoy_1 KSZ si, Termiz shahridagi Jo‘yjangal KSZ si, Sho‘rchi tumanidagi Joyilma KSZ si, Denov tumanidagi Lolazor KSZ lari tadbirkorlari tomonidan bajarilgan.

Oltinsoy tumanidagi Oqarbuloq KSZ si tomonidan 27 ming dollarlik un va omuxta yem hamda yaxna ichimliklari eksport qilingan. Qumqo‘rg‘on tumanidagi Azlarsoy_1 KSZ siga 250 ming dollarlik un mahsulotlarini eksport qilishgan. Termiz shahridagi Jo‘yjangal KSZ siga 10 ming dollarlik polietilen paketlar va polipropilen yashiklarni eksport qilishgan. Sho‘rchi tumanidagi Joyilma KSZ si 23 ming dollarlik un va omuxta yem mahsulotlarini eksport qilishgan, Denov Lolazor KSZ si 15 ming dollarlik polietilen plyonkalar eksport qilishgan. Qolgan KSZ larda mahsulotlarni eksport qilish yo’lga qo‘yilmagan, shuning uchun Surxondaryo viloyatida KSZ larning eksport hajmi darajasi ko‘rsatkichi ular faoliyati samaradorligini baholashda va shu asosda ularning milliy reytingini tuzishda e’tiborga olinmadi. Ko‘rsatkichlar tizimida KSZ larning mahsulot sifati darajasi ko‘rsatkichi ham keltirilgan edi, lekin hali Surxondaryo viloyatida KSZ lar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifat sertifikatlari deyarli yo‘qligi sababli, bu ko‘rsatkichni ham KSZ lar faoliyati samaradorligini baholashda va shu asosda ularning milliy reytingini tuzishda e’tiborga olmadik.

**2.1.2-jadval.**

**KSZ lar samaradorligini iqtisodiy ko‘rsatkichlariga ko’ra baholashning 5 ballik shkalasi**

**Iqtisodiy ko‘rsatkichlar nomlari**

| Ball | Ish. chiqarish hajmi (%) | Investitsiylar hajmi (%) | Hudud bandlik darajasi (%) | Ish o’rin lari soni | Impot mahs. Hajmi (%) | Loyihalar amalga oshirilganlik darajasi (%) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 5 | 20 dan yuqori | 10 dan yuqori | 86-100 | 10 dan yuqori | 20 dan yuqori | 86-100 |
| 4 | 10-20 gacha | 5-10 gacha | 71-85 | 5-10 gacha | 10-20 gacha | 71-85 |
| 3 | 5-10 gacha | 3-5 gacha | 50-70 | 3-5 gacha | 5-10 gacha | 50-70 |
| 2 | 1-5 gacha | 1-3 gacha | 30-49 | 1-3 gacha | 1-5 gacha | 30-49 |
| 1 | 1 gacha | 1 gacha | 10-29 | 1 gacha | 1 gacha | 10-29 |

KSZ lar samaradorligini iqtisodiy ko’satkichlariga ko‘ra baholashning 5 ballik shkalasiga ko‘ra KSZ lar rivojlanish darajalari (RD) aniqlandi.

**2.1.3-jadval.**

**KSZ lar samaradorligini iqtisodiy ko‘rsatkichlariga ko‘ra baholashning 5 ballik shkalasiga ko’ra rivojlanish darajalari (RD)**

| Umumiy bali oralig’i | RD nomi |
|---|---|
| 21≤RD≤30 | “Faol” |
| 16≤RD≤20 | “O‘rta” |
| RD≤15 | “Qoloq” |

Surxondaryo viloyatida KSZ larning faoliyati samaradorligini baholashda va shu asosda ularning milliy reytingini tuzish natijalari quyidagi 2.1.3-jadvalda keltirilgan. Jadvalga ko‘ra Surxondaryo viloyatida KSZ lar milliy reytingida 1- o‘rinni Termiz shahridagi Jo’yjangal KSZ si va oxirgi o‘rinni esa Denov tumanidagi Yangiobod va Qiziriq tumanidagi Rabatak KSZ lari egalladi. Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarda yuqoridagi 6 ta ko’rsatkichlarga tayanib, KSZ lar faoliyati baholandi va aniqlangan reyting ballari asosda KSZ lar “faol”

(21≤RD≤30), “o‘rta” (16≤RD≤20) va “qoloq” (RD≤15) guruhlarga ajratildi (2.1.3-jadval).

“Faol” KSZ lar sifatida 9 ta Angor tumanidagi Navro‘z, Termiz shahridagi Jo‘yjangal, Denov tumanidagi Sanoatchilik, Lolazor KSZ lari, Jarqo‘rg’on tumanidagi Yangiobod, Oltinsoy tumanidagi Oqarbuloq, Uzun tumanidagi Navro’z, Qumqo‘rg’on tumanidagi Azlarsoy_1, Sariosiyo tumanidagi Afrosiyob KSZ lari, “o‘rta” KSZ lar sifatida 7 ta Muzrobod tumanidagi Shaffof, Sariosiyo tumanidagi Anorzar, Termiz tumanidagi Bunyodkor, Qumqo‘rg‘on tumanidagi Bog‘aro, Surxon_sohili, Sho‘rchi tumanidagi Joyilma, Boysun tumanidagi Mustaqillik KSZ lari hamda “qoloq” KSZ lar sifatida 7 ta Denov tumanidagi Yangiobod, Jarqo‘rg‘on tumanidagi Yangiobod_yangi, Qumqo‘rg‘on tumanidagi Azlarsoy_2, Bandixon tumanidagi Bektepa_1, Qiziriq tumanidagi Rabatak, Kunchiqish, Zarbdor KSZ lari ekanligi aniqlandi.

**2.1.4-jadval.**

**Surxondaryo viloyatida KSZ lar faoliyatini ko‘rsatkichlariga ko‘ra ballari jadvali**

| #№ | Hudud nomi | KSZ nomlari | Ishlab chiqarilgan mah. hajmi (mln.so’m) | investisiya hajmi (mln.so’m) | Bandlik darajasi % | ish o’rni soni | Import mah. Hajmi (mln.so’m) | Loyihalarninh amalga oshiril ganlik darajasi | Jami bali |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **Angor** | Navro’z | 3 | 4 | 5 | 4 | 3 | 5 | 24 |
| 2 | **Termiz sh** | Jo’yjangal | 5 | 5 | 5 | 4 | 2 | 5 | 26 |
| 3 | **Denov** | Lolazor | 2 | 4 | 5 | 3 | 2 | 5 | 21 |
| 4 | | Sanoatchilik | 4 | 3 | 5 | 4 | 2 | 5 | 23 |
| 5 | | Yangiobod | 1 | 0 | 5 | 1 | 0 | 1 | 8 |
| 6 | **Jarqo‘rg‘on** | Yangiobod | 3 | 5 | 3 | 4 | 4 | 5 | 24 |
| 7 | | "Yangiobod yangi | 1 | 1 | 2 | 2 | 0 | 3 | 9 |
| 8 | **Muzrobod** | Shaffof | 2 | 3 | 3 | 4 | 2 | 5 | 19 |
| 9 | **Oltinsoy** | "Oqqarbuloq | 3 | 4 | 5 | 4 | 4 | 5 | 25 |
| 10 | **Sariosiyo** | Anorzor | 2 | 4 | 5 | 2 | 0 | 3 | 16 |
| 11 | | Afrosiyob | 2 | 4 | 4 | 4 | 2 | 5 | 21 |
| 12 | **Termiz sh** | Bunyodkor | 2 | 4 | 4 | 2 | 5 | 3 | 20 |
| 13 | **Uzun** | Navro‘z | 3 | 4 | 5 | 5 | 1 | 5 | 23 |
| 14 | **Qumqo‘r g‘on** | Azlarsoy 1 | 3 | 4 | 5 | 3 | 4 | 5 | 24 |
| 15 | | Azlarsoy 2 | 2 | 1 | 1 | 2 | 1 | 2 | 9 |
| 16 | | Bog‘aro | 2 | 2 | 5 | 3 | 1 | 4 | 17 |
| 17 | | Surxon Sohili | 2 | 2 | 5 | 3 | 1 | 5 | 18 |
| 18 | **Sho‘rchi** | Joyilma | 2 | 2 | 3 | 4 | 1 | 5 | 17 |
| 19 | **Bandixon** | Bektepa 1 | 1 | 1 | 3 | 2 | 1 | 3 | 11 |
| 20 | **Boysun** | Mustaqillik | 2 | 3 | 5 | 3 | 1 | 4 | 18 |
| 21 | **Qiziriq** | Rabatak | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 3 | 8 |
| 22 | | Kunchiqish | 1 | 1 | 2 | 1 | 0 | 5 | 10 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **23** | | Zarbdor | **1** | **1** | **4** | **1** | **1** | **1** | 9 |

Hududlarda tashkil etilgan kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini taklif qilingan ko’rsatkichlar tizimiga asoslangan holda respublika miqyosida viloyatlar kesimida, keyinchalik har bir viloyatda tumanlar kesimida monitoring qilishni tashkil etish mintaqaviy hokimiyat organlari bilan birga KSZ ishtirokchisi (ijarachi yoki loyiha egasi) uchun ham qiziqish uygʻotadi hamda ularni boshqarishning ajralmas elementi sanaladi, shu bilan birga loyihalarni rivojlantirishda strategiya va taktikani toʻgʻrilaydigan zarur boshqarish qarorlarini tezda qabul qilish imkonini beradi.

Qurilgan samaradorlik ko’rsatkichi asosida davlat organlariga kichik sanoat zonalarining holati va rivojlanish dinamikasini kuzatish, hududlarni rivojlantirish samaradorligini taxminiy baholash imkonini beruvchi KSZ larni rivojlantirish reytingini ham tuzish mumkin, shu bilan birga xorij investorlarini jalb qilishda joyni baholash va tanlashni osonlashtiradi. Boshqaruv kompaniyasi uchun bu KSZning reytingdagi oʻrnini oshirish uchun koʻrsatilayotgan xizmatlar sifatini rivojlantirish va yaxshilash uchun ragʻbat yaratadi.

Taklif etilayotgan KSZ larni reytingi boʻyicha tartiblash usuli "shaffoflik" tamoyilga amal qilishi kerak, yaʻni algoritm va koʻrsatkichlar roʻyxati ochiq, mutaxassislarga uning aniqligini oshirish uchun qoʻshimcha koʻrsatkichlarni kiritib, ushbu usulni takomillashtirish imkonini beradi. Shuningdek, bu usul, alohida ekspertlarning sub’ektiv baholari boʻyicha emas, balki ob’ektiv statistik ma’lumotlardan foydalanishga asoslangan. Bu koʻrsatkichlar tizimiga tayanib, dastlab tumanlar, viloyatlar hamda respublika miqyosida ham milliy reytingni shaklantirish mumkin. Koʻrsatkichlar tizimini yangi koʻsatkichlar bilan yana kengaytirish, reyting shartlarini oʻzgartirish imkoni mavjud.

## 2.2. KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA’SIR ETUVCHI OMILLAR VA UNI BAHOLASHNING HAZARIY ASOSLARI

Ishlab chiqarishni KSZ lar hududida joylashtirish kompaniya joriy xarajatlarining bir qismini optimallashtirish imkonini beradi uchun. Boshqaruv kompaniyasi ishlab chiqaruvchilarni KSZ siga yagona ishlab

chiqarish zanjiri doirasida joylashtirish mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirish bilan birga ularni tarqatishga ham yordam beradi, chunki ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan kompaniyalar o'z mahsulotlarini sotib oladigan korxonalar yaqinida joylashgan bo'lishi mumkin.

KSZ lar faoliyati samaradorligini oshirish uchun uning joylashuv o'rnii, rivojlanish darajasini, ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining raqobatbardoshligi, eksportbopligini aniqlash va baholash asosiy vazifalar hisoblanadi. Buning uchun KSZ lar faoliyatini o'rganishga innovatsion yondashuv, ya'ni turli tahlil usullarini qo'llash, foydalanish uslubiyotini ishlab chiqish zarur hisoblanadi. Shu sabab, quyidagi ierarxik tahlil usuli hamda taksonomik tahlil usullaridan foydalanish uslubiyoti bilan tanishamiz.

Ierarxik tahlil usuli – bu qarorlar qabul qilish masalalarini yechishga tizimli yondashishning matematik usulidir. Bu usul amerikalik olim Tomas Saati[73] tomonidan 1970 yilda ishlab chiqilib, amalda keng qo'llanilib kelmoqda. Cudan transport tizimi izlanishlarida, Meksika sanoatida resurslar taqsimlanishi samaradorligini tahlil yetishda bu usuldan keng foydalanilgan. Xitoyning 100 ga yaqin universitetlari ierarxik tahlil usuli asoslari bo'yicha kurslar taklif qilishgan va ko'pgina ilmiy izlanuvchilar bu usulni ilmiy ish ob'ekti sifatida qabul qilishgan.

Jahonda davriy ravishda 28 yildan beri xalqaro simpozium (ISAHP-International Symposium on Analytic Hierarchy Process) o'tkazib kelinmoqda. Isroilda professor Ami Arbel bu usulni formal bo'lmagan omillar, ya'ni analitik bog'lanmagan omillarga qo'llash mumkinligini ochib beradi. A.S. Vinokurov va R.I.Bajenov[74]lar ushbu usuldan raqamli fotoapparatni tanlashda, O.V. Daneev[75] bir muncha murakkabroq jarayonda, ya'ni mintaqa iqtisodiyot tarmoqlararo proporsiyalarini modellashtirish jarayonida qo'llagan, G.L. Brodeskiy, P.A. Terentev[76]

---

[73] Т. Саати Принятие решений Метод анализа иерархий Перевод с английского Р. Г. Вачнадзе Москва «Радио и связь» 1993

[74] Винокуров А.С., Баженов Р.И. Использование метода анализа иерархий для принятия оптимального решения по выбору цифрового фотоаппарата // Современная техника и технологии. 2014. № 9 [Электронный ресурс]. URL: https://technology.snauka.ru/2014/09/4438.;

[75] О. В. Данеев. Моделирование межотраслевкх пропорций в экономике региона (на примере республики Бурятии): Автореф.Дисс…кан.эк.наук.-М.:МГУ.2004.-32 с;

[76] Г.Л Бродецкий, П.А.Терентьев. Применение метода аналитической иерархии для оптимизации места расположения регионального распределительного центра// Логистика и управление цепями поставок -2005.-№ 1 (6) 26-34 стр.;

mazkur usuldan mintaqada taqsimot markazini joylashtirish masalasiga qo‘llab samarali natijaga erishgan. T.Yu. Sibizova, A.A. Karpunin[77] boshqaruv jarayoni sifatini baholashda, O‘zbekistonda O. S. Qahhorov ta’lim muassasalari boshqaruvi samaradorligini baholashda, M.T.Baqoev kadrlar salohiyatini aniqlash va kadrlarni tanlashda[78] mazkur usuldan unumli foydalangan

Bu usulning yutug‘i shundaki, u universal bo‘lib, uni turli masalalar, jumladan, voqea rivojining mumkin bo‘lgan holatlarini tahlil qilish, resurslarni taqsimlash, mijoz reytingini tuzish, kadrlar bo‘yicha qarorlarini qabul qilish kabi masalalarga keng miqyosda qo‘llash mumkin.

Uning kamchiligi ekspertlardan katta hajmdagi ma’lumotlarni olishga bo‘lgan ehtiyojdan iborat. Shuning uchun bu usul ma’lumotlari asosiy qismi ekspertlar tomonidan afzal ko‘rilgan, tanlash jarayonida bir qancha ustuvorlikka ega bo‘lgan variantlarga asoslangan jarayonlar uchun mos keladi.

Ierarxik tahlil usulini quyidagi masalalar uchun qo‘llash mumkin:

- ko‘p turdagi muqobillar orasidan bitta muqobilni tanlash;
- bir qancha muqobillarni muhimligi va zarurligi darajasiga qarab tartibga solish;
- bir muqobilning boshqa muqobilga nisbatan muhimligini aniqlash;
- resurslarni taqsimlash;
- namunalar bilan solishtirish;
- bir nechta xususiyatlar va ko‘rsatkichlar mavjudligi sharoitida sifatni baholash.

Ushbu uslubiyotni amalga oshirishning batafsil algoritmi quyidagicha:

[77] Цибизова Т.Ю., Карпунин А.А. Применение метода анализа иерархий в оценке качества процессов управления // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 2-1;

[78] Қаҳҳоров О.С. Таълим муассасалари бошқарувининг самарадорлигини баҳолашдаги ёндашувлар ва усуллар// Ж. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 1, январ-феврал, 2017.; М.Бакоев, Г.Раимова, О.Ахмедов, “Система поддержки принятия управленческих решений: Метод анализа иерархий” . Свидетельство №DGU 04035 от 28/10/2016.




**2.2.1-rasm. Ierarxik tahlil usuli algoritmi.**

Usulga ko‘ra, mezonlar muhimligini aniqlash va muqobillarni baholash maxsus shakldа olib boriladi. Agar muqobillar ob’ektiv baholari raqamlarda mavjud bo‘lsa, u holda ularning yig‘indisi bir birlikka tenglashirilib, normallashtiriladi. Agar muqobillar ob’ektiv baholari raqamlarda mavjud bo‘lmasa (masalan: mahsulot shakli yoki uslubi), bu holda ierarxik tahlil usuliga ko‘ra ular juft-juft qilib taqqoslanadi.

1-bosqichda dastlab masala quyidagi iyerarxik tuzilma ko‘rinishida shakllantiriladi: maqsad-mezon-muqobil (2.2.2-rasm).




**2.2.2-rasm. Iyerarxik tuzilma shakli (maqsad-mezon-muqobil).**

$B_1$, $B_2$, $B_3$,…, $B_n$ mezonlar  juft-juft qilib taqqoslanadi. Bunda mezonlar qiymatlari farqining kattaliklari emas, balki ularning

munosabati $a_{ij} = \frac{1}{a_{ji}}$ aniqlanadi.Matritsani to‘ldirish davomida i yelement j yelementdan muhimroq bo‘lsa, (i,j) katakchaga butun son, (j,i) katakchaga kasr son kiritiladi. Teng muhimlikka ega bo‘lsa, 1 soni kiritiladi, shuning bosh diagonal elementlari 1 lardan iborat bo‘ladi. Demak juft-juft qilib taqqoslash matritsasi elementlari rangi 1 ga teng bo‘lgan musbat aniqlangan teskari matritsa ko‘rinishida bo‘ladi. (2.1.1-jadval).

2.2.1- jadval

**Mezonlarni juft-juft qilib taqqoslash matritsasi**

| **Mezonlar** | $B_1$ | $B_2$ | ... | $B_n$ |
|---|---|---|---|---|
| $B_1$ | $\frac{w_1}{w_1}$ | $\frac{w_1}{w_2}$ | … | $\frac{w_1}{w_n}$ |
| $B_2$ | $\frac{w_2}{w_1}$ | $\frac{w_2}{w_2}$ | … | $\frac{w_2}{w_n}$ |
| ... | … | … | … | … |
| $B_n$ | $\frac{w_n}{w_1}$ | $\frac{w_n}{w_2}$ | … | $\frac{w_n}{w_n}$ |

2-bosqich mezonlar muhimligini aniqlashdan iborat bo’lib, uning algoritmi quyidagicha:

a) mos taqqoslash matritsasi bo‘yicha avval qo‘shimcha D qo‘shimcha ustun elementlari topiladi. Bunda qator elementlari ko‘paytiriladi;

b) $S_i$ komponentli xos vektor D qo‘shimcha ustun elementlaridan j-darajali ildiz chiqarish, ya’ni har bir qator yelementlarining o‘rta geometrik qiymati asosida aniqlanadi, ya’ni $S_i = \sqrt[j]{D}$;

c) $S_i$ komponentli xos vektor normallashtiriladi, ya’ni xos vektor yelementlari xos vektor yelementlari yig‘indisiga nisbati asosida normal xos vektor *N* aniqlanadi (2.2.2-jadval).

**2.2.2-jadval**

**Mezonlar muhimligini aniqlash jadvali**

| Me-zonlar | $B_1$ | $B_2$ | … | $B_n$ | $S_i$ kompo-nenti | $N$-normal xos vektor |
|---|---|---|---|---|---|---|
| $B_1$ | 1 | $a_{12}$ | … | $a_{1n}$ | $S_1 = \sqrt[n]{1 \cdot a_{n1} \cdot \ldots \cdot a_{1n}}$ | $N_1 = \frac{S_1}{\sum_{i=1}^{m} S_i}$ |
| $B_2$ | $a_{21}$ | 1 | … | $a_{2n}$ | $S_2 = \sqrt[n]{a_{21} \cdot 1 \cdot \ldots \cdot a_{2n}}$ | $N_2 = \frac{S_2}{\sum_{i=1}^{m} S_i}$ |
| … | … | … | .. | … | … | …. |
| $B_n$ | $a_{n1}$ | $a_{21}$ | … | 1 | $S_n = \sqrt[n]{a_{n1} \cdot a_{n2} \cdot \ldots \cdot 1}$ | $N_n = \frac{S_n}{\sum_{i=1}^{m} S_i}$ |
| | | | | | $\sum_{i=1}^{m} S_i$ | |

3-bosqichda har bir mezon asosida juft-juft qilib muqobillar baholanadi, bunda xuddi yuqoridagi tartibda berilgan muqobillar har bir mezon asosida taqqoslanadi. Bu muqobillarni tegishli tizim chegarasida baholash uchun n ta mezon berilganligi uchun n ta jadval tuziladi. Muqobillarning har biri uchun sifat indikatorlari hisoblanadi. Ular muqobillar ustunliklar sanalib, ular orqali mavjud tizim uchun eng muqobil yechimlar aniqlanadi. Bunda algoritmning keyingi bosqichi har bir mezon bo‘yicha muqobillar muhimligini baholashdan iborat. Natija chegarasida baholash uchun n ta mezon berilganligi uchun n ta muhimlik koeffitsientini hisoblash jadvallari tuziladi.

4- bosqichda yuqorida tuzilgan juftlik taqqoslash matritsalari mantiqiy muvofiqlik ketma-ketligi tekshiriladi. Buning uchun muvofiqlik indeksi va muvofiqlik nisbati tushunchalari kiritiladi. Muvofiqlik indeksi (MI) quyidagicha aniqlanadi:

$$MI = \frac{\varphi_{max} - n}{n-1}; \qquad (2.2.1)$$

Bu yerda n- matritsa o‘lchovi, $\varphi_{max}$ –quyidagicha aniqlanadi:

1. matritsaning har bir ustun elementlari yig‘indisi aniqlanadi;
2. hisoblangan yig‘indilar mos MK larga ko‘paytiriladi;

3. hisoblangan ko‘paytmalar yig‘indisi hisoblanadi.

Keyin tasodifiy muvofiqlik (TM) qiymatlari aniqlanadi, u matritsaning o‘lchamiga bog‘liq (2- ilova). MI va TM ni aniqlagach, muvofiqlik nisbati (MN) hisoblanadi:

$$MN = \frac{MI}{TM}; \qquad (2.2.2)$$

$MN \leq 0.1$ bo‘lsa, keltirilgan matritsa qiymatlari, muvofiq bo‘ladi, aks holda, ya’ni $MN > 0.1$ bo‘lsa, matritsa elementlari qayta solishtiriladi.

5-bosqichda muqobillarni optimal tanlash uchun muqobil ustunliklarini hisoblanadi, buning uchun har bir alohida muqobil uchun mezon muhimligi koeffitsientlarini har bir **muqobil muhimlik koeffisiyentlariga** ko‘paytirib, yig‘ish asosida ishlab chiqiladi, ya’ni (muqobilning mavjud n ta B $_1$, B $_2$, B $_3$,…, B $_n$ mezonlar asosidagi muhimlik koeffitsientlarini $M_{A_iB_j}$ deb va mezon muhimligi koeffitsiyentlarini esa $M_{B_j}$ deb belgilasak, u holda

$$K_{A_i} = M_{A_iB_j} * M_{B_j}$$

$$K_{A_1} = M_{A_1B_1} * M_{B_1} + M_{A_1B_2} * M_{B_2} + \cdots + M_{A_1B_n} * M_{B_n}$$

$$K_{A_2} = M_{A_2B_1} * M_{B_1} + M_{A_2B_2} * M_{B_2} + \cdots + M_{A_2B_n} * M_{B_n}$$

$$\ldots.$$

$$K_{A_m} = M_{A_mB_1} * M_{B_1} + M_{A_mB_2} * M_{B_2} + \cdots + M_{A_mB_n} * M_{B_n} \qquad (2.2.3)$$

(2.2.1) tenglamalar tizimi ko‘rinishida berilgan $K_{A_1}, K_{A_2}, \ldots, K_{A_m}$ lar A $_1$, A $_2$, A $_3$,…, A $_m$ muqobillarning mavjud tizim uchun ahamiyatliligi hisoblanadi va $K_{A_i}$ larning eng katta qiymatlisi shu muqobil muhimligini aniqlaydi.

Bu usuldan KSZ lani boshqaruv jarayoni sifatini baholashda, sanoat ishlab chiqarishni rejalashtirishda, bank ishini optimallashtirishda, bozor va tijorat ishlarini optimallashtirishda keng foydalanish mumkin.

Dinamik bozor muhitidagi raqobatning jiddiylashishi har bir korxona yoki xo‘jalik yurituvchi sub’ekt uchun analog tashkilot yoki muassasalar doimiy monitoringida o‘zining iqtisodiy holatining zarurligi ehtiyojini his qiladi. Tashkilot raqobatbardoshlilik darajasi bu ma’lum bir

davr ichida mazkur tashkilot tomonidan erishilgan yakuniy natijalar yordamida baholanadigan yaxlit sonli tavsifidir. Bunda korxona boshqa tashkilotlar ishtirokisiz bu darajaga erishish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Baholash kategoriyasini shakllantiradigan dinamik omillar ko‘pxilligi yakuniy ko‘rsatkich o‘zgarishiga ta’sir qiladi. Shunday qilib, korxonalarda mahsulot raqobatbardoshlilik darajasining oshishi, o‘sishni aniqlovchi vektor hisoblanadi, bunda raqobatbardoshlik darajasi tahlil jarayoni tizimli xarakterga ega bo‘lishi kerak.

Ilm-fan rivojining hozirgi bosqichida bozor sub'ektining raqobatbardoshligini baholashning universal, umume’tirof etilgan usuli ishlab chiqmagan, bu turli xil tashqi va ichki omillar ta’sirini aniqlash va baholashning murakkabligi bilan bog‘liq.

M.B. Shepakin, Yu.V. Bajenov[79]lar bozor sub'ektining raqobatbardoshligini baholashda metodologik yondashuvlarning to‘rtta asosiy guruhini ajratib ko‘rsatishadi, bular: yig‘ma (integral) ko‘rsatkichni hisoblashga asoslangan yondashuvlar, qisman (yagona) ko‘rsatkichlarni hisoblashga asoslangan yondashuvlar, ekspert yondashuvlar hamda matritsali yondashuvlar.

Iste’mol mahsulotining raqobatbardoshligi-bu mahsulotning sifat va iqtisodiy parametrlari hamda marketing omillari bilan birgalikda raqobatdosh mahsulotlar bilan solishtirganda maqsadli bozorda mijozlarning ehtiyojlarini qondirishni eng to‘liq ta’minlovchi murakkab xususiyatdir,

Ushbu ta'rifdan bir qator muhim qoidalar kelib chiqadi:

- mahsulotning raqobatbardoshligi murakkab iqtisodiy toifa bo’lb, murakkab xususiyatga ega, uning darajasi raqobatbardoshlikning kompleks ko‘rsatkichi orqali ifodalanishi mumkin;
- tovarlar raqobatbardoshligining asosiy tarkibiy qismlari sifat va iqtisodiy parametrlar, shuningdek, marketing vositalaridir. Bu komponentlar, o‘z navbatida, ma’lum bir tarkib va tuzilishga ega bo‘lgan

---

[79] Щепакин М.Б., Баженов Ю.В. Классификация подходов к оценке конкурентоспособности субъекта рыночной деятелности// Научная електронная библиотека «КиберЛенинка»

bir guruh ko‘rsatkichlari sifatida ifodalanishi mumkin bo’lgan murakkab toifadir;

- tovarlarning raqobatbardoshligi - bu nisbiy qiymat bo’lib, mahsulotni raqobatdosh mahsulotlar bilan solishtirish natijasida aniqlanadi, shuning uchun boshqa analoglar orasida raqobatdosh mahsulotlarni aniqlashga imkon beradigan mezonlarni ishlab chiqish kerak;
- nihoyat, mahsulotning raqobatbardoshligi dastlab ma'lum bir ishlab chiqaruvchi tomonidan shakllantiriladi va u bilan bog‘liq xarajatlardan ajralmaydi[80].

Bugungi kunda amaliyotda korxona raqobatbardoshliligini baholashning bir qancha usullari ishlab chiqilgan va qo‘llanib kelinmoqda. Ko‘p hollarda bu usullar korxona faoliyatining aniq bir jihatini xarakterlovchi bir xil turdagi ma’lumotlardan foydalaniladi. Bunday ko‘rsatkichlar asosidagi tahlil korxonaning bozordagi o‘rnining to‘liq xarakteristikasini berolmaydi. Bunday holda korxona faoliyati asosiy jihatlarini aks yettiruvchi ko‘rsatkichlar tizimini tavsiflovchi usulni qo‘llash zarurati hosil bo‘ladi.

Mahsulotlarning raqobatbardoshligi bir qator ko‘rsatkichlar bilan o‘lchanib, ular asosan to‘rt guruhga bo‘linadi: sifat, iqtisodiy, tashkiliy-tijorat va ijtimoiy-tashkiliy ko‘rsatkichlar[81]

Bu muammoni hal qilishning yechimlaridan biri iqtisodiy izlanishlarda taqqoslashning ko‘p o‘lchovli tahlil usullaridan foydalanish hisoblanadi. Bu turdagi hisoblarni bajarishda asosiy muammo tahlil qilinuvchi omillar majmuasining turlichaligidir. Ko‘p sondagi turli, ya’ni turli o‘lchov birliklariga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlarni bir xillikka keltirish uchun taksonomik ko‘rsatkichni qo‘llash mumkin. U o‘zida turli belgilardan foydalanilgan korxona raqobatbardoshligini xarakterlovchi sun’iy kattalikni ifodalaydi.

Taksonomiya mustaqil fan sifatida XVII-XVIII asrlarda xorijda paydo bo‘lgan. Taksonomiya (qadimgi grek tilidan olingan bo‘lib, “qurish”, “tartib”, “qonun” ma’nosini anglatadi ) tasniflash va

[80] О.В.Циунчик. Показатели конкурентоспособности потребительских товаров// http://edoc.bseu.by:8080/
[81] Н.А. Мансурова. Алгоритм оценки конкурентоспособности продукции

tizimlashtirish tamoyillari hamda amaliy tadbiqlari haqidagi fanni ifodalaydi.

Taksonomiya termini birinchi bo‘lib, 1813 yilda Ogyusten Dekandol tomonidan berildi. U botanik olim bo‘lib, taksonomiya termini dastlab biologiyada foydalanilgan. Keyinchalik XX asrning boshida turli ilmiy, texnik yo‘nalishlar rivojlanishi bilan taksonomiya fan sifatida nafaqat biologiyada, balki inson faoliyatining boshqa yo‘nalishlarida, shu jumladan iqtisodda katta rol o‘ynay boshladi. Hozirgi paytda taksonomiyadan biologiya, falsafa, iqtisodiyot va boshqa fanlarda keng foylaniladi.

Korxona raqobatbardoshligi bir qancha ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilish uchun sonli kattalik hisoblanadi. Korxona raqobatbardoshligini boshqarish va uning darajasini baholashning nazariy va amaliy muammolari rus olimlaridan V.P. Gorodnov[82]. V. V. Mitroxin, I. K. Simaeva[83], Lyubutov A.S[84], Kirilchuk S. P[85], kabi bir qancha olimlar ishlarida ko‘rilgan. Lekin hozirgi vaqtda korxona raqobatbardoshligini baholash masalasini yaxlit yechish algoritmi mavjud yemas, chunki sub’ekt xo‘jalik faoliyatiga ta’sir qiluvchi barcha omillarni hisobga olish mushkul.

Korxona raqobatbardoshligi koeffitsientlari asosida korxona raqobatbardoshligini baholash uchun taksonomik tahlil usulini qo‘llashda avval baholanayotgan korxona yoki mahsulotlar sifati darajasini baholash uchun kuzatuvlar matritsasi tuzib olinadi. U baholanayotgan korxona yoki mahsulotlar sifat ko‘rsatkichlarini aniqlovchi sonli qiymatlardan iborat bo‘ladi. Ustunlarida bir xil nomli ko‘rsatkichlar va satrlarda baholanayotgan namuna analogni aniqlovchi birlik ko‘rsatkichlar berilgan kuzatuvlar matritsasi jadval ko‘rinishida beriladi:

---

[82] Городнов В. П., Романчик Т. В. Таксономический анализ как метод оценки конкурентоспособности промышленной продукции. БИЗНЕСИНФОРМ № 2 ’2010

[83] В. В. Митрохин, И. К. Симаева.Таксонометрический анализ эффективности банковской политики кредитных организаций Республики Мордовия Финно–угорский мир. 2013. № 4

[84] Любутов А.С. Метод структурной таксономии: возможности применения для анализа социальных и духовных процессов Научный результат. Социология и управление. Т. 5, № 4, 2019

[85] Кирильчук С. П., Применение концепции таксономического анализа в деятельности предприятий//ФГАОУ ВО «КФУ им. В. И. Вернадского», Институт экономики и управления, г. Симферополь

**2.2.3-jadval.**

**Baholanayotgan korxona yoki mahsulotlar sifat ko'rsatkichlarini aniqlovchi birlik ko'rsatkichlar berilgan kuzatuvlar matritsasi jadvali**

| *Sifat ko'rsatkich lari* / *Korxona yoki mahsulot turlari* | $A_1$ | $A_2$ | $A_3$ | … | $A_n$ |
|---|---|---|---|---|---|
| $B_1$ | $X_{11}$ | $X_{12}$ | $X_{13}$ | … | $X_{1n}$ |
| $B_2$ | $X_{21}$ | $X_{22}$ | $X_{23}$ | … | $X_{2n}$ |
| $B_3$ | $X_{31}$ | $X_{32}$ | $X_{33}$ | … | $X_{3n}$ |
| … | … | … | … | … | … |
| $B_m$ | $X_{m1}$ | $X_{m2}$ | $X_{m3}$ | … | $X_{mn}$ |

Bu yerda $A_k$, $(k = \overline{1 \dots n})$ korxona yoki mahsulotlar sifat ko'rsatkichlarini, $B_i$, $(i = \overline{1 \dots m}$ korxona yoki mahsulotlar turlarini ifodalaydi.

Tuzilgan jadval ma'lumotlari bir jinsli emas, ular baholanayotgan korxona yoki mahsulotlar turli xossalarini ifodalaydi. Bundan tashqari ularning o'lchov birliklari ham har xil bo'lib, ba'zi arifmetik hisoblarni bajarishni qiyinlashtiradi, shuning uchun bu birliklarni standartlashtirish zarur.

Raqobatbardoshlik koeffisiyentini aniqlash algoritmi 2.2.3- rasmda keltirilgan algoritm asosida bajariladi.

k ko'rsatkich uchun o'rta arifmetik qiymatlari

$$x_k = \frac{1}{m}\sum_{i=1}^{m} x_{ik}\,; \quad (i = \overline{1 \dots m}, k = \overline{1 \dots n}) \qquad (2.2.4)$$

formula asosida aniqlandi. k ko'rsatkichning standart og'ishi (2.2.3) formula asosida aniqlandi:

$$S_k = \left[\frac{1}{m}\sum_{i=1}^{m}(x_{ik} - \overline{x_k})^2\right]^{\frac{1}{2}} \qquad (2.2.5)$$

Bu yerda $k = 1,2, \dots, n$; $x_{ik} - i$ -birlik uchun $k$ ko'rsatkich qiymati.

**Kuzatuvlar matritsasini tuzish (korxona yoki mahsulotlar nomi va uning korsatkichlari)**

↓

**Har bir ko'rsatkich uchun o'rta arifmetik qiymati aniqlanadi**

↓

**Har bir ko'rsatkichning standart og'ish qiymati aniqlanadi**

↓

**Standartlashtirilgan qiymatlar aniqlanadi**

↓

**Stanrtlashtirilgan qiymatlar matritsasi orqali ijobiy va salbiy omillar aniqlanadi**

↓

**Har bir korxona rivojlanish etaloni orasidagi farqlar aniqlanadi**

↓

**Umumiy rivojlanish etaloni o'rtacha mutlaq farq aniqlanadi**

↓

**O'rtacha mutlaq farq og'ish qiymati aniqlanadi**

↓

**Rivojalnish etalon qiymatiga maksimal mumkin bo'agan masofa aniqlanadi**

↓

**Har bir korxona yoki mahsulot uchun rivojlanish darajasi ko‘rsatkichi aniqlanadi**

↓

**Har bir korxona yoki mahsulot uchun raqobarbardoshlik koeffisiyentianiqlanadi**

**2.2.3- rasm. Korxona yoki mahsulotning raqobatbardoshlik koeffisienti(RK) ni aniqlash algoritmi**

Standartlashtirish uchun (3) formuladan foydalanamiz.

$$Z_{ik} = \frac{x_{ik} - \overline{x_k}}{S_k} \qquad (2.2.6)$$

Matritsa ko‘rsatkichlari farqlanadi, ya’ni matritsa qiymatlaridan mahsulotlar raqobatbardoshlik darajasiga ta’sir etuvchi ijobiy va salbiy omillar aniqlanadi.

$$\begin{cases} x_i^0 = \max x_{ik}, & agar\ k - ijobiy\ omil\ bo'lsa, \\ x_i^0 = \min x_{ik}, & agar\ k - salbiy\ omil\ bo'lsa, \end{cases}$$

Tanlangan sifat va iqtisodiy ko‘rsatkichlar ijobiy omil bo‘lganligi sababli,

$$Z_{0k} = \max Z_{ik} \qquad (2.2.7)$$

formula yordamida maksimal $x_{ik}$ lar asosida $z_{0k}$ lar, ya’ni

$Z_0 = (z_{01}, z_{02}, z_{03}, z_{04}, z_{05})$ vektori qiymatlari aniqlanadi.

Har bir korxona yoki mahsulot rivojlanish etaloni orasidagi farqlarni

$$q_i = [\sum_{k=1}^{n}(Z_{ik} - Z_{0k})^2]^{\frac{1}{2}} \quad (2.2.8)$$

formula orqali hisoblanadi va korxona yoki mahsulot rivojlanish etaloni orasidagi o‘rtacha mutlaq farqi

$$\overline{q_0} = \frac{1}{m}\sum_{i=1}^{m} q_i \quad (2.2.9)$$

formula orqali aniqlanadi.

O‘rtacha mutlaq farq og‘ish qiymati:

$$F_0 = \left[\frac{1}{m}\sum_{k=1}^{n}(q_i - \overline{q_0})^2\right]^{\frac{1}{2}} \quad (2.2.10)$$

formula asosida aniqlanadi.

Rivojlanish etalon qiymatiga maksimal mumkin bo‘lgan masofa

$$R_0 = \overline{q_0} + 2F_0 \quad (2.2.11)$$

asosida aniqlanadi.

Endi har bir korxona yoki mahsulot uchun rivojlanish darajasi ko‘rsatkichini alohida hisoblanadi, ya’ni

$$e_i = \frac{q_i}{R_0} \quad (2.2.12)$$

formula yordamida aniqlandi va u orqali raqobatrbardoshlik koeffisiyenti (rk)

$$rk = 1 - e_i \quad (2.2.13)$$

aniqlanadi va u taksonomik tahlil nazariyasiga ko’ra, $e_i$ ko‘rsatkich 0 ga qancha yaqin bo‘lsa, KSZ lar rivojlanish darajasi shuncha yuqori bo‘ladi. Rivojlanishning $RK$ taksonomik ko‘rsatkichi (raqobatbardoshlik koeffisiyenti) ning qiymati 0 dan 1 gacha oralig’ida qiymatlarni qabul qilishi mumkin. RK esa 1 ga qancha yaqin bo’lsa, uning raqobatbardoshligi barqaror bo’ladi.

Korxonalarning raqobatbardoshligini ta’minlashning zarur sharti davlat tomonidan raqobatni qo‘llab-quvvatlash va monopoliyalarni tartibga solish bo’yicha maxsus sanoat siyosatni amalga oshirishdir. Sanoat siyosati - bu davlat hokimiyati organlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish, biznes va jamiyat o‘rtasidagi tizimli muvozanatli raqobatbardosh iqtisodiyotni va sanoat ishlab chiqarishining yuqori

texnologiyali intellektual yadrosini shakllantirish bilan bog‘liq munosabatlar tizimidir. Zamonaviy iqtisodiyotda bozor tuzilmalarining ko‘plab potentsial ijtimoiy ehtiyojlarni qondira olmasligi bilan bog‘liq bo’lgan bozorni tartibga solish nuqsonlarining mavjudligi, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy farqlanishning kuchayishi, bozor kontsentratsiyasining o‘sishi, ishtirokchilarning qiziqishining yo‘qligi, fundamental tadqiqotlarni moliyalashtirish, ilmiy-texnik sohani qo‘llabquvvatlash zarurati investitsiya talabini rag‘batlantirish, moliya-kredit sektori faoliyatini muvofiqlashtirish chora-tadbirlari nuqtai nazaridan davlat aralashuvini talab qiladi. Milliy korxonalarni qo‘llab-quvvatlash, mamlakatning texnologik rivojlanishining ustuvorligini belgilaydigan innovatsion tarmoqlarni shakllantirishga ko‘maklashish uchun bojxona tariflarini ham tartibga solish ustuvor vazifa bo’lib hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyoda eksportga yo‘naltirilgan sanoat siyosati, import o‘rnini bosish siyosati hamda innovatsion sanoat siyosatini amalga oshirish jadal rivojlanmoqda. Shunday ekan, KSZ lardagi korxonalar mahsulotlari raqobatbardoshligini baholashda uning sifat ko‘rsatkichlari bilan birga iqtisodiy ko‘rsatkichlari, innovatsion faoliyati ko‘rsatkichlari kabi boshqa turdagi ko‘rsatkichlarini ham hisobga olish, uning raqobatbardoshligi barqaror ekanligini aniqlash mumkin. Demak, bu holda yuqoridagi (2.2.13) formula asosida quyidagi umumiy formula orqali umumiy raqobatbardoshlik koeffisiyentini hisoblash mumkin:

$$RK = \frac{\sum_{i=1}^{n} rk_i}{n} \qquad (2.2.14)$$

Raqobatbardoshlilikni baholash xo‘jalik sub’ektining raqobatbardoshlilik darajasini oshirish bo‘yicha yo‘riqnomalar ishlab chiqish uchun metodologik asos hisoblanadi. Taksonomik tahlil usulini qo‘llashda ko‘p sondagi turli, ya’ni turli o‘lchov birliklariga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlarni bir xillikka keltiriladi. Bu korxona yoki mahsulotlar sifati rivojlanish darajasiga ta’sir etuvchi ijobiy va salbiy omillarni aniqlash imkonini beradi.

Taksonomik tahlilning korxonalar faoliyatida qo‘llanilishi o‘rganilayotgan korxonalardagi iqtisodiy vaziyatni, uning rivojlanish

yoki inqiroz darajasini oldindan aniqlash imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, korxonalar, tadbirkorlik sub‘ektlari uchun juda aniq va maqsadli strategik rejalar tuzish, salbiy inqirozning paydo bo’lishi oldini olish, kichik sanoat zonalarida birlashgan korxonalarni samarali boshqarish, doimiy nazoratni amalga oshirish, stimulyatorlarning simptom komponentlari qiymatini oshirish va disstimulyatorlarning simptom komponentlarini yo‘q qilish, tegishli texnik, iqtisodiy va boshqaruvni amalga oshirishda yordam beradi.

## 2.3. Kichik sanoat zonalari korxona va mahsulotlar raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi omillar va uni baholashga uslubiy yondashuvlar

Iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalaridan biri- bu korxonalar, savdo tarmoqlari, kichik sanoat zonalari mahsulotlari raqobatbardoshligini baholash va bashorat qilishdan iborat. O‘zgaruvchan bozor muhitidagi raqobatning jiddiylashishi har bir korxona yoki xo‘jalik yurituvchi sub’ekt uchun analog tashkilot yoki muassasalar doimiy monitoringida o‘zining iqtisodiy holati zarurligi ehtiyojini his qiladi.

O‘zbekistonda ham xuddi rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega ko‘pgina xorijiy mamlakatlardagi singari mahsulot sifatini boshqarish tizimini yaratish, takomillashtirish va sertifikatlashga e’tibor kuchayayotganligi kuzatilmoqda, sifatga nisbatan yangicha boshqaruv tafakkuri shakllanmoqda. Shu bois, sanoat korxonalarida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda yanada chuqur tadqiqot olib borish hozirgi kunning dolzab masalasi sanalib, nafaqat ilmiy balki, amaliy ahamiyat ham kasb etadi.

Zamonaviy korxonalar faoliyatida raqobatbardoshlik tushunchasi muhim o‘rin tuta boshladi. Korxona raqobatbardoshligi nuqtai nazaridan, uning bozorda talabga ega bo‘lish va muvaffaqiyatli bo‘lish, raqobatdosh firmalar bilan raqobatlashish va shunga o‘xshash mahsulotlarni yetkazib beruvchi kompaniyalarga qaraganda ko‘proq iqtisodiy foyda olish qobiliyatini tushunish odatiy holdir. Umuman olganda, raqobatbardoshlik murakkab xususiyat bo‘lib, uni ko‘rsatkichlar to‘plami orqali ifodalash mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning ichki va tashqi bozordagi o‘rnini

aniqlash uchun uning raqobatbardoshligini baholash kerak. Kompaniyalar o‘tkazishi kerak bo‘lgan raqobatbardoshlikni baholash ko‘pincha intuitiv sezgilarga asoslanadi, ammo uni baholashni amalga oshirishga imkon beradigan va ta’sir yetuvchi omillarni tahlil etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish yo‘nalishlarini aniqlashga imkon beruvchi bir qator ko‘rsatkichlarni tavsiflash orqali rasmiylashtirilishi mumkin. Kompaniya raqobatbardoshligini baholashda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar har xil bo‘lib, ularning to‘plami qo‘llaniladigan baholash uslubiyatiga qarab farq qilishi mumkin.

I.V. Gladisheva o‘z ilmiy ishida raqobatbardoshlik tushunchasiga quyidagi ta’rifni taqdim yetadi. “Korxonaning o‘zining raqobat ustunligidan foydalanish darajasi va doimiy o‘zgaruvchan tashqi va ichki sharoitlarga moslashish imkoniyati bilan aniqlanadigan hamda har doim rentabellikni saqlab turgan holdagi kompleks xarakteridir”[86]

E.V. Maksimova asarida quyidagi ta’rifni taqdim yetadi. “Raqobat - bu sub’ektlarning musobaqalashuvi (tortishuvi) bo‘lib, musobaqada qarshilik ko‘rsatish va g‘oliblikni qo‘lga kiritishni yesa raqobatbardoshlik deb atash mumkin”[87]. Raqobatbardoshlik - bu afzalliklarni belgilovchi xususiyatlarga yega bo‘lish".

P. Zavyalovning yondashuvi o‘zgacha xarakterga yega, muallif fikriga ko‘ra “raqobatbardoshlik – bu mamlakatning tovar va xizmatlarda amalga oshirilgan hamda tashqi va ichki bozorlarda raqobatchi analoglariga qarshilik ko‘rsatadigan iqtisodiy, ilmiy-texnik,ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv, marketing va boshqa imkoniyatlari ifodasidir”[88].

Korxona raqobatbardoshligi raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishning yetarli sharti hisoblanadi, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish yesa raqobatbardosh korxona shakllanishining va korxona raqobatbardoshligini ta’minlashning zaruriy shartidir.

---

[86] Гладышева И. В. Прогнозирование конкурентоспособности промышленного предприятия. Автореф. дисс. на соиск. уч. степ, канд. экон. наук. СПб., 2006

[87] Максимова Е.В. Проблемы обеспечения конкурентоспособности предприятий. Экономические реформы в России. Материалы III международной научно-практической конференции. – СПб.: Нестор, 2000. -520 с.

[88] Завьялов П. Конкурентоспособность в экономической политике стран // Маркетинг. - 1996. - №2. - С.22.




**2.3.1-rasm. Korxona raqobatbardoshligi va mahsulot raqobatbardoshligi tushunchalarining o'zaro bog'liqligi**

Mahsulotlarning raqobatbardoshligi va mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona raqobatbardoshligi bir qism va bir butun sifatida bir-biri bilan bog'liq. Kompaniya ma'lum bir mahsulot bozorida raqobatlasha olish qobiliyati to'g'ridan-to'g'ri mahsulot raqobatbardoshligiga va korxona iqtisodiy usullarining umumiyligiga bog'liq. Mahsulotlar raqobatbardoshligi va tashkilot raqobatbardoshligi, ularning o'zaro bog'liqligiga qaramay, mohiyatiga ko'ra farqlanadi:

- belgilangan va turli vaqt davrlari uchun qo'llanilishi mumkin (mahsulotlar raqobatbardoshligi har qanday qisqa vaqt ichida aniqlanadi va tashkilot raqobatbardoshligi ancha uzoq vaqt oralig'ida qo'llanilishi mumkin);
- tashkilot raqobatbardoshligi mahsulot butun assortimenti raqobatbardoshlik darajasiga va har bir faoliyat turining samaradorligiga bog'liq;
- mahsulotlar raqobatbardoshligi tashkilot raqobatbardoshligi uchun zarur, ammo yetarli shart emas.

Korxona raqobatbardoshligi «mahsulot raqobatbardoshligi» tushunchasiga nisbatan ancha murakkab va umumiy tushunchadir. Korxonaning raqobatbardoshligi - bu ajralmas raqamli xarakteristikasi bo'lib, uning yordamida korxonaning ma'lum bir davrdagi faoliyatining yakuniy natijalari baholanadi. Bu elementlar tizimi bo'lib, ularning har biri salohiyatning ma'lum bir turini raqamli (masalan, ball) baholashni aks ettirish uchun mo'ljallangan. Korxonaning raqobatbardoshligi uning asosiy raqobatchilariga nisbatan qo'lga kiritgan turli afzalliklari bilan ta'minlanadi, xususan: iqtisodiy, moliyaviy, investitsiyaviy, kadrlar, imidj va boshqalar.

Tashkilotning raqobatbardoshligini ta'minlash uch darajani o'z

ichiga oladi: tezkor, taktik va strategik. Tezkor darajada raqobatbardoshlikni ta’minlash mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta’minlashni anglatadi. Bu holda raqobatbardoshlik mezoni mahsulot raqobatbardoshligi ko‘rsatkichidir.

Taktik darajadagi raqobatbardoshlik korxonaning umumiy holati bilan tavsiflanadi. Bu holda raqobatbardoshlik mezoni korxona holatining kompleks ko‘rsatkichidir. Raqobatbardoshlikni strategik darajada ta’minlash korxonaning investitsion jozibadorligini ta’minlash demakdir. Bu holda raqobatbardoshlik mezoni korxona darajasining o‘sishi hisoblanadi. Keng ma’noda korxona raqobatbardoshligini raqobatchilar qarshiliklari oldida o‘z maqsadlariga erishish qobiliyati, deb, ta’riflash mumkin. Maqsadlar, qoida tariqasida, vaqt ko‘rsatkichiga ega. Shuning uchun shuni aytishimiz mumkinki, korxona raqobatbardoshligi uning raqobat muhitida ma’lum vaqt davomida muvaffaqiyatli (maqsadlarga nisbatan) faoliyat olib borish qobiliyati bilan belgilanadi.

Ko‘pgina olimlar omillarni korxona bilan bog‘liqligiga qarab, tashqi va ichki omillarga ajratadilar[89].

N.V. Zyablitskaya[90] fikriga ko‘ra, korxona raqobatbardoshligiga ta’sir qiluvchi omillar ikkiga, ya’ni tashqi va ichki omillarga bo’linadi. Ichki omillar - korxonaning o‘z raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatlarini belgilovchi ob’ektiv mezonlar bo‘lib, quyidagilar bilan bog’liq bo‘lishi mumkin: marketing salohiyati, xizmatlar, ilmiy va texnik xodimlar, kadrlar salohiyati, moliyaviy-iqtisodiy salohiyat, moddiy-texnik ta’minot darajasi va boshqalar.

Tashqi omillar - ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy munosabatlar bo‘lib, korxonaga narx va narxdan tashqari xarakteristikalar bo‘yicha yanada jozibador bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga yaratishga imkon beradi. Tashqi omillarga davlatning iqtisodiy va ma’muriy xarakterga ega chora-tadbirlari, bozorning o‘ziga xos xususiyatlari, davlat va nodavlat muassasalari faoliyati, siyosiy partiyalar faoliyati, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat kabilar kiradi

Tashqi omillar:

---

[89] Э.А. Круг. Факторы, влияющие на конкурентоспособность предприятий: позиции разных авторов Вестник Алтайского государственного аграрного университета № 10 (48), 2008

[90] Зяблицкая Н.В., Конкурентоспособность предприятия"Экономика и социум" №5(96)-1 2022

- eksport va importga doir davlat siyosati;
- mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi:
- tovarlarni yeksport qiluvchi va import qiluvchi mamlakatlarda davlat iqtisodiy siyosati;
- kapital bozorlari samaradorligi va moliyaviy xizmatlar sifati;
- mamlakat infratuzilmasining rivojlanish darajasi;
- ilmiy-texnikaviy salohiyatni rivojlantirish;
- mehnat resurslari mavjudligi va malaka darajasi;
- amortizatsiya solig‘i va moliya-kredit siyosati, shu jumladan turli davlat va davlatlararo grantlar va subsidiyalar;
- bojxona siyosati va tegishli import bojlari, kvotalar:
- davlat sug‘urta tizimi;
- xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish, korxona raqobatbardoshligini ta’minlash bo‘yicha milliy dasturlarni moliyalashtirishni ishlab chiqish;
- mahsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish davlat tizimi va ularni yaratish tizimlari;
- iste’molchilar manfaatlarini huquqiy himoya qilish;
- bozorning asosiy belgilari: uning turi va sig‘imi; raqobatchilarning mavjudligi va imkoniyatlari;
- davlat va nodavlat muassasalar faoliyati.

Ichki omillar:

- korxonaning ishlab chiqarish va tashkiliy tuzilmasi;
- ishlab chiqarish jarayonlarini hisobga olish va tartibga solish;
- xodimlar malaka darajasi;
- boshqaruvning axborot va normativ-uslubiy bazasi;
- sifat menejmenti tizimi ishlashi;
- strategik boshqaruv darajasi;
- savdo (dilerlik) tarmog‘ini rivojlantirish;
- maxfiy ma’lumotlarni himoya qilish darajasi (axborotni qo‘llab-quvvatlash tizimi xavfsizligi);
- zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash ko‘lami;
- mahsulotlarni sotish uchun Internetdan foydalanish;

- bilimlardan foydalanishga asoslangan iqtisodiyotga yo‘naltirish;
- ishlab chiqarishni rivojlantirishga investitsiyalarni jalb yetishning muntazamligi;
- shakllangan doimiy va sodiq mijozlar bazasi hajmi;
- fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish ko‘lami;
- korxona obro‘si;
- tovarlar sifatini yaxshilash uchun xodimlarni rag‘batlantirish;
- eng muhim strategik raqobat ustunliklari;
- samarali raqobat strategiyasi;
- qayta tashkil etishning o‘z vaqtida amalga oshirilishi (qo‘shilish, qo‘shib olish, ajratish);
- korxona (biznes) investitsion jozibadorligini aks ettiruvchi qiymati.

Korxonaning atrof-muhit omillariga bevosita ta’sir qilish imkoniyatlari juda cheklangan, chunki ular asosan korxonaga nisbatan ob’ektiv harakat qiladi. Korxona raqobatbardoshligini ta’minlashning real imkoniyatlari ichki muhit omillari sohasidadir. Biroq, bu omillar turli darajadagi samaradorlik bilan ta’sir qilishi mumkin. Shunday qilib, qoida tariqasida, katta investitsiyalar va uzoq o‘zini qoplash muddati ishning texnik va texnologik sharoitlarida innovatsion o‘zgarishlarni talab qiladi.

Zamonaviy fanda raqobatbardoshlikni aniqlashning oltita asosiy yondashuvi mavjud. Birinchi yondashuvga muvofiq, raqobatbardoshlik raqobatchilarga nisbatan ustunlik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Ikkinchi yondashuv A. Marshalning muvozanat nazariyasiga asoslanadi. Ishlab chiqaruvchining boshqa davlatga o‘tishi uchun hech qanday sabab yo‘q va u maksimal foyda va sotish darajasiga yetadi. Uchinchi yondashuv - turli xil kompetentsiya xususiyatlari uchun ko‘pburchak profillarni tuzish asosida mahsulot sifati bo‘yicha raqobatbardoshlikni baholash. To‘rtinchi yondashuv raqobatbardoshlikni baholashning matritsali metodologiyasi bo‘lib, u matritsalarni tuzish va strategiyani oldindan tanlash orqali amalga oshiriladi. Beshinchi yondashuv tizimli bo‘lib, unga ko‘ra korxonaning mavqeini quyidagi ko‘rsatkichlar orqali baholash mumkin: sanoatning monopollashuv darajasi, bozorga yangi

korxonalarning kirishi uchun to‘siqlarning mavjudligi. Oltinchi yondashuv funksional bo‘lib, uning vakillari xarajatlar va narx o‘rtasidagi nisbatni, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini, mahsulot miqdori va boshqa ko‘rsatkichlarni belgilaydi. Ushbu yondashuvga muvofiq, agar mahsulot ishlab chiqarish va undan keyingi sotish yaxshi tashkil etilsa, moliyaviy resurslarni boshqarish yanada samarali yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, korxonalar raqobatbardosh hisoblanadi. Masalan, Dun & Bradstreet nomli Amerika konsalting firmasi shunday yondashuvni qo‘llaydi[91].

Mahsulotlarning raqobatbardoshligini belgilovchi omillar uchta xususiyatga ega bo‘lishi kerak:

- maqsadli auditoriya uchun kompaniya mahsulotining jozibadorligini oshirish;
- tovar sotishdan kompaniya foydasini oshirish;
- maqsadli bozorning mahsulot bilan qoniqishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mahsulot tannarxidagi yetakchilik bozordagi o‘rtacha qiymatdan 10% past narx belgilash va mahsulot narxiga sezgir bo‘lgan iste’molchilar guruhini jalb qilish imkonini beradi. Shubhasiz, tovarlar raqobatbardoshligining bunday ko‘rsatkichi tashkilot foydasi oshishiga ta’sir qiladi. Past narx tanlash muhim mezoni bo‘lgan iste’molchi bilan ishlanganligi sababli, mahsulot jozibadorligini ta’minlaymiz va maqsadli bozor ehtiyojini amalga oshiramiz. Ammo, agar iste’molchi sifatni, yuqori darajadagi xizmatni va ma’lum bir maqomni qadrlaydigan insonlarning mutlaqo qarama-qarshi guruhi bo‘lsa, ular e’tiborini o‘rtacha arzon mahsulotga qaratishimiz mumkin emas.

Mahsulot raqobatbardoshligining barcha parametrlarini 3 darajaga bo‘lish mumkin: mahsulot xususiyatlari bo‘yicha korxona raqobatbardoshlik darajasi, bozor parametrlari bozor sharoitlari bo‘yicha korxona raqobatbardoshlik darajasi va mavjud resurslar bo‘yicha kompaniya raqobatbardoshlik darajasi.

---

[91] Болодурина В.А МЕТОДЫ ОЦЕНКИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ Международный научно-исследовательский журнал ▪ № 11 (42) ▪ Часть 1 ▪ Декабрь

2.3.1-jadval

**Mahsulotning raqobatbardoshligi parametrlari**

| Omillar guruhi | Tavsifi |
|---|---|
| Tovar omillari | Korxona raqobatbardoshligi tovar mezonlari - maqsadli auditoriya orasida mahsulot jozibadorligi va qoniqishini oshiradigan kompaniya mahsuloti xususiyatlari va funksional xususiyatlari; |
| Bozor omillari | Mahsulot raqobatbardoshligi bozor parametrlari bozor sharoitlari bilan belgilanadi va hozirgi raqobat va siyosiy sharoitlarda kompaniya mahsuloti sohada qanchalik muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. |
| Resurs omillari | Korxona raqobatbardoshligi resurs ko‘rsatkichlari kompaniya ichki muhiti bilan belgilanadi va kompaniyaning qanday mavjud resurslari raqobatda g‘alaba qozonishiga, mahsulot jozibadorligini va sanoatda yanada foydali mavqega yega bo‘lishiga imkon berishini ko‘rsatadi. |

Har bir guruhni alohida qarab chiqamiz:

Tovar omillari - raqobatbardoshlik mezonlarining ushbu guruhi tovarlarni sotib olishdan mijozning qoniqishini oshirishi mumkin bo‘lgan barcha mahsulot xususiyatlarini o‘z ichiga oladi:

- tovarlar ta‘mi, hidi, rangi;
- mahsulot turi kengligi;
- mahsulot yoki xizmat xususiyatlarining o‘ziga xosligi;
- maqsadli auditoriya uchun mahsulotning samaradorligini ko‘rsatadigan mezonlar;
- mahsulot sifati uchun javobgar bo‘lgan mezonlar;
- mahsulot ishonchliligini oshiradigan mezonlar;
- mahsulot ishlash muddati;
- sotish shartlari va sotishdan keyingi xizmat ko‘rsatish;
- tovar narxi darajasi;
- tarqatish va mahsulotni namoyish qilish sifati
- brendni bilish darajasi.

Bozor omillari - ushbu mezonlar guruhi bozordagi raqobat darajasini tavsiflovchi parametrlarni o‘z ichiga oladi:

- o‘rnini bosuvchi mahsulotlar mavjudligi;
- bozorga kirish to‘siqlari mustahkamligi;

- o‘yinchilar soni;
- bozorda mahsulot xilma-xilligi va differentsiatsiya darajasi;
- davlat cheklovlari.

Resurs omillari - raqobatbardoshlik mezonlarining ushbu guruhi rentabellik va biznes harakatchanligi darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan kompaniyaning barcha resurslari tavsifini o‘z ichiga oladi:

- kadrlar malakasi;
- bo‘sh aylanma mablag‘lar mavjudligi;
- mahsulot reklamasida imkoniyatlar;
- masshtabdagi tejalish mavjudligi;
- patentlar yoki maxsus texnologiyalarga egalik qilish;
- qaror qabul qilish tezligi;
- bozor o‘zgarishlariga reaktsiya tezligi.

Baholash kategoriyasini shakllantiradigan dinamik omillar ko‘pxilligi yakuniy ko‘rsatkich o‘zgarishiga ta’sir qiladi. Shunday qilib, KSZ lar faoliyati samaradorligi darajasi oshishi iqtisodiy o‘sishni aniqlovchi vektor hisoblanadi, bunda samaradorlik darajasini tahlil jarayoni tizimli xarakterga ega bo‘lishi lozim.

Kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, ularning ishtirokchilari uchun faoliyat yuritish sharoitlarini sifat jihatidan yaxshilash va mahsulotlarni sotishga ko‘maklashish, investitsiyalar jalb qilinishini faollashtirish, avvalambor foydalanilmayotgan, faoliyat yuritmayotgan ishlab chiqarish maydonlari negizida tashkil qilinayotgan importbop mahsulotlarni chiqarish bo‘yicha zamonaviy ishlab chiqarishlar joriy etilishini jadallashtirish[92] maqsadida KSZ larda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini aniqlash hamda import o‘rnini bosa oladigan, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish asosiy vazifa bo’lib turubdi.

Bugungi kunda amaliyotda korxona yoki tashkilotlar raqobatbardoshligini baholashning bir qancha usullari ishlab chiqilgan va amaliyotga qo‘llanib kelinmoqda. Ko‘p hollarda bu usullar korxona

[92] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori. PQ-4363-son. 21.06.2019

faoliyatining aniq bir jihatini xarakterlovchi bir xil turdagi ma’lumotlardan foydalaniladi. Bunday ko‘rsatkichlar asosidagi tahlil korxonaning bozordagi o’rnining to‘liq tavsifini berolmaydi. Bunday holda korxona faoliyati asosiy jihatlarini aks ettiruvchi ko’rsatkichlar tizimini tavsiflovchi usulni qo’llash zarurati paydo bo’ladi.

Bu muammoni hal qilish yechimlaridan biri iqtisodiy izlanishlarda taqqoslashning ko‘p o‘lchovli tahlil usullaridan foydalanish hisoblanadi. Bu turdagi hisoblarni bajarishda asosiy muammo tahlil qilinuvchi omillar majmuasi turlichaligidir. Ko‘p sondagi turli, ya’ni turli o‘lchov birliklariga ega bo‘lgan ko’rsatkichlarni bir xillikka keltirish uchun taksonomik ko‘rsatkichni qo‘llash mumkin. U o’zida turli belgilardan foydalanilgan sun’iy kattalikni ifodalaydi. Ma’lumki, korxona rivojlanish darajasini xarakterlovchi bunday sun’iy kattalik dastlab Z.Xelvig tomonidan qo‘llanilgan taksonomik ko‘rsatkich bo’lib, u o‘rganilayotgan iqtisodiy jarayonni xarakterlaydigan barcha ko‘rsatkichlardan tashkil topadi. Iqtisodiy jarayon rivojlanish darajasi real takson miqdorining shartli maksimal qiymatga yaqinligi asosida aniqlanadi.

KSZ larda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar eksportbop va import o‘rini bosa oladigan mahsulotlar rivojlanish darajasini baholash uchun taksonomik tahlil usulini qo‘llashda avval baholanayotgan KSZ lar mahsulotlarini baholash uchun kuzatuvlar jadvali tuzib olindi. U baholanayotgan KSZ mahsuloti sifat ko‘rsatkichlarini aniqlovchi sonli qiymatlardan iborat bo’ladi. Jadvalda Surxondaryo viloyatida qurilish korxonalarida ishlab chiqarilgan g‘isht mahsulotlari sifat ko‘rsatkichlari va iqtisodiy ko‘rsatkich sifatida rentabellik koeffisiyenti olingan.

Mahsulot raqobatbardoshligini baholashda bundan tashqari innovatsion omilga bog‘liq ko’rsatkichlarni kiritish maqsadga muvofiq.

Innovatsiya – fan yutuqlari va ilg‘or tajribalardan foydalanishga asoslangan, ishlab chiqarish tizimi samaradorligini yoki mahsulot sifatini sifat jihatidan oshirishni ta’minlovchi texnika, texnologiya, mehnatni tashkil etish yoki boshqarish sohasidagi yangilik.

Innovatsiyalarning quyidagi turlari ajratiladi:

- Texnologik - mavjud mahsulotni yangi yoki samarali ishlab chiqarishni olish (mahsulotlar, texnikalar, yangi yoki takomillashtirilgan

texnologik jarayonlar);

- Ijtimoiy (jarayon) - jamiyatni qayta tashkil etishda inson hayotining sohalarini yangilash jarayoni (pedagogika, boshqaruv tizimi, xayriya, xizmat ko‘rsatish, jarayonni tashkil etish).

- Mahsulot – yangi va foydali xususiyatlarga ega mahsulotlar yaratish[93].

Mahsulot sifatiga ta‘sir qiluvchi omillar:

- zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;
- kompaniya tomonidan taqdim etilgan ishlab chiqarish darajasi;
- foydalanilayotgan uskunaning sifati;
- ishlatiladigan materiallar va komponentlarning xususiyatlari;
- xodimlarning malakasi;
- mehnat jarayonini tashkil etish (ishchilarni rag‘batlantirish);
- foydalaniladigan ishlab chiqarish jarayonlarining intensivligi va davomiyligi[94].

Korxonaning hayotiy davriyligida pasayish darajasida bo‘lgan faoliyatlarga barham berib, bo‘sh turgan mablag‘larni yangi mahsulotlarni ishlab chiqishga yo‘naltirishi zarur. Yangi raqobatchilar ta’sirini kamaytirish uchun korxona yangi ishonchli hamkor va investorlarga va xizmat ko‘rsatish standartlarini oshirishga e’tibor qaratishi kerak[95].

Yuqorida 2.2- paragrafda keltirilgan algoritm asosida quyigagilar aniqlandi.

k= 5 bo’lib, ko’rsatkich uchun o‘rta arifmetik qiymatlari

$$x_1 = 12.17;\ x_2 = 1646.4; x_3 = 8.74; x_4 = 1.9; x_5 = 1.45$$

aniqlandi.

k ko’rsatkichning standart og‘ish qiymatlari aniqlandi:

$$S_1 = 2.464;\ S_2 = 96.664;\ \ S_3 = 1.294;\ S_4 = 0.048;\ S_5 = 0.257$$

93 Шораджабов А.А,. Инновационные технологии» как фактор улучшения качества продукции символ науки № 12 / 2018.

94 А. Захаров. Что такое показатели качества продукции. Словарь маркетолога// https://www.calltouch.ru/blog/author/azakharov/

95 Z. A. Baltasheva, G. Xo‘janova. Kichik sanoat zonalar korxonalarini rivojlantirishda marketing strategiyasi. Scientific progress 2023 pp. 343-348

**2.3.2-jadval**

**Surxondaryo viloyatida qurilish korxonalarida ishlab chiqarilgan g'isht mahsulotlari sifat ko'rsatkichlari**

| Korxonalar nomi | Suv singdiruvchanligi (%) | O'rtacha zichligi (kg/m^3) | Siqilishga mustahkamligi (Mpa) | Egilishga mustahkamligi (Mpa) | Foydalilik koeffisiyenti |
|---|---|---|---|---|---|
| "Surxon keramiks" MCHJ | 16,3 | 1375 | 12,3 | 1,8 | 1,1325 |
| "Janub Surxon g'isht" MCHJ | 9,9 | 1690 | 8,2 | 1,93 | 1,533573 |
| "Nurillo Islomobod" XK | 10,8 | 1656 | 7,88 | 1,89 | 1,716559 |
| "Niyoz tosh nur" MCHJ | 11,3 | 1643 | 8,08 | 1,91 | 1,182796 |
| "Abdualim invest" XK | 15,1 | 1633 | 8,4 | 1,96 | 1,47331 |
| "Barpo-Invest " MCHJ | 10,8 | 1750 | 9,4 | 1,94 | 1,352817 |
| «Boysun Gayrat» MCHJ | 10,2 | 1650 | 9,2 | 1,9 | 1,876923 |
| «Иқбол кўл балиғи» х/к | 10,4 | 1695 | 8,05 | 1,82 | 1,649398 |
| "Shurchi sifat barpo" XK | 10,7 | 1660 | 7,82 | 1,92 | 1,50156 |
| "Binafsha" xf | 16,2 | 1712 | 8,02 | 1,88 | 1,033523 |

**2.3.3-jadval**

Tanlangan sifat va iqtisodiy ko'rsatkichlar ijobiy omil bo'lganligi sababli,

$$Z_{01} = 1.676;\ Z_{02} = 1.072;\ Z_{03} = 2.755;\ Z_{04} = 1.348;\ Z_{05} = 1.682$$

$Z_0 = (z_{01}, z_{02}, z_{03}, z_{04}, z_{05})$ vektori qiymatlari aniqlanadi.

**Standartlashtirilgan qiymatlar jadvali**

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| "Surxon keramiks" MCHJ | 1,676025 | -2,80768 | 2,755065 | -1,97021 | -1,21927 |
| "Janub Surxon g'isht" MCHJ | -0,92121 | 0,451049 | -0,41345 | 0,725866 | 0,344103 |
| "Nurillo Islomobod" XK | -0,55597 | 0,099314 | -0,66075 | -0,1037 | 1,057379 |
| "Niyoz tosh nur" MCHJ | -0,35306 | -0,03517 | -0,50619 | 0,311086 | -1,02322 |
| "Abdualim invest" XK | 1,189045 | -0,13863 | -0,25889 | 1,348037 | 0,109199 |
| "Barpo-Invest " MCHJ | -0,55597 | 1,071759 | 0,513918 | 0,933257 | -0,36048 |
| «Boysun Gayrat» MCHJ | -0,79946 | 0,037243 | 0,359356 | 0,103695 | 1,682474 |
| «Иқбол кўл балиғи» х/к | -0,7183 | 0,502775 | -0,52937 | -1,55543 | 0,795584 |
| "Shurchi sifat barpo" XK | -0,59655 | 0,140694 | -0,70712 | 0,518476 | 0,219317 |
| "Binafsha" xf | 1,635444 | 0,678643 | -0,55256 | -0,31109 | -1,60508 |
| Maksimal | 1,676025 | 1,071759 | 2,755065 | 1,348037 | 1,682474 |

Har bir korxona yoki mahsulot rivojlanish etaloni orasidagi farqlar:

$$q_1 = 5.872;\ q_2 = 4.399;\ q_3 = 4.483;\ q_4 = 4.937;\ q_5 = 3.642;\ q_6 = 3.788;\ q_7 = 3.806;\ q_8 = 5.105; q_9 = 4.566;$$

$$q_{10} = 4.966.$$

hisoblandi va korxona yoki mahsulot rivojlanish etaloni orasidagi

o‘rtacha mutlaq farqi: $\overline{q_0} = 4.556$. aniqlandi. O’rtacha mutlaq farq og‘ish qiymati:

$$F_0 = 0.661 \text{ aniqlandi.}$$

Rivojlanish etalon qiymatiga maksimal mumkin bo‘lgan masofa

$R_0 = 5.878$ ga teng ekan.

Endi har bir korxona yoki mahsulot uchun rivojlanish darajasi ko‘rsatkichini alohida hisoblanib, u orqali raqobatrbardoshlik koeffisiyenti (RK) aniqlanadi.

Rivojlanishning taksonomik ko‘rsatkichi (raqobatbardoshlik koeffisienti) ning qiymati 0 dan 1 gacha $(0 \leq K \leq 1)$ oralig‘ida qiymatlarni qabul qilishi mumkin. U qanchalik baland bo‘lsa, KSZ faoliyati samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi[96].

**2.3.4-jadval**

**Standartlashtirilgan qiymatlar jadvali**

| Korxona nomlari | RK qiymati |
|---|---|
| "Surxon keramiks" MCHJ | 0,000941 |
| "Janub Surxon g'isht" MCHJ | 0,25161 |
| "Nurillo Islomobod" XK | 0,237342 |
| "Niyoz tosh nur" MCHJ | 0,160021 |
| "Abdualim invest" XK | 0,380423 |
| "Barpo-Invest " MCHJ | 0,355487 |
| «Boysun Gayrat» MCHJ | 0,352444 |
| «Иқбол кўл балиғи» х/к | 0,131449 |
| "Shurchi sifat barpo" XK | 0,22317 |
| "Binafsha" xf | 0,15516 |

Hududiy KSZ larida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning import o‘rnini bosuvchi va eksportbopligini, ya’ni raqobatbardoshligini baholashda taksonomik tahlil usulidan foydalanib, Surxondaryo viloyatidagi KSZ dagi korxonalar ishlab chiqargan mahsulotlarning raqobatbardoshlik koeffisiyenti (RK) aniqlangan va u orqali korxona mahsulotlari raqobatbardoshligini “kuchsiz” (RK≤0.1), “o‘rta” (0.1<RK≤0.3), “kuchli” (0.3<RK≤0.5) va “o‘ta kuchli” (0.5<RK<1) darjalar asosida baholangan.

Demak, tahlil qilinayotgan g‘isht mahsulotlari orasida "Abdualim

[96] Бондарева Т. И, Сариева А. Б., «Оценка конкурентоспособности предприятия на основе метода таксономии»// Науковий вісник Ужгородського національного університету

invest", "Barpo-Invest", «Boysun Gayrat» korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar RK lari (0.3<RK≤0.5) oraliqda bo‘lganligi uchun raqobatbadoshligi kuchli, "Janub Surxon g'isht", "Nurillo Islomobod", "Shurchi sifat barpo", "Niyoz tosh nur", "Binafsha", «Иқбол кўл балиғи» korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar RK lari (0.1<RK≤0.3) oraliqda bo‘lganligi uchun raqobatbadoshligi “o‘rta”, "Surxon keramiks" korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar RK lari (0RK≤0.1) oraliqda bo‘lganligi uchun raqobatbadoshligi “kuchsiz” darajada ekanligi baholandi.

Bu ko‘rsatkich ko‘p sonli xususiyatlarga ega ob’ektlarni solishtirish va ularni rivojlanish darajasiga ko‘ra tartiblash imkonini beradi. Taksonomik usulning asosiy afzalligi standartlashtirish jarayonidir, buning natijasida ob’ektning har xil tasvirlangan sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlar xususiyatlari yagona standartlashtirilgan o‘lchov tizimiga aylantiriladi, bu esa foydalanish qulayligi bilan uning keng qo‘llanilishiga imkon yaratadi.

Hududlarda tashkil etilgan kichik sanoat zonalari korxonalari yoki ularning ishlab chiqargan mahsulotlari raqobatbardoshligini maxsus ko‘rsatkichlar tizimiga asoslangan holda respublika miqyosida viloyatlar kesimida, keyinchalik har bir viloyatda tumanlar kesimida baholash hamda tahlil qilishni tashkil etish mintaqaviy hokimiyat organlari bilan birga KSZ ishtirokchisi (ijarachi yoki loyiha yegasi) uchun ham qiziqish uyg‘otadi, raqobatbardosh (import o‘rnini bosuvchi, eksportbop) mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yadigan strategiya va taktikani ishlab chiqish uchun zarur boshqarish qarorlarini tezda qabul qilish imkonini beradi

# III- BOB. KIChIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISh TENDENTSIYALARI

## 3.1. Kichik sanoat zonalari joylashuv o‘rnini tanlashga ta’sir etuvchi omillar va uni optimallashtirishning iqtisodiy-matematik modeli

Respublikamiz janubiy hududi — Surxondaryo viloyati ulkan iqtisodiy imkoniyatlari, geografik va transport salohiyati bilan mamlakatimiz hayotida muhim o‘rin tutadi. Viloyatning yer osti va yer usti boyliklaridan unumli foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar hudud sanoat salohiyatini yuksaltirib, eksportbop tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Surxondaryo viloyatida kichik sanoat zonalarini tashkil yetish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori[97]da viloyatda ishlab chiqarish sohasida yangi ish o‘rinlari yaratish hamda aholining bandlik va farovonlik darajasini oshirish maqsad qilib olingan. Qarorga ko‘ra, viloyatning 9 ta tuman (shahar)laridagi foydalanilmayotgan davlat mulki ob’ektlari va ishlab chiqarish maydonlarida (jami 55,1 gektar) kichik sanoat zonalari tashkil etilishi belgilangan. Kichik sanoat zonalari hududidagi davlat ko‘chmas mulki tadbirkorlik sub’ektlariga biznes rejalarini bajarish, ish o‘rinlarini yaratish va saqlash, barcha turdagi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lash sharti bilan keyinchalik mulk huquqi berilgan holda 10 yillik uzoq muddatli ijaraga beriladi. Bugungi kunda viloyatda mavjud 35 ta kichik sanoat zonalari hududi 94,3 gektarni tashkil etsa, 2026 yilga borib, kichik sanoat zonalari soni 82 taga, hududi 1050,2 gektarga yetkaziladi. Shuningdek, kichik sanoat zonalarida 427 mlrd. so‘m mablag‘ evaziga amalga oshirilgan 197 ta loyiha doirasida 2132 ta yangi ish o‘rni yaratgan bo‘lsa, 2026 yilga borib loyihalar soni 2900 taga, qiymati 4395 mlrd so‘mga yetkazilib, 47 055 ta yangi ish o‘rni yaratiladi.

2020 yil mart oyida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kichik sanoat zonalari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, kichik sanoat zonalari (KSZ)

[97] “Сурхондарё вилоятида кичик саноат зоналарини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори ПҚ–3636, 29.03.2018 й

faqat muhandislik-texnik kommunikatsiyalari mavjud bo‘lgan yoki o‘tkazish oson bo‘lgan faoliyat ko‘rsatmayotgan ishlab chiqarish maydonlari va qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan yer uchastkalari negizida tashkil etiladi. KSZ hududi chegaralarini tasdiqlash, shuningdek, ularning keyinchalik o‘zgartirilishi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi[98]. Ularga yangi KSZ tashkil yetish uchun kiritish rejalashtirilayotgan, muhandislik-texnik kommunikatsiyasi mavjud bo‘lgan yoki uni o‘tkazish oson bo‘lgan faoliyat ko‘rsatmayotgan ishlab chiqarish maydonlari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan yer uchastkalari ro‘yxati tuzilib taqdim etiladi. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari, albatta sug‘orilmaydigan yoki sug‘orish ob’ektlaridan olisda bo‘lgan yer maydonlari hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasi hududida industrial parklar tashkil qilinishi, hududiy-fazoviy joylashuvi va rivojlanish jarayoni bir qancha tamoyillarni hisobga olish zarur. Shuni qayd qilish lozimki, ko‘pgina olimlar ishlarida ko‘p marta tilga olinadigan tamoyillarga: ishlab chiqarishning xom-ashyo manbasiga, yenergiyaga, yoqilg‘i manbalariga, tayyor mahsulotga bo‘lgan talab bor joylarga yaqinligi; mamlakat hududida ishlab chiqarishning teng taqsimlanishi; mehnatning hududiy taqsimlanishi samarasidan maksimal foydalanish maqsadida ba’zi hududlar xo‘jaliklarini ixtisoslashtirish, hudud xo‘jaligining kompleks rivojlanishi va tarmoq tuzilishini takomillashtirish, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va birlashtirish, ishlab chiqarish va iste’molning hududiy balanslarini hisoblash, mahsulotlarning muhim turlari bo‘yicha tumanlararo transport balanslari, ishlab chiqarishning minimal xarajatlari talabi, yirik shaharlarda haddan tashqari konsentratsiyaga yo‘l qo‘ymaslik hamda o‘rta va kichik shaharlar rivojlanishi zarurligi[99], ta’kidlangan..

Kichik sanoat zonalarini shakllantirishda va ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda uning transport, xom-ashyo resurslari xarajatlariga ta’sir etadigan geografik joylashuvi ham alohida o‘rin tutadi. Har bir kichik

---

[98] “Кичик саноат зоналари тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида” Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 09.03.2020 йилдаги 134-сон

[99] Коваленко Е.Г. Региональноеая экономика и управлениею –СПб.: Издательский дом.”Питер”, 2008. -288 с.

sanoat zonasi ishlab chiqarish tarmog‘i o‘ziga xos ishlab chiqarish ob’ektlari geografik joylashuvi omillari va xususiyatlariga yega.

Kichik sanoat zonalarining transport logistika tizimi nuqtai nazaridan joylashishi, ularga qo‘yiladigan eng muhim talablardan biri hisoblanadi, chunki transport xarajatlari qo‘shilgan qiymat zanjirida katta ulushni egallaydi, bundan tashqari, zamonaviy kichik sanoat zonalari tarkibiga xodimlar yashash joylari, ijtimoiy-madaniy ob’ektlar va boshqalar kiradi. Shu munosabat bilan sanoat zonalari iqtisodiy va investitsion vosita bo‘lib, investitsiyalar tovarlarni taqsimlash zanjiri tannarxini pasaytirish imkonini beradi.

Sanoat korxonalarini puxta o‘ylangan transport logistikasi, kooperatsiya, umumiy kapital va ishchi kadrlardan oqilona foydalanish imkoniyatlari bilan bir-biriga yaqin joylashtirish tendentsiyasi bir asrdan ko‘proq vaqt davomida mavjud.

KSZ hududlarida joylashtirish uchun loyihalarni tanlashning aniq mezonlari mavjud emasligiga, loyihalarga muvofiq zarur muhandislik kommunikatsiya va infratuzilmalar qurilishini ta’minlash ishlari yetarli darajada emasligi, berilgan imtiyoz va qulayliklar bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmayotganligi, KSZlarini elektr energiyasi, gaz va ichimlik suvi ta’minotidagi hamda hududga olib boruvchi yo‘llar holati kabi muammolar mavjud. Xususan, viloyatda tashkil etilgan KSZlarining 50 foizidan ortig‘i suv, tabiiy gaz va elektr tarmog‘iga ulanmagan, aksariyat ichki yo‘llar yaroqsiz holatda va kanalizatsiya mavjud emas[100]ligi hali bu sohada zaruriyatga ko‘ra qo‘shimcha tabiiy gaz, yuqori quvvatli elektr energiya tarmog‘i tortish, yuqori kuchlanishli transformatorlar o‘rnatish, shuningdek, suv ta’minoti tarmog‘ini tortish va suv minorasini o‘rnatish, ichki va tashqi yo‘llarni ta’mirlash kabi vazifalarni bosqichma-bosqich bajarish zarur. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdan orqada qolayotgan tuman va shaharlarda yangi kichik sanoat zonalari tashkil etish maqsadida ushbu hududlar salohiyati, raqobatdagi ustuvor yo‘nalishlari, tabiiy va mehnat resurslari, tadbirkorlik muhitini o‘rganib, hududlarda ishlab chiqarish va sanoatni rivojlantirish, tadbirkorlar tomonidan istiqbolli

---

[100] M.M. Ashurov. “Kichik sanoat zonalari: qulay biznes muhitini yaratish va hududni rivojlantirishda muhim omil sifatida” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 8 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor.2021

investitsiya loyihalarini joylashtirish asosiy vazifalar sanaladi..

Kichik sanoat zonalari ishlab chiqarish korxonalari joylashtirish o‘rnini tanlashga ta’sir etuvchi asosiy omillari sifatida zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalar va yer maydonlari mavjudligi, tanlangan yer maydonlarining sug‘orilmaydigan yoki qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan yer uchastkalari bo‘lishi, mehnat va xom-ashyo resurslariga yaqinligi, bozor va iste’molchilarga yaqinligi, muhandislik - texnik kommunikatsiyalari mavjud bo‘lishi yoki o‘tkazish oson bo‘lishi kabi omillar qaraladi. (3.1.1-rasm).




**3.1.1-rasm. Kichik sanoat zonalari ishlab chiqarish korxonalari joylashtirish o‘rnini tanlashga ta’sir etuvchi omillar**

Kichik sanoat zonalari boshqaruv faoliyati doimo katta hajmdagi iqtisodiy, sotsial, siyosiy, yuridik va ma’naviy omillar jamlangan turli murakkablikdagi qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq, bu esa ekspertlar yoki qarorlar qabul qiluvchi shaxslar jalb qilinadigan ko‘pmezonli optimallash masalasi qo‘yilishiga olib keladi. Qarorlar qabul qilish sifatini va ob’ektivlik darajasini oshirish uchun ekspertlar guruhi fikrlarini e’tiborga olish zarur. Qarorlar qabul qilish jarayonida sifat va miqdoriy baholash shaklida berilgan noaniqlik sharoiti yuzaga keladi, bunga sabab qarorlar qabul qiluvchi shaxslarning obyekt xususiyatlari haqida bilimlarning, ekspert bahosi to‘g‘riligiga ishonchlilik darajasining yetishmasligi, axborot taqdim etishdagi xatoliklar va h.k kiradi. Shuning uchun noaniqlik sharoitida qarorlar qabul qilish masalalarini yechishda sonli tavsifga ega bo‘lmagan omillarni taqqoslashni ta’minlash yoki birgalikda

sifat va miqdoriy tavsiflarini taqqoslash zarur. Bunday masalalarni yechish uchun iyerarxik tahlil usulidan foydalanish qulay.

Iyerarxik tahlil usuli yordamida Surxondaryo viloyatida KSZ larni boshqarish direksiyasi tomonidan tashkil etiladigan auksionda KSZ lar bo’sh yer uchastkalarini mahalliy yoki xorijiy tadbirkorlar yordamida tanlash masalasini qaraymiz.

**3.1.1-jadval**

**Surxondaryo viloyatida KSZ lar bo’sh yer uchastkalari haqida ma’lumot[101]**

| № | Tuman yoki shahar nomi | KSZ nomi | Yer maydoni (ga) | Aholi soni | Yaratiladigan ish o’rni | Elektr ta'minoti | Tabiiy gaz | Suv ta'minoti | Yo’l |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Jarqo‘rg‘on tumani | "Yangiobod" | 0,7 | 227,0 | 36 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 2 | Jarqo‘rg‘on tumani | "Yangiobod" yangi | 1,6 | 227,0 | 63 | 0 | 0 | 1 | 0 |
| 3 | Jarqo‘rg‘on tumani | "Qo‘shtepa" | 0,42 | 227,0 | 16 | 0 | 0 | 1 | 0 |
| 4 | Muzrabot tumani | "Shaffof" | 0,5 | 147,0 | 19 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 5 | Muzrabot tumani | "Yangidiyor" | 1,0 | 147,0 | 41 | 0 | 0 | 1 | 0 |
| 6 | Oltinsoy tumani | "Oqarbuloq" | 0,3 | 184,0 | 11 | 1 | 0 | 1 | 1 |
| 7 | Termiz tumani | "Bunyodkor" | 0,5 | 81,0 | 20 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 8 | Termiz tumani | "Nurafshon" | 3,0 | 81,0 | 120 | 0 | 0 | 1 | 0 |
| 9 | Uzun tumani | "Navro‘z" | 0,4 | 180,0 | 14 | 1 | 0 | 1 | 1 |
| 10 | Uzun tumani | "Istiqlol"1 | 2,8 | 180,0 | 112 | 0 | 0 | 1 | 0 |
| 11 | Uzun tumani | "Istiqlol"2 | 1,8 | 180,0 | 70 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 12 | Sho‘rchi tumani | "Joyilma" | 0,1 | 218,0 | 4 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 13 | Sho‘rchi tumani | "Qoraariq" | 0,783 | 218,0 | 31 | 0 | 0 | 1 | 0 |
| 14 | Bandixon tumani | "Bektepa" | 1,67 | 79,0 | 66 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 15 | Boysun tumani | "Mustaqillik" | 0,1 | 120,0 | 3 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 16 | Qiziriq tumani | "Rabatak" | 1,2 | 119,0 | 48 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 17 | Qiziriq tumani | "Kunchiqish" | 0,9 | 119,0 | 37 | 0 | 0 | 1 | 1 |
| 18 | Qiziriq tumani | "Zarbdor" | 1,0 | 119,0 | 39 | 0 | 0 | 1 | 0 |
| 19 | Sherobod tumani | "Taroqli" | 1,7 | 202,0 | 66 | 0 | 0 | 1 | 0 |
| 20 | Sherobod tumani | "Qorabog‘" | 10,2 | 202,0 | 408 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 21 | Boysun tumani | "Inkobat" | 3,3 | 120,0 | 132 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 22 | Bandixon tumani | Bektepa | 16,7 | 79,0 | 668 | 0 | 0 | 1 | 0 |

[101] Muallif tomonidan Surxondaryo viloyatida kichik sanoat zonalrini boshqarish direksiyasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Ular orasidan eng optimalini tanlash talab qilingan bo‘lsin. Masalani yechish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1-bosqich. Bunda maqsad (1-pog‘ona) aniqlanadi, demak maqsad: “KSZ lar bo‘sh yer uchastkalarini mahalliy yoki xorijiy tadbirkorlar yordamida tanlash” dan iborat. Mezonlar( 2- pog‘ona) aniqlanadi: 7 ta mezonlar ($B_{1=}$ yer maydoni (ga), $B_{2=}$aholi soni, $B3_{1=}$ yaratiladigan ish o‘rni, $B_4$=elektr energiya bilan ta’minlanganligi, $B_5$=tabiiy gaz bilan ta’minlanganligi, $B_6$=suv bilan ta’minlanganligi, $B_7$= yo‘l bilan ta’minlanganligi) aniqlandi.

Muqobil yechim ( 3- pog’ona) sifatida 22 ta KSZ hududidagi bo‘sh yer maydonlari berilgan, har bir muqobil tanlangan mezonlar asosida tanlanadi. Tanlangan mezonlarga ko‘ra muqobillar sonli yoki sifat ko‘satkichlari iyerarxik grafik tuziladi(3.1.1-jadval).

2-bosqichda rasmda shakllangan iyerarxiyaning har bir pog‘onasida juftlik solishtirma matritsa kiritiladi va bu matritsalar elementlari asosida muhimlik koeffisienti (MK) aniqlanadi (3.1.2- jadval).

**3.1.2-jadval**

**Mezonlarning solishtirma jadvali va muhimlik koeffisienti (MK)**

| ***Mezonlar muhimligi*** | *Yer maydoni (ga)* | *Aholi soni* | *Yaratiladigan ish o’rni* | *Elektr ta'minoti* | *Tabiiy gaz* | *Suv ta'minoti* | *Yo’l* | *MK* |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| *Yer maydoni (ga)* | 1,00 | 2,00 | 5,00 | 7,00 | 3,00 | 4,00 | 9,00 | 0,364 |
| *Aholi soni* | 0,50 | 1,00 | 4,00 | 5,00 | 2,00 | 3,00 | 7,00 | 0,241 |
| *Yaratiladigan ish o’rni* | 0,20 | 0,25 | 1,00 | 2,00 | 0,33 | 0,50 | 3,00 | 0,066 |
| *Elektr ta'minoti* | 0,14 | 0,20 | 0,50 | 1,00 | 0,25 | 0,33 | 2,00 | 0,043 |
| *Tabiiy gaz* | 0,33 | 0,50 | 3,00 | 4,00 | 1,00 | 2,00 | 5,00 | 0,156 |
| *Suv ta'minoti* | 0,25 | 0,33 | 2,00 | 3,00 | 0,50 | 1,00 | 4,00 | 0,102 |
| *Yo’l* | 0,11 | 0,14 | 0,33 | 0,50 | 0,20 | 0,25 | 1,00 | 0,028 |
| | MI= | 0.024 | MN= | 0.018 | | | | |

3.1.2-jadvalga ko‘ra mezonlarning muhimlik koeffisientlari aniqlanib, eng yuqori muhimlikka $B_{1=}$ yer maydoni, undan keyin $B_{2=}$aholi soni, $B_5$=tabiiy gaz bilan ta’minlanganligi, $B_6$=suv bilan ta’minlanganligi, $B_3$=yaratiladigan ish o‘rni, $B_4$=elektr energiya bilan ta’minlanganligi va oxirgi o‘ringa $B_{7=}$yo‘l bilan ta’minlanganlik mezoni ega bo‘ldi.

Endi har bir mezon bo‘yicha muqobillar (tumanlardagi KSZ lar) ning muhimlik koeffisientlarini aniqlash uchun, dastlab, “pog‘ona ichida pog‘ona”[102] usulidan foydalanamiz. Buning uchun har bir tumandagi KSZ (muqobil) lar tuman miqyosida har bir mezon asosida solishtirilib, muhimlik koeffisienlariga ko‘ra tanlanadi, bunda 2- mezon ($B_{2=}$aholi soni) bo‘yicha solishtirilmaydi, chunki, ular bir tumanga tegishli bo‘lib, aholi soni bir xil bo’ladi. Agar bir tumanda bitta KSZ bo‘lsa, u holda u keyingi pog‘onaga o‘tadi. Bu jarayonda har bir tumandan bitta KSZ (muqobil) olinadi.

**3.1.3-jadval**

**3- pog‘onada qatnashuvchi KSZ (muqobil) lar haqida ma’lumot**

| № | Tuman yoki shahar nomi | KSZ nomi | Yer maydoni (ga) | Aholi soni | Yaratiladigan ish o’rni | Elektr ta'minoti | Tabiiy gaz | Suv ta'minoti | Yo’l |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Jarqo‘rg‘on tumani | "Yangiobod" | 0,7 | 227,0 | 36 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 2 | Muzrabot tumani | "Shaffof" | 0,5 | 147,0 | 19 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 3 | Oltinsoy tumani | "Oqqarbuloq" | 0,3 | 184,0 | 11 | 1 | 0 | 1 | 1 |
| 4 | Termiz tumani | "Nurafshon" | 3,0 | 81,0 | 120 | 0 | 0 | 1 | 0 |
| 5 | Uzun tumani | "Istiqlol"1 | 2,8 | 180,0 | 112 | 0 | 0 | 1 | 0 |
| 6 | Sho‘rchi tumani | "Qoraariq" | 0,783 | 218,0 | 31 | 0 | 0 | 1 | 0 |
| 7 | Qiziriq tumani | "Rabatak" | 1,2 | 119,0 | 48 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 8 | Sherobod tumani | "Qorabog‘" | 10,2 | 202,0 | 408 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 9 | Boysun tumani | "Inkobat" | 3,3 | 120,0 | 132 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 10 | Bandixon tumani | Bektepa | 16,7 | 79,0 | 668 | 0 | 0 | 1 | 0 |

Iyerarxik tahlil hisob-kitoblar (1-ilova) ga ko‘ra, 3-pog‘onada Jarqo‘rg’on tumanidagi Yangiobod KSZsi 0.441 muhimlik koeffisienti bilan, Muzrobod tumanidagi Shaffof KSZsi 0.471 muhimlik koeffisienti bilan, Termiz tumanidagi Nurafshon KSZsi 0.591 muhimlik koeffisienti bilan, Uzun tumanidagi Istiqlol_1 KSZsi 0.401 muhimlik koeffisienti bilan, Sho‘rchi tumanidagi Qoraariq KSZsi 0.638 muhimlik koeffisienti bilan, Bandixon tumanidagi Bektepa_3 KSZsi 0.701 muhimlik

[102] Muallif tomonidan taklif qilngan

koeffisienti bilan, Boysun tumanidagi Inkobod KSZsi 0.599 muhimlik koeffisienti bilan, Qiziriq tumanidagi Rabatak KSZsi 0.550 muhimlik koeffisienti bilan, Sherobod tumanidagi Qorabogʻ KSZsi 0.489 muhimlik koeffisienti bilan va Oltinsoy tumanidagi Oqarbuloq nomli KSZ (muqobil) lar qatnashadi(3.1.3-jadval).

Bu bosqichda har bir mezonga koʻra har bir muqobil (KSZ) juft-juft qilib, solishtiriladi va muhimlik koeffisientlari hisoblanadi (3.1.4-3.1.7 jadvallar).

**3.1.4-jadval**

**Yer maydoni ( $B_1$ ) mezoniga ko'ra KSZ (muqobil) larni juft-jufti bilan taqqoslash jadvali**

| $B_1$ | Yangi obod | Shaf fof | Oqar buloq | Nuraf shon | Istiq lol 1 | Qora ariq | Bek tepa 3 | Inko bat | Raba tak | Qora bog | MK |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Yangiobod | 1,00 | 2,00 | 3,00 | 0,20 | 0,25 | 1,00 | 0,13 | 0,17 | 0,50 | 0,14 | 0,029 |
| Shaffof | 0,50 | 1,00 | 2,00 | 0,17 | 0,20 | 0,50 | 0,11 | 0,14 | 0,33 | 0,13 | 0,020 |
| Oqqarbuloq | 0,33 | 0,50 | 1,00 | 0,14 | 0,17 | 0,33 | 0,11 | 0,13 | 0,25 | 0,11 | 0,015 |
| Nurafshon | 5,00 | 6,00 | 7,00 | 1,00 | 2,00 | 4,00 | 0,25 | 0,50 | 3,00 | 0,33 | 0,108 |
| Istiqlol 1 | 4,00 | 5,00 | 6,00 | 0,50 | 1,00 | 4,00 | 0,20 | 0,50 | 3,00 | 0,25 | 0,084 |
| Qoraariq | 1,00 | 2,00 | 3,00 | 0,25 | 0,25 | 1,00 | 0,14 | 0,20 | 0,50 | 0,17 | 0,031 |
| Bektepa 3 | 8,00 | 9,00 | 9,00 | 4,00 | 5,00 | 7,00 | 1,00 | 3,00 | 6,00 | 2,00 | 0,283 |
| Inkobat | 6,00 | 7,00 | 8,00 | 2,00 | 2,00 | 5,00 | 0,33 | 1,00 | 3,00 | 3,00 | 0,170 |
| Rabatak | 2,00 | 3,00 | 4,00 | 0,33 | 0,33 | 2,00 | 0,17 | 0,33 | 1,00 | 0,20 | 0,048 |
| Qorabog | 7,00 | 8,00 | 9,00 | 3,00 | 4,00 | 6,00 | 0,50 | 2,00 | 5,00 | 1,00 | 0,212 |
| | MI= | 0,11 | | MN= | 0.07 | | | | | | |

3.1.4-jadvaldan koʻrinib turibdiki, yer maydoni (**$B_1$**) mezoni boʻyicha Bandixon tumanidagi Bektepa_3 nomli KSZ 0.283 ustunlik koeffisienti bilan qolgan muqobillarni orqada qoldiryapti, Sherobod tumanidagi Qorabogʻ nomli KSZ 0.212 MK bilan 2 chi oʻrinda va Oltinsoy tumanidagi Oqarbuloq KSZ si 0.015 MK bilan oxirgi oʻrinda turibdi.

3.1.5-jadvaldan koʻrinib turibdiki, Jarqoʻrgʻon tumanidagi Yangiobod nomli KSZ 0.291 ustunlik koeffisienti bilan qolgan muqobillarni orqada qoldiryapti, Shoʻrchi tumanidagi Qoraariq nomli KSZ 0.216 MK bilan 2 chi oʻrinda va Termiz tumanidagi Nurafshon hamda Bandixon tumanidagi Bektepa_3 KSZ lari 0.018 MK bilan oxirgi

o‘rinda turibdi.

**3.1.5-jadval**

**Aholi soni ( $B_2$ ) mezoniga ko’ra KSZ (muqobil) larni juft-jufti bilan taqqoslash jadvali**

| $B_2$ | Yangi obod | Shaf fof | Oqar buloq | Nuraf shon | Istiq lol 1 | Qora ariq | Bek tepa 3 | Inko bat | Raba tak | Qora bog | MK |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Yangiobod | 1,00 | 6,00 | 4,00 | 9,00 | 5,00 | 2,00 | 9,00 | 7,00 | 8,00 | 3,00 | 0,29 |
| Shaffof | 0,17 | 1,00 | 0,33 | 4,00 | 0,50 | 0,20 | 4,00 | 2,00 | 3,00 | 0,25 | 0,05 |
| Oqqarbuloq | 0,25 | 3,00 | 1,00 | 6,00 | 2,00 | 0,33 | 6,00 | 4,00 | 5,00 | 0,50 | 0,11 |
| Nurafshon | 0,11 | 0,25 | 0,17 | 1,00 | 0,20 | 0,13 | 1,00 | 0,33 | 0,50 | 0,14 | 0,02 |
| Istiqlol 1 | 0,20 | 2,00 | 0,50 | 5,00 | 1,00 | 0,25 | 5,00 | 3,00 | 4,00 | 0,33 | 0,08 |
| Qoraariq | 0,50 | 5,00 | 3,00 | 8,00 | 4,00 | 1,00 | 8,00 | 6,00 | 7,00 | 2,00 | 0,22 |
| Bektepa 3 | 0,11 | 0,25 | 0,17 | 1,00 | 0,20 | 0,13 | 1,00 | 0,33 | 0,50 | 0,14 | 0,02 |
| Inkobat | 0,14 | 0,50 | 0,25 | 3,00 | 0,33 | 0,17 | 3,00 | 1,00 | 2,00 | 0,20 | 0,04 |
| Rabatak | 0,13 | 0,33 | 0,20 | 2,00 | 0,25 | 0,14 | 2,00 | 0,50 | 1,00 | 0,17 | 0,03 |
| Qorabog | 0,33 | 4,00 | 2,00 | 7,00 | 3,00 | 0,50 | 7,00 | 5,00 | 6,00 | 1,00 | 0,15 |
| | MI= | 0,06 | | MN= | 0.04 | | | | | | |

**3.1.6-jadval**

**Yaratiladigan ish o’rni ( $B_3$ ) mezoniga ko’ra KSZ (muqobil) larni juft-jufti bilan taqqoslash jadvali**

| $B_3$ | *Yangi obod* | *Shaf fof* | *Oqar buloq* | *Nuraf shon* | *Istiq lol 1* | *Qora ariq* | *Bek tepa 3* | *Inko bat* | *Raba tak* | *Qora bog* | *MK* |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| *Yangiobod* | 1,00 | 2,00 | 3,00 | 0,25 | 0,33 | 1,00 | 0,14 | 0,20 | 0,50 | 0,17 | 0,032 |
| *Shaffof* | 0,50 | 1,00 | 2,00 | 0,20 | 0,25 | 0,50 | 0,11 | 0,17 | 0,33 | 0,14 | 0,022 |
| *Oqqarbuloq* | 0,33 | 0,50 | 1,00 | 0,17 | 0,20 | 0,33 | 0,11 | 0,14 | 0,25 | 0,13 | 0,016 |
| *Nurafshon* | 4,00 | 5,00 | 6,00 | 1,00 | 1,00 | 4,00 | 0,25 | 0,50 | 3,00 | 0,33 | 0,095 |
| *Istiqlol 1* | 3,00 | 4,00 | 5,00 | 1,00 | 1,00 | 3,00 | 0,20 | 0,33 | 3,00 | 0,25 | 0,079 |
| *Qoraariq* | 1,00 | 2,00 | 3,00 | 0,25 | 0,33 | 1,00 | 0,13 | 0,20 | 0,50 | 0,17 | 0,032 |
| *Bektepa 3* | 7,00 | 9,00 | 9,00 | 4,00 | 5,00 | 8,00 | 1,00 | 3,00 | 6,00 | 2,00 | 0,283 |
| *Inkobat* | 5,00 | 6,00 | 7,00 | 2,00 | 3,00 | 5,00 | 0,33 | 1,00 | 3,00 | 0,50 | 0,141 |
| *Rabatak* | 2,00 | 3,00 | 4,00 | 0,33 | 0,33 | 2,00 | 0,17 | 0,33 | 1,00 | 0,20 | 0,048 |
| *Qorabog* | 6,00 | 7,00 | 8,00 | 3,00 | 4,00 | 6,00 | 0,50 | 2,00 | 5,00 | 1,00 | 0,203 |
| | MI= | 0,05 | | MN= | 0.03 | | | | | | |

3.1.6-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Bandixon tumanidagi Bektepa_3 nomli KSZ 0.298 ustunlik koeffisienti bilan qolgan muqobillarni orqada qoldiryapti, Sherobod tumanidagi Qorabog‘ nomli KSZ 0.214 MK bilan

2 chi o‘rinda va Oltinsoy tumanidagi Oqarbuloq KSZ si 0.017 MK bilan oxirgi o‘rinda turibdi.

Qolgan $B_4$=elektr energiya bilan ta’minlanganligi, $B_5$=tabiiy gaz bilan ta’minlanganligi, $B_6$=suv bilan ta’minlanganligi, $B_7$= yo‘l bilan ta’minlanganligi mezonlari qiymati faqat 0 (ta’minlanmagan) va 1 (ta’minlangan) miqdorlari bilan aniqlanganligi uchun muhimlik koeffisientlari ham faqat ikki xil qiymat bilan aniqlanadi. Natijada muqobil (KSZ) larning muhimlik koeffisientlari jadvali quyidagicha ahiqlanadi (3.1.7-jadval).

**3.1.7-jadval**

**Elektr yenergiya bilan ta’minlanganlik ( $B_4$ ) mezoniga ko’ra KSZ (muqobil) larni juft-jufti bilan taqqoslash jadvali**

| B4 | Yangi obod | Shaf fof | Oqar buloq | Nuraf shon | Istiq lol 1 | Qora ariq | Bek tepa 3 | Inko bat | Raba tak | Qora bog | MK |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Yangiobod | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 2,00 | 2,00 | 2,00 | 2,00 | 2,00 | 1,00 | 2,00 | 0,096 |
| Shaffof | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 2,00 | 2,00 | 2,00 | 2,00 | 2,00 | 1,00 | 2,00 | 0,096 |
| Oqqarbuloq | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 2,00 | 2,00 | 2,00 | 2,00 | 2,00 | 1,00 | 2,00 | 0,096 |
| Nurafshon | 0,50 | 0,50 | 0,50 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 0,50 | 1,00 | 0,048 |
| Istiqlol 1 | 0,50 | 0,50 | 0,50 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 0,50 | 1,00 | 0,048 |
| Qoraariq | 0,50 | 0,50 | 0,50 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 0,50 | 1,00 | 0,048 |
| Bektepa 3 | 0,50 | 0,50 | 0,50 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 0,50 | 1,00 | 0,048 |
| Inkobat | 0,50 | 0,50 | 0,50 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 0,50 | 1,00 | 0,048 |
| Rabatak | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 2,00 | 2,00 | 2,00 | 2,00 | 2,00 | 1,00 | 2,00 | 0,096 |
| Qorabog | 0,50 | 0,50 | 0,50 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 1,00 | 0,50 | 1,00 | 0,048 |

Xuddi shu tartibda qolgan muqobil (KSZ) larning $B_5$=tabiiy gaz bilan ta’minlanganligi, $B_6$=suv bilan ta’minlanganligi, $B_7$= yo‘l bilan ta’minlanganligi mezonlari bo‘yicha ustunlik koeffisientlarini hisoblaymiz va quyidagi 3.1.8-jadvalga muqobil (KSZ) larning barcha mezonlar bo‘yicha muhimlik koeffisientlarini yuqorida keltirilgan (2.2.3) formula asosida hisoblaymiz:

$$K_{A_1} = M_{A_1B_1} * M_{B_1} + M_{A_1B_2} * M_{B_2} + M_{A_1B_3} * M_{B_3} + M_{A_1B_4} * M_{B_4} + M_{A_1B_5} * M_{B_5} + M_{A_1B_6} * M_{B_6} + M_{A_1B_7} * M_{B_7} = 0.029 * 0.364 + 0.291 * 0.241 + 0.034 * 0.066 + 0.214 * 0.043 + 0.268 * 0.156 + 0.122 * 0.102 + 0.214 * 0.028 = 0.52$$

**3.1.8-jadval**

**KSZ (muqobil) larnig muhimlik koeffisient (MK) lari jadvali**

| *Mezonlar* | *Yer maydoni (ga)* | *Aholi soni* | *Yaratiladigan ish o'rni* | *Elektr ta'minoti* | *Tabiiy gaz* | *Suv ta'minoti* | *Yo'l* | *MK* |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| *Mezonlarning MK* | 0,364 | 0,241 | 0,066 | 0,043 | 0,156 | 0,102 | 0,028 | |
| *Yangiobod* | 0,029 | 0,291 | 0,034 | 0,214 | 0,268 | 0,122 | 0,214 | 0,152 |
| *Shaffof* | 0,020 | 0,053 | 0,023 | 0,214 | 0,268 | 0,122 | 0,214 | 0,090 |
| *Oqqarbuloq* | 0,015 | 0,109 | 0,017 | 0,214 | 0,030 | 0,122 | 0,214 | 0,065 |
| *Nurafshon* | 0,108 | 0,018 | 0,100 | 0,024 | 0,030 | 0,122 | 0,024 | 0,070 |
| *Istiqlol 1* | 0,084 | 0,076 | 0,083 | 0,024 | 0,030 | 0,122 | 0,024 | 0,074 |
| *Qoraariq* | 0,031 | 0,216 | 0,033 | 0,024 | 0,030 | 0,122 | 0,024 | 0,085 |
| *Bektepa 3* | 0,283 | 0,018 | 0,298 | 0,024 | 0,024 | 0,122 | 0,024 | 0,145 |
| *Inkobat* | 0,170 | 0,037 | 0,149 | 0,024 | 0,024 | 0,014 | 0,024 | 0,088 |
| *Rabatak* | 0,048 | 0,026 | 0,050 | 0,214 | 0,268 | 0,122 | 0,214 | 0,097 |
| *Qorabog* | 0,212 | 0,155 | 0,214 | 0,024 | 0,030 | 0,014 | 0,024 | 0,135 |

Hududlarda KSZ larni auksionga qo‘yilgan yer uchastkalarini mahalliy yoki xorijiy xaridorlar tomonidan tanlashda viloyatning 10 ta tumanidagi KSZ lari muqobil variant sifatida olindi. Yer maydoni (**$B_1$**) mezoni bo‘yicha Bandixon tumanidagi Bektepa_3 nomli KSZ 0.283 muhimlik koeffisienti bilan qolgan muqobillarni orqada qoldiryapti, Sherobod tumanidagi Qorabog’ nomli KSZ 0.212 MK bilan ikkinchi o‘rinda va Oltinsoy tumanidagi Oqarbuloq KSZ si 0.015 MK bilan oxirgi o‘rinda turibdi. Aholi soni (**$B_2$**) mezoni bo‘yicha Jarqo‘rg‘on tumanidagi Yangiobod nomli KSZ 0.291 muhimlik koeffisienti bilan qolgan muqobillarni orqada qoldiryapti, Sho‘rchi tumanidagi Qoraariq nomli KSZ 0.216 MK bilan ikkinchi o‘rinda va Termiz tumanidagi Nurafshon hamda Bandixon tumanidagi Bektepa_3 KSZ lari 0.018 MK bilan oxirgi o‘rinda turibdi. Yaratiladigan ish o‘rni (**$B_3$**) mezoni bo‘yicha Bandixon tumanidagi Bektepa_3 nomli KSZ 0.298 muhimlik koeffisienti bilan qolgan muqobillarni orqada qoldiryapti, Sherobod tumanidagi Qorabog‘ nomli KSZ 0.214 MK bilan ikkinchi o‘rinda va Oltinsoy tumanidagi Oqarbuloq KSZ si 0.017 MK bilan oxirgi o‘rinda turibdi.

Qolgan $B_4$=elektr energiya bilan ta’minlanganligi, $B_5$=tabiiy gaz bilan ta’minlanganligi, $B_6$=suv bilan ta’minlanganligi, $B_7$= yo‘l bilan ta’minlanganligi mezonlari qiymati faqat 0 (ta’minlanmagan) va 1

(ta'minlangan) miqdorlari bilan aniqlanganligi uchun muhimlik koeffisientlari ham faqat ikki xil qiymat bilan aniqlanadi.

Muqobil variantlar ustuvorligini aniqlash uchun har bir alohida muqobil variant uchun mezon muhimligi koeffitsientlarini muqobil variantning muhimlik koeffitsientlariga ko'paytirib, natijani yig'ish asosida Jarqo'rg'on tumanidagi Yangiobod nomli KSZ 0.152 ustunlik koeffisienti bilan birinchi o'rin va Bandixon tumanidagi Bektepa_3 nomli KSZ 0.145 MK bilan ikkinchi o'rinni hamda Sherobod tumanidagi Qorabog' nomli KSZ 0.135 muhimlik koeffisienti bilan uchinchi o'rinni yegalladi. Oltinsoy tumanidagi Oqarbuloq nomli KSZ 0.065 MK bilan eng pastki o'rinni egalladi.

Hududlarda tashkil qilingan KSZ lari faoliyati samaradorligini oshirish, ularni boshqarishni optimallashga bir qancha yondashuvlar mavjud bo'lib, ularda asosan, hududning xo'jalik faoliyati samaradorligi va iqtisodiy tizim ko'rsatkichlari, ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini va ularning xalqaro standartlarga mosligi sifat jihatlari hisobga olinishi lozim. Ko'p mezonli yondashuv asosida hudud iqtisodiy tizimi boshqaruv jarayoni samaradorligi va unda erishilgan amaliy natijalar ko'rsatkichlarini kompleks ishlab chiqish hamda ichki omillarni ko'proq e'tiborga olish mumkin. Iyerarxik tahlil usuli bilan iyerarxiyalash bir tomondan maqsadlarni ketma ket quyi darajaga qarab tarqalishiga olib keladi, bu esa direksiya uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilishda taktik o'zgarishlarni amalga oshirishga, ikkinchi tomondan mazkur usul yordamida KSZ joylashuv o'rnini mahalliy yoki xorijiy investorlar tomonidan tanlashni optimallashtirish investorlar uchun tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishga, shuningdek, hudud iqtisodiy tizimni faollashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari undan boshqaruv jarayoni sifatini baholashda, sanoat ishlab chiqarish jarayoninini rejalashtirishda, bozor va tijorat ishlarini optimallashtirishda, erkin iqtisodiy hamda sanoat zonalari joylashuvini optimallashtirishda keng foydalanish mumkin.

## 3.2. Hududlarda kichik sanoat zonalari ishlab chiqarish samaradorligini ekonometrik modellashtirish va prognozlash

Respublikada barpo etilgan va faoliyat yuritayotgan KSZ lar soni 500 tadan ortiq bo'lishiga qaramay, ularni barpo etishning yagona ilmiy jihatdan asoslangan tashkiliy-iqtisodiy modeli ishlab chiqilmagan. Ayrim hududlarda sanoat ishlab chiqarish bo'yicha malakali kadrlar yetishmasligi, ilg'or xorijiy uskuna va texnologiya asosida biznesni boshlash uchun boshlang'ich mablag' yetishmasligi (bu muammo KSZlarda faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'ektlariga ham tegishli), hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga ko'ra, KSZlarni turlarga ajratish asosida hududlar bo'yicha joylashtirishning ilmiy asoslangan tartib-qoidasi mavjud emasligi, KSZlar ichida loyihalarni tanlov asosida joylashtirishda ularning texnik, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy tomonlarini e'tiborga olinuvchi yagona mezonlar tizimi ishlab chiqilmagan. Bu muammolar KSZ larni tashkil yetish va boshqarish borasidagi asosiy muammolar sanaladi. Kichik sanoat zonalari faoliyati ilmiy manbalarda kam o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasida KSZlar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi dinamikasi to'g'risida ma'lumotlar deyarli yo'q bo'lganligi sababli va ularning mahsuloti KBXT sanoat mahsulotida hamda respublika sanoat mahsuloti takibiga qo'shilishini e'tiborga olib, iqtisodchi olimlardan B. Salimov[103] tomonidan KBXT sanoat mahsuloti va respublika sanoat mahsulotini prognozlash modellarini ishlab chiqilgan. B. Salimov O'zbekistonda KSZ larni barpo etish va rivojlantirish omillarini tahlil qilib, ularni rivojlantirishning konseptual modeli, ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida ishlab chiqadi, bunda natijaviy omil – kichik biznes tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar sifatida sanoat sohasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari asosiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalar va sanoat sohasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo'lgan ishchilar soni olingan.

Adaptiv modellar yordamida prognoz qilish asosini vaqtli qatorlar

---

[103] Салимов Б.Т., Салимов Б.Б. "Кичик саноат зоналарини барпо этиш ва ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий асосларини такомиллаштириш". – Т.: Иқтисодиѐт, 2020. – 135 б.

tashkil qiladi. Vaqtli qatorlarni tekislash hamda vaqt asosida prognozlashning xilma-xil usullari mavjud bo'lib, eng ko'p qo'llaniladigan usullar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Ko'rsatkich davrini uzaytirish usuli;
2. O'rtacha sirg'aluvchi usul;
3. Eksponensial tekislash usuli;
4. Trend tenglamalari.
5. Braun usuli
6. Xolt usuli
7. Xolt-Vinters usuli
8. Teyla-Veyj usuli

Rossiyaik olimlar N. A. Degtyareva, D.S. Gordeeva[104]lar ishlab chiqarish samaradorligini ekonometrik modellashtirish va prognozlashda mavsumiylikni hisobga oladigan moslashuvchan Broun modellari, Teyla-Veydj modeli va Xolt-Vinters modellaridan foydalanishgan.

Vaqtli qatorlarni eksponensial tekislash usuli qisqa muddatli va o'rta muddatli prognozlarda vaznli sirg'aluvchi o'rtacha ko'rsatkichlarda ma'lumotlarning yangiligi darajasini hisobga olish uchun qo'llaniladi. Mutaxassislar bu usuldan qo'llashda dastlabki kuzatuvlarning keyingi vaqt bo'yicha o'zgarishiga ta'siri so'nishi uchun dinamik qatorning tekislash darajasini topishga harakat qilishadi.Bu usulning muhim xususiyatlari bu hisoblashning soddaligi, ma'lumotlarning kam miqdordaligi, qisqa muddatli vaqtli qatorlar bilan ham ishlash mumkinligi va h.k.

Eksponensial tekislash usuli vaqtli qatorlarni bashorat qilishning eng qadimgi va eng ko'p o'rganilgan usullaridan biridir. Vaqt qatorlari qiymatlari bosqichma-bosqich tendentsiyaga rioya qilganda va mavsumiy xatti-harakatlarni ko'rsatganda samarali bo'ladi, bunda qiymatlar ma'lum vaqt bosqichlari davomida takrorlanadigan siklga amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasida kichik sanoat zonalari tomonidan 2018-2022 yillarda (4 choraklar bo'yicha) amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (mlrd. so'm) berilgan bo'lib, uni prognoz

[104]Н.А. Дегтярева, Д.С. Гордеева, П.А. Матвеева и др. Эконометрическое моделирование производственной эффективности //Азимут научных исследований: экономика и управление. 2019. Т. 8. № 2(27)

qilish uchun, dastlab kuzatuv ma’lumotlarini 3.2.1-jadval shakliga keltiriladi.

**3.2.1-jadval**

**O’zbekiston Respublikasida kichik sanoat zonalari tomonidan 2018-2022 yillarda (4 choraklar bo’yicha) amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi**

| t | 2018-2022 yillarda (4 choraklar bo’yicha) | Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (mlrd. so’m) |
|---|---|---|
| 1 | I,2018 | 102,1 |
| 2 | II,2018 | 414,7 |
| 3 | III,2018 | 227 |
| 4 | IV,2018 | 518,4 |
| 5 | I,2019 | 472,5 |
| 6 | II,2019 | 569,8 |
| 7 | III,2019 | 578,7 |
| 8 | IV,2019 | 895,6 |
| 9 | I,2020 | 523,8 |
| 10 | II,2020 | 497,8 |
| 11 | III,2020 | 676,2 |
| 12 | IV,2020 | 996,5 |
| 13 | I,2021 | 672,4 |
| 14 | II,2021 | 904,7 |
| 15 | III,2021 | 1092,3 |
| 16 | IV,2021 | 1295 |
| 17 | I,2022 | 947,9 |
| 18 | II,2022 | 1078 |
| 19 | III,2022 | 1361,8 |
| 20 | IV,2022 | 2970,6 |

3.2.1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra O’zbekistonda KSZ lar tomonida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (har bir chorak mahsulotlar hajmi alohida olingan) choraklar bo‘yicha o‘sish dinamikasida davriylik biroz buzilgan, ayniqsa 2018 yilning uchinchi choragida va 2020 yilning ikkinchi choragida, bu holat KSZ lar faoliyati  O’zbekistonda hali dastlabki tashkil qilinish davrida ekanligidan dalolat beradi. Buni quyidagi 3.2.1-rasmda ham kuzatish mumkin.




**3.2.1-rasm. O'zbekiston Respublikasida kichik sanoat zonalari tomonidan 2018-2022 yillarda (4 choraklar bo'yicha) amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining o'sish dinamikasi**

Grafikdan ko'rinmoqdaki, 4 davriylik asosida siklik tebranishlar mavjud, shuning uchun juft interval bilan eksponensial tekislashi quyidagi formula qo'llab bajaramiz:

$$y'_t = \frac{y_{t-(\frac{p}{2})} + 2\sum_{i=t-\frac{p}{2}+1}^{t+\frac{p}{2}-1} y_i + y_{t+(\frac{p}{2})}}{2p} \quad (3.2.1)$$

t= 3 uchun

$y'_3 = 361.85, \ldots$, t=18 uchun $y'_{18} = 1380.125$

qiymatlari hisoblandi. Agar p toq bo'lsa, tekislash oddiy o'rta arifmetik formulasi bo'yicha bajariladi.

Eksponensial o'rtachalarni hisoblandi

Sirg'aluvchi o'rta qiymatlarni hisoblashdan keyin ularning tekislash darajalari qiymatlarini trend tenglamalaridan foydalanib aniqlash zarur.

Trend tenglamasi

$$\widehat{S_t} = a + b * t \quad (3.2.2)$$

bu yerda t – vaqt, $\widehat{S_t}$- sirg'aluvchi o'rtacha

Excel dasturi orqali a=171.4616 va b=57.02873 ekanligi aniqlandi (6-ilova).

Mavsumiylik koeffisientlari:

$$s_t = Y_t / S'_t \qquad (3.2.3)$$

formula yordamida hisoblandi.

$s_1 = \frac{102.1}{228.4903} = 0.446846, \ldots, s_{20} = \frac{2970.6}{1312.036} = 2.264114$; (3.2.2-jadval).

O‘rtacha mavsumiylik koeffisientlari hisoblandi:

$\overline{s_1} =$ (0.446846+1.034811+0.764984+0.736606+0.830799)/5=0.762809

$\overline{s_2} = (1.45 + 1.11 + 0.67 + 0.93 + 0.9)$/5=1.01

$s3$=(0.66+1.01+0.85+1.06+1.09)/5=0.93

$\overline{s_4} = (1.3 + 1.43 + 1.16 + 1.19 + 2.26)$/5=1.47

**3.2.2-jadval**

**Mavsumiylik koeffisientlarini hisoblash**

| t | Chorak | Mahsulot hajmi (Yt) | Sirg'aluvchi o’rta his (S't) | Mavsumiylik koeffisientlari | O’rtacha mavsumiylik koeffisientlari | Tuzatilgan o’rtacha mavsumiylik koeffisientlari |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | I,2018 | 102,1 | 228,4903 | 0,446846 | 0,762809 | 0,729991 |
| 2 | II,2018 | 414,7 | 285,5191 | 1,452442 | 1,013114 | 0,969526 |
| 3 | III,2018 | 227 | 342,5478 | 0,662681 | 0,934419 | 0,894217 |
| 4 | IV,2018 | 518,4 | 399,5765 | 1,297374 | 1,469488 | 1,406265 |
| 5 | I,2019 | 472,5 | 456,6053 | 1,034811 | 4,17983 | 4 |
| 6 | II,2019 | 569,8 | 513,634 | 1,10935 | | |
| 7 | III,2019 | 578,7 | 570,6627 | 1,014084 | | |
| 8 | IV,2019 | 895,6 | 627,6915 | 1,426816 | | |
| 9 | I,2020 | 523,8 | 684,7202 | 0,764984 | | |
| 10 | II,2020 | 497,8 | 741,7489 | 0,671117 | | |
| 11 | III,2020 | 676,2 | 798,7776 | 0,846543 | | |
| 12 | IV,2020 | 996,5 | 855,8064 | 1,164399 | | |
| 13 | I,2021 | 672,4 | 912,8351 | 0,736606 | | |
| 14 | II,2021 | 904,7 | 969,8638 | 0,932811 | | |
| 15 | III,2021 | 1092,3 | 1026,893 | 1,063695 | | |
| 16 | IV,2021 | 1295 | 1083,921 | 1,194736 | | |
| 17 | I,2022 | 947,9 | 1140,95 | 0,830799 | | |
| 18 | II,2022 | 1078 | 1197,979 | 0,899849 | | |
| 19 | III,2022 | 1361,8 | 1255,008 | 1,085093 | | |
| 20 | IV,2022 | 2970,6 | 1312,036 | 2,264114 | | |

Tuzatilgan o‘rtacha koeffitsientlarni hisoblandi:

$\overline{s'_1} = 0{,}76 * 0{,}96$=0.73

$s'2$=1,01∗0,96=0.97

$\overline{s'_3} = 0,93 * 0,96$=0,89

$\overline{s_{\prime 4}}$ =1,47*0,96=1.41

$\overline{s_1} + \overline{s_2} + \overline{s_3} + \overline{s_4} = 4;$

$$Y_{prognoz} = (a + bt) * \overline{s'_k} \quad (3.2.4)$$

formula yordamida prognoz qiymatlari hisoblandi.

**3.2.3-jadval**

**Eksponensial tekislash modeli bo'ycha O'zbekiston Respublikasida kichik sanoat zonalari tomonidan 2024-2025 yillarda (4 choraklar bo'yicha) ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining prognoz qiymatlari**

| Davlar | I,2024 | II,2024 | III,2024 | IV,2024 | I,2025 | II,2025 | III,2025 | IV,2025 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Iashlab chiqarish hajmi | 1165.9 | 1603.8 | 1530.2 | 2486.7 | 1332.4 | 1825 | 1734.2 | 2807.4 |




**3.2.2-rasm. O'zbekiston Respublikasida kichik sanoat zonalari tomonidan 2018-2022 yillarda (4 choraklar bo'yicha) amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining o'sish dinamikasi va 2023-2025 yillardagi prognoz qiymatlari**

Holt-Vinters modeli mavsumiy vaqtli qatorlar uchun mo'ljallangan bo'lib, uning modeli sifatida uning multiplikativ tarzda yuklangan trend va mavsumiy kombinatsiyasi ko'rinishidagi shakli qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasida kichik sanoat zonalari tomonidan 2018-2022

yillarda (4 choraklar bo‘yicha) amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (mlrd. so‘m) berilgan bo‘lib, uni prognoz qilish uchun dastlab 3.2.1-jadval ma’lumotlaridan foydalandik

Mavsumiy vaqtli qatorning additive hamda multiplikativ modellar uchun eksponensial tekislanishini nazarda tutadi. Ushbu modellarning har biri uchun mavsumiylik parametri optimal qiymatni tanlash muhimdir. Agar bir necha yillar davomida dinamika va mavsumiylik ma'lum darajada kuzatilsa, ya’ni ma'lum bir davr mobaynida chastotali mavsumiylik mavjudligi sezilsa, u holda Vinters usuli bir nechta parametrlarni hisobga oladi, bular:

p – mavsumiy komponent davri;

mk - bir davr uchun (odatda bir yil) seriyaning o‘rtacha darajasi;

n – yillar umumiy soni;

Mavsumiylik koeffitsientlari $\widehat{S_1}, \widehat{S_2}, \dots, \widehat{S_n}$ vaqtli qatorlarni mavsumiylash-

tirish orqali olinadi.

Dastlabki koeffisiyentlar $\widehat{a_{1,t}}, \widehat{a_{2,t}}\ va\ \widehat{S_t}$ hisoblash uchun

Bu koeffisiyentlarni hisoblash uchun dastlabki 8 ta kuzatuv ma’lumotlari asosida eng kichik kvadratlar usulini qo‘llaymiz, ya’ni

$$y_t = \widehat{a_{1,t}} + \widehat{a_{2,t}} * t, bu\ yerda\ t = 1,2,\dots,8 \qquad (3.2.5)$$

$y_t$- t vaqt momentidagi mahsulot hajmi;

$\widehat{a_{1,t}}$,– dinamik qatorning dastlabki darajasi;

$\widehat{a_{2,t}}$ –mahsulot hajmining o‘rtacha o‘sishi.

Excel dasturi yordamida $\widehat{a_{1,t}}$=78.225 va $\widehat{a_{2,t}}$ =87.583 ekanligi aniqlandi (3.2.4-jadval).

Endi ular asosida $\widehat{S_t}$ mavsumiylik koeffisiyentini vaqtli qatorning dastabki qiymatini (1) tenglamaga tenglashtirilgan qiymatifa nisbati orqali aniqlaymiz.

T=0 da

$$\widehat{S_1} = \frac{y_t}{\widehat{y_t}} = \frac{102,1}{165,8} = 0,62, \quad \widehat{S_2} = \frac{y_t}{\widehat{y_t}} = \frac{414,7}{253,4} = 1,64,$$

$$\widehat{S_3} = \frac{y_t}{\widehat{y_t}} = \frac{227}{341,0} = 0,67, \qquad \widehat{S_4} = \frac{y_t}{\widehat{y_t}} = \frac{518,4}{428,6} = 1,21$$

**3.2.4-jadval**

**Mavsumiylik koeffisientlari**

| t | yil | chorak | $y_t$ | $\hat{y_t}$ | $\hat{S_t}$ |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 2018 | 1 | 102,1 | 165,8 | 0,62 |
| 2 | | 2 | 414,7 | 253,4 | 1,64 |
| 3 | | 3 | 227 | 341,0 | 0,67 |
| 4 | | 4 | 518,4 | 428,6 | 1,21 |
| 5 | 2019 | 1 | 472,5 | 516,1 | |
| 6 | | 2 | 569,8 | 603,7 | |
| 7 | | 3 | 578,7 | 691,3 | |
| 8 | | 4 | 895,6 | 778,9 | |
| 9 | 2020 | 1 | 523,8 | | |
| 10 | | 2 | 497,8 | | |
| 11 | | 3 | 676,2 | | |
| 12 | | 4 | 996,5 | | |
| 13 | 2021 | 1 | 672,4 | | |
| 14 | | 2 | 904,7 | | |
| 15 | | 3 | 1092,3 | | |
| 16 | | 4 | 1295 | | |
| 17 | 2022 | 1 | 947,9 | | |
| 18 | | 2 | 1078 | | |
| 19 | | 3 | 1361,8 | | |
| 20 | | 4 | 2970,6 | | |

Vintersning multiplikativ modeliga asoslangan prognozlashda t vaqtning h bosqichlida quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$y_{t,h} = \left(\hat{a}_{1,t} + \hat{a}_{2,t} * h\right)\hat{S}_{t+h-p}, -1 \le h \le p \quad (3.2.6)$$

$$y_{t,h} = \left(\hat{a}_{1,t} + \hat{a}_{2,t} * h\right)\hat{S}_{t+h-kp}, -1 \le h \le kp \quad (3.2.7)$$

Bu yerda k- 2 dan katta natural son. Keyingi mavsumiylik koeffifisiyentlarini aniqlash va ularni bosqichma bosqich tuzatish quyidagi rekurrent formulalar asosida amalga oshirildi:

$$\hat{a}_{1,t} = \alpha\left(\frac{y_t}{\hat{S}_{t-p}}\right) + (1-\alpha)(\hat{a}_{1,,t-1} + \hat{a}_{2,,t-1}) \quad (3.2.8)$$

$$\hat{a}_{2,t} = \beta(\hat{a}_{1,,t} - \hat{a}_{1,,t-1}) + (1-\beta)\hat{a}_{2,,t-1} \quad (3.2.9)$$

$$\hat{S}_t = \gamma\left(\frac{y_t}{\hat{a}_{1,t}}\right) + (1-\gamma)\hat{S}_{t-p} \quad (3.2.10)$$

bu erda α, β, γ lar 0 dan 1 oralig'idagi sonlar bo'lib, dastlab $\alpha, \beta = 0.3,\ \gamma = 0.5$ deb olindi va Excel ilovasi orqali α, β, γ larning qiymatlari

optimallashtirilib, $\alpha = 0.32, \beta = 0.01,\ \gamma = 0.99$ ga teng ekanligi aniqlandi, t=1 uchun koeffisiyentlarni tuzatish quyidagicha amalga oshirildi:

$$\widehat{y_t} = \left(\hat{a}_{1,t} + \ \hat{a}_{2,t}\right) * \hat{S}_{t-p} \qquad (3.2.11)$$

$$\widehat{a_{1,t}} = 0.32\left(\frac{102.1}{0.62}\right) + 0.68 * (78.2 + 87.6) = 165.4$$

$$\widehat{a_{2,t}} = 0.01 * (165.8 - 78.225) + 0.99 * 87.6 = 87.6$$

$$\widehat{S_t} = 0.99 * \left(\frac{102.1}{165.4}\right) + 0.01 * 0.62 = 0.617$$

Shu tartibda qolgan Vinters modeli koeffisientlari ham tuzatiladi, hisoblash natijalari aniqlanadi (7-ilova).

Keltirlgan har bir t uchun tuzatilgan dinamik qator darajalari oldingi davr $a_{1,t}$va $a_{2,t}$ lar qiymatlari yig‘indisini mos mavsumiylik koeffisienti $\widehat{S_{t-p}}$ ga ko‘paytmasiga teng ekan, ya’ni

$\widehat{y_1} = 102.796 = 102.8,\ \widehat{y_2} = 414.966 = 414{,}97$ va h.k.

Keyingi choraklar uchun prognoz qiymatlari quyidagicha hisoblanadi:

$$\widehat{y_{t,h}} = \left(\widehat{a_{1,t}} + \widehat{a_{2,t}} * h\right) * \widehat{S_{t-p}} \qquad (3.2.12)$$

bu yerda h-etakchilik davri.

**3.2.5-jadval**

**Vinters modeli bo’ycha O’zbekiston Respublikasida kichik sanoat zonalari tomonidan 2024-2025 yillarda (4 choraklar bo’yicha) ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining prognoz qiymatlari**

| Davlar | I,2024 | II,2024 | III,2024 | IV,2024 | I,2025 | II,2025 | III,2025 | IV,2025 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Iashlab chiqarish hajmi | 1716,2 | 1941,2 | 2361,3 | 3973,3 | 1957,8 | 2205,2 | 2671,8 | 4479,2 |

7- ilova ma’lomotlariga ko‘ra Vintersning multiplikativ modeli bo’yicha vaqtli qator dastlabki, tekislangan va prognoz qiymatlarini grafik shakldа quyidagi 3.2.3- rasmda ko’ramiz:




***3.2.3-rasm. Vintersning multiplikativ modeli bo'yicha vaqtli qator dastlabki, tekislangan va prognoz qiymatlari***

Surxondaryo viloyatida KSZlar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi dinamikasi to'g'risida ma'lumotlar yetarli bo'lmaganligi sababli va ularning mahsuloti kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) sanoat mahsulotida hamda viloyat sanoat mahsuloti takibiga qo'shilishini e'tiborga olib[105], dastlab ko'p omilli ekonometrik modelda viloyatdagi sanoat mahsuloti hajmi (mlrd. so'm (Y) va unga ta'sir etuvchi omillar sifatida kichik biznes tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi (mlrd. so'm (X1) va kichik sanoat zonalari ishlab chiqargan mahsuloti hajmi (mlrd. so'm (X2) olindi. Ko'p omilli ekonometrik modelda qatnashuvchi omillar sifatida – natijaviy omil – Surxondaryo viloyatidagi sanoat mahsuloti hajmi (mlrd. so'm (Y) unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasida quyidagi ko'rinishda korrelyatsion matritsa hisoblandi (3.2.6-javdal).

**3.2.6-jadval**

**Omillar o'rtasida bog'lanishlarning korrelyatsion matritsasi**

| | Y | $X_1$ | $X_2$ |
|---|---|---|---|
| Y | 1 | | |
| $X_1$ | 0,991035 | 1 | |
| $X_2$ | 0,640482 | 0,579863 | 1 |

[105] Салимов Б.Т., Салимов Б.Б. "Кичик саноат зоналарини барпо этиш ва ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий асосларини такомиллаштириш". – Т.: Иқтисодиѐт, 2020. – 135 б/111-бет.

3.2.6-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, xususiy korrelyatsiya koeffitsientlari, ya’ni natijaviy omil (Y) va ta’sir etuvchi kichik biznes tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi (mlrd. so‘m (X1) o‘rtasida uzviy aloqa (0,991) mavjud ekan. Natijaviy omil (Y) hamda kichik sanoat zonalari ishlab chiqargan mahsuloti hajmi (mlrd. so‘m (X2) o‘rtasida ham uzviy aloqa biroz sustroq (0,641) mavjud. Surxondaryo viloyatidagi sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va unga ta’sir yetuvchi omillar bilan ko‘p omilli ekonometrik model tuzildi va u quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\boldsymbol{y = 1.889x_1 + 7.944x_2 + 276.53} \qquad \textbf{(3.2.13)}$$

$$\boldsymbol{(31.963) \quad (3.395) \quad (3.227)}$$

Qavslar ichida keltirilgan qiymatlar har bir omil ishonchliligini aniqlovchi t-Styudent mezonining hisoblangan qiymatlari. Tuzilgan ushbu ko‘p omilli ekonometrik modelga ko‘ra, kichik biznes tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi (X1) 1 mlrd. so‘mga oshsa, viloyatning sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi o‘rtacha 1.889 mlrd. so‘mga ortishi mumkin ekan. Kichik sanoat zonalari ishlab chiqargan mahsuloti hajmi (X2) 1 mlrd. so‘mga oshsa, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi o‘rtacha 7.944 mlrd. so‘mga ortishi mumkin. Olingan natijada koeffitsient miqdorlarini ifodalovchi $R^2$ determinatsiya koeffitsienti 0,9943 ga teng bo‘ldi. Bu esa natijaviy omil tanlangan omillar bilan yetarlicha kuchli aloqada ekanligini ko‘rsatadi, ya’ni viloyatning sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 99,43 foizga ko‘p omilli ekonometrik modelga kiritilgan kichik biznes tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi (mlrd. so‘m (X1)) va kichik sanoat zonalari ishlab chiqargan mahsuloti hajmi (mlrd. so‘m (X2)) ga bog‘liq yekan.

F-mezonning hisoblangan qiymati $F_{hisob}$ =873.08 ga teng. F-mezonning jadval qiymatini ahamiyatlik darajasi $\alpha$ = 0,05, F-mezonning jadval qiymati $F_{jadval}$= 3.49 ga teng. Fhisob>Fjadval shartni qanoatlantiradi, bu esa F-mezonning hisoblangan qiymati jadvaldagi qiymatidan katta yekanligi hamda statistik ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Aproksimatsiya xatoligi A=5.6609 ga teng.

**3.2.7-jadval**

**Model parametrlarini baholash natijalari**

Model 1: OLS, using observations 2018:1-2023:3 (T = 23)
Dependent variable: y

| | *Coefficient* | *Std. Error* | *t-ratio* | *p-value* | |
|---|---|---|---|---|---|
| const | 276.532 | 85.6904 | 3.227 | 0.0042 | *** |
| x1 | 1.88864 | 0.0590877 | 31.96 | <0.0001 | *** |
| x2 | 7.94417 | 2.33991 | 3.395 | 0.0029 | *** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Mean dependent var | 3137.909 | S.D. dependent var | 1941.397 |
| Sum squared resid | 938966.3 | S.E. of regression | 216.6756 |
| R-squared | 0.988676 | Adjusted R-squared | 0.987544 |
| F(2, 20) | 873.0829 | P-value(F) | 3.47e-20 |
| Log-likelihood | −154.7316 | Akaike criterion | 315.4631 |
| Schwarz criterion | 318.8696 | Hannan-Quinn | 316.3198 |
| rho | 0.507044 | Durbin-Watson | 0.986569 |

Forecast yevaluation statistics using 23 observations

| | |
|---|---|
| Mean Error | 6.0798e-013 |
| Root Mean Squared Error | 202.05 |
| Mean Absolute Error | 161.59 |
| Mean Percentage Error | -0.84065 |
| Mean Absolute Percentage Error | 5.6609 |
| Theil's U2 | 0.12653 |

Yuqoridagi (3.2.13) regressiya tenglamasi asosida viloyat sanoat mahsuloti hajmi (Y), kichik biznes tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi (X1) va kichik sanoat zonalari ishlab chiqargan mahsuloti hajmi (X2) ning prognoz qiymatlarini aniqlash uchun har bir ta’sir etuvchi omilning vaqt bo‘yicha trend modellarini tuzildi. Ya’ni natijaviy omil Y ga ta’sir etuvchi X1 va X2 omillarni vaqtga bog‘liq deb olindi. Ularning ko‘rinishi quyidagicha:

1) kichik biznes tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi uchun

$$\widehat{y_{t,h}} = (2140{,}29 + 87{,}6 * h) * \widehat{S_{t-p}} \quad (3.2.14)$$

bu yerda h-etakchilik davri, p-mavsumiy komponenta davri, uning qiymatlari $\widehat{S_1} = 0{,}66,\quad \widehat{S_2} = 0{,}73,\ \widehat{S_3} = 0{,}85,\ \widehat{S_4} = 1{,}39$

2) kichik sanoat zonalari ishlab chiqargan mahsuloti hajmi uchun

$$y = 0.1355 * e^{0.2567x} ** \widehat{S_t}/100 \quad (3.2.15)$$

bu yerda $\widehat{S_t}$ navsumiyli indekslari bo’lib,

$$\widehat{S_1} = 34{,}78,\quad \widehat{S_2} = 56{,}53,\qquad \widehat{S_3} = 98{,}67,\qquad \widehat{S_4} = 193{,}73$$

Shu asosda viloyat sanoat mahsuloti hajmi (Y), kichik biznes

tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi (X1) va kichik sanoat zonalari ishlab chiqargan mahsuloti hajmi (X2) ning prognoz qiymatlarini aniqlandi (8-ilova)

**3.2.8-jadval**

**Surxondaryo viloyati sanoat tarmog‘i asosiy ko‘rsatkichlarining 2018 -2023 yildagi dinamikasi va 2024 yil 4-choragi-2025 yil 4-choragi uchun prognoz qiymatlari**

| Yil va choraklar | Viloyat sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so’m) | Viloyat kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so’m) | Viloyat kichik sanoat zonalari mahsulot ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so’m) |
|---|---|---|---|
| I,2024 | 2394,284 | 999,91 | 28,862 |
| II,2024 | 4836,82 | 2159,5 | 60,645 |
| III,2024 | 8006,21 | 3517,17 | 136,831 |
| IV,2024 | 14018,375 | 5815,29 | 347,281 |
| I,2025 | 3198,778 | 1208,31 | 80,585 |
| II,2025 | 6508,152 | 2587,29 | 169,327 |
| III,2025 | 11208,052 | 4181,03 | 382,049 |
| IV,2025 | 20942,2 | 6863,47 | 969,648 |

8- ilova ma’lomotlariga ko‘ra Surxondaryo viloyati sanoat mahsuloti hajmining 2018-2023 yillarda (4 choraklar bo’yicha) o’sish dinamikasi va 2025 yilgacha prognoz qiymatlarini grafik shaklda quyidagi 3.2.4- rasmda ko’ramiz:




**3.2.4-rasm. Surxondaryo viloyati sanoat mahsuloti hajmining 2018-2023 yillarda (4 choraklar bo’yicha) o’sish dinamikasi va 2025 yilgacha prognoz qiymatlari**

3.2.8-jadvalda keltirilgan prognoz qiymatlarga ko‘ra, 2025 yilning 4-choragiga kelib Surxondaryo viloyatining sanoat mahsuloti hajmi 2018

yilning 4 –choragiga nisbatan 6,49 barobarga, 2019 yilning 4 –choragiga nisbatan 4,76 barobarga, 2020 yilning 4 –choragiga nisbatan 3,8 barobarga, 2021 yilning 4 –choragiga nisbatan 3,09 barobarga, 2022 yilning 4 –choragiga nisbatan 2,87 barobarga oshishi kutilmoqda. Viloyat sanoat mahsuloti hajmining o'rtacha o'sish surati 123 % ni tashkil etishi kutilmoqda.




**3.2.5-rasm. Surxondaryo viloyati kichik tadbirkorlik subektlari sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmining 2018-2023 yillarda (4 choraklar bo'yicha) o'sish dinamikasi va 2025 yilgacha prognoz qiymatlari**

Xuddi shu kabi Surxondaryo viloyatining kichik tadbirkorlik subektlari sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2025 yilning 4-choragiga kelib 2018 yilning 4 –choragiga nisbatan 4,52 barobarga, 2019 yilning 4 –choragiga nisbatan 2,94 barobarga, 2020 yilning 4 –choragiga nisbatan 2,63 barobarga, 2021 yilning 4 –choragiga nisbatan 1,97 barobarga, 2022 yilning 4 –choragiga nisbatan 2,19 barobarga oshishi kutilmoqda. Viloyat kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmining o'rtacha o'sish surati 122,25 % ni tashkil etishi kutilmoqda.




**3.2.6-rasm. Surxondaryo viloyati kichik sanoat zonalari mahsulot ishlab chiqarish hajmining 2018-2023 yillarda (4 choraklar bo’yicha) o‘sish dinamikasi va 2025 yilgacha prognoz qiymatlari**

Shu jumladan Surxondaryo viloyati kichik sanoat zonalari mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2025 yilning 4-choragiga kelib 2018 yilning 4 –choragiga nisbatan 300 barobarga, 2019 yilning 4 –choragiga nisbatan 623,9 barobarga, 2020 yilning 4 –choragiga nisbatan 223,5 barobarga, 2021 yilning 4 –choragiga nisbatan 58,46 barobarga, 2022 yilning 4 –choragiga nisbatan 9,83 barobarga oshishi kutilmoqda. Viloyat kichik sanoat zonalari tashkil etilganligiga ko‘p vaqt bo’lmaganligi sababli mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘sish suratlari turli yillarda notekis o‘sgan, masalan 2019 yilda deyarli 50 foizga pasayib, 2020 yilda 2019 yilga nisbatan 279 foizga oshgan, 2021 yilda yesa 2020 yilga nisbatan 382 foizga oshgan, 2022 yilda yesa 2021 yilga nisbatan 594 foizga oshgan.

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, kichik sanoat zonalari faoliyati Surxondaryo viloyatida viloyat sanoatini, hudud iqtisodiy holatini, aholi bandligini oshiruvchi vositalardan hisoblanadi. KSZ lar faoliyati viloyatda  to‘liq ishga tushgani yo‘q, hali amalga oshmagam loyihalar bilan birga mavjud KSZ lar hududlarida infratuzilmaviy jarayonlarda muammoli holatlar kam emas. Shu tufayli KSZ larga oid statistik ma’lumotlar to‘liq bo’lmaganligi yoki to‘liq bo‘lsa ham, ma’lumotlarda dinamik jarayon bo‘lmaganligi uchun prognoz qiymatlarni aniqlash biroz qiyin bo‘ldi. KSZ lar faoliyati to’liq yo‘lga qo‘yilsa, sanoat ishlab chiqarishini oshiradi va hududning rivojlanishiga olib keladi.

## 3.3. SURXONDARYO VILOYATIDA KIChIK SANOAT ZONALARI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Jahon tajribasidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, bunday sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asosiy o‘rinni yegallaydi. Ma’lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal rivojlanib borayotgan va tez o‘zgaruvchan bozor iqtisodiyoti talablariga tezda moslashuvchan hisoblanadi. Bundan tashqari bu soha aholini ish bilan ta’minlashda, ularning daromadlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Respublikada tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay biznes muhitini yaratishga va va xalqaro maydonda mamlakatning ijobiy nufuzini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bugungi kunda jahon rivojlangan mamlakatlarida bo‘lgani kabi, O‘zbekistonda ham yangi texnologiyalarni rivojlantirish hamda iqtisodiy diversifikatsiyalashni ta‘minlaydigan yangi sanoat parklari tashkil qilish masalasi dolzarbdir. Mavjud bozor va institutsional to‘siqlarni, asosan moliyalashtirishni jalb qilish bilan bog‘liq muammolarni sanoat parklarini yaratish orqali yengish mumkin.

Hozirgi vaqtda davlat subyektlari orasida investitsion jozibadorlikning muhim tarkibiy qismlaridan biri, raqobat muhitini yaratish orqali mintaqaga potentsial investorlarni jalb qilish imkonini beradigan kichik sanoat zonalari hisoblanadi, ular faoliyatini tashkil qilish va rivollantirish orqali ishsizlik darajasini pasaytirish, tadbirkorlikning kichik va o‘rta shakllarini qo‘llab – quvvatlash va shu bilan birga hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirish mumkin.

Rossiya industrial parklari uyushmasining (AIP) yillik hisobotidan ma'lum bo‘lishicha, 2022 yili Rossiyada sanoat parklari va maxsus iqtisodiy zonalar sonining o’sishi o‘tgan yillarga nisbatan sekinlashdi. Shu bilan birga, bozor ekstensiv o‘sishdan intensiv o‘sishga o‘tmoqda – loyihalar yanada barqaror va samarali bo‘lib bormoqda. Rossiyada sanoat parki bozori allaqachon yetuklik darajasiga yetgan, lekin ilg'or sanoat ob'ektlarida infratuzilma imkoniyatlarining yetishmasligi mavjud. Yetakchi hududlarda sanoat parklarining bandlik darajasi 80 foizga yaqinlashmoqda, bir qator parklar yesa 100 foiz band. Bugungi kunda Rossiyada AIP ma'lumotlariga ko’ra, 377 ta sanoat parki mavjud bo’lib,

ulardan 19 tasi o’tgan yili paydo bo’lgan. Shu bilan birga, joriy yetilayotgan yoki yaratilayotgan yangi loyihalarning oʻsish surʼati oʻtgan yili 5 foizgacha pasaygan, bu soʻnggi oʻn yildagi oʻrtacha yillik qiymatdan (19 foiz) sezilarli darajada pastdir[106].

KSZlarini barpo etishni tashkil etish masalalari zonalarning o‘‘zida ishlab chiqarish subyektlarini joylashtirishga tayyorlash bilan bog‘‘liq ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Maydonlarni tekislash, muhandislik-kommunikatsion elementlarini barpo etish, markaziy avtomobil yo‘‘liga chiqishni taminlaydigan yo‘‘lni qurish, zona atrofini o‘‘rash, zonada qancha kichik biznes subyektlarini joylashtirish mumkinligini aniqlash, tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘‘rsatish obyektlarini aniqlash va ularni joylashtirish, har bir tadbirkorlik subyekti uchun qancha joy ajratish kerak, ularni bir-biridan ajratib turadigan masofa qanday bo‘‘lishi kerak degan masalalarni hal qilishga tog‘‘ri keladi[107].

Kichik sanoat zonalarida tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish tanlov asosida amalga oshiriladi. Bunday yondashuv kichik sanoat zonalariga raqobatbardosh va eksportbop mahsulot ishlab chiqaruvchi, ya’ni zamonaviy texnika va texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyuvchi tadbirkorlarni jalb yetishga imkoniyat yaratadi va kichik sanoat zonalarining raqobatbaroshligini oshiradi.

Mamlakatimizda kichik sanoat zonalari asosiy kamchiligi butunlay ma’lum bir sohaga moslashtirilgan sof ixtisoslashtirilgan hududlarning yoʻqligidadir. Ayni paytda, ularga yehtiyoj bor, ularning afzalliklari tadbirkorlar bir-birlarining mavjud ishlab chiqarish zanjirlarini toʻldirishlari, ishlab chiqarish vaqtini qisqartirishlari va logistika xarajatlarini optimallashtirishlari mumkin.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda mikro-biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish boʻyicha katta amaliy ishlar qilindi. Dasturlar orqali mikro-biznesni moliyaviy qoʻllab-quvvatlashga har yili 1 milliard dollardan ziyod mablagʻ yoʻnaltirildi, natijada bugun har bir mahallada

---

[106] Юрий Праслов Индустриальные парки: путь к зрелости журнал «Промышленник Сибири»//https://prom-siberia.ru/magazine/

[107] B.B. Muhammadjonov, O.A. Xudayberdiyev., Oʻzbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik sanoat hududlari rivojlanishining istiqbollari. Academic Research in Educational Sciences. 2022 265-273 betlar

kamida 40-50 nafar yangi tadbirkor paydo bo‘lib, minglab doimiy ish o‘rinlari yaratilmoqda[108].

Jahon iqtisodiga nazar tashlasak, hozirgi vaqtda Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) iqtisodiyoti dunyodagi eng yirik iqtisodiyotlardan biri bo‘lib, juda tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Keyingi o‘n yillar davomida Xitoy iqtisodiy islohotlari tufayli global sanoat kuchiga aylandi, bunga sabab, Xitoyda sanoat parklari xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning yeng muhim vositasiga aylandi. Xitoy sanoat parklari innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish jarayonini tezlashtirdi, hududiy ishlab chiqarishni rivojlantirdi, aholi bandligini oshirdi, hududning eksport va import hajmini oshirdi. Shuning uchun ham rivojlangan davlatlar, xususan Xitoy sanoat parklarini rivojlantirish tajribasini o‘rganish biz uchun muhimdir, chunki Xitoyda sanoat parklari mamlakat sanoati va iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy vositalaridan biridir.

Prezidentimiz sanoatni rivojlantirish hamda qo‘shimcha zaxiralarni aniqlash masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida quyidagilarni ta’kidladi: “Mamlakat iqtisodiyoti va aholi bandligida sanoat juda katta o‘rin tutadi. Bu sohaga zarur sharoit yaratish maqsadida so‘nggi yillarda 19 ta erkin iqtisodiy zona va 400 dan ziyod kichik sanoat zonasi tashkil etildi, ularning infratuzilmasiga 10 trillion so‘m yo‘naltirildi. Shuningdek, to‘qimachilik, kimyo, qurilish materiallari, charm, farmasevtika, elektr texnikasi kabi tarmoqlarni “drayver”ga aylantirish uchun 3 milliard dollarlik moliyaviy resurslar ajratildi. Sanoatni xomashyo bilan ta’minlash uchun geologiya-qidiruv ishlari 3 barobar ko‘paytirilib, 600 tadan ziyod yangi kon aniqlandi”[109].

Kichik sanoat zonalari o‘zlarida mavjud bo‘lgan imtiyozlar tufayli kichik innovatsion korxonalarga yeksportga yo‘naltirilgan yoki import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun qulay boshlang‘ich sharoitlarni yaratishga qodir. Hududlarda faoliyat yuritayotgan kichik sanoat zonalari mavjud ishlab chiqarish salohiyatini ro‘yobga chiqarish, kichik innovatsion korxonalar uchun keng ko‘lamli

---

[108] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqi/ https://president.uz/uz/lists/view/6561//23.08.2022

[109] www.president.uz

infratuzilma xizmatlarini ko‘rsatish uchun katta imkoniyatlar yaratilmoqda.

